



Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2024, № 6

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta'lim» jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboyn BEGIMQULOV
Xolboyn IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOVA
Zulfizar KARIMOVA

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **X.I.Ibraimov**
Ta'lim jarayonida inklyuziv kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari
- 7 **R.G.Safarova**
Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda atrof-muhitni va tabiyatga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish
- 12 **A.T.Turgunova**
Avlodlararo munosabatlarda uzviylik va uzluksizlik
- 18 **M.Z.Hamdamova**
Tinglovchilarda milliy qadriyatlar asosida insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirish
- 25 **X.N.Qodirova**
Turkiy elatlarning xalq va sport o'yinlariga doir terminlar iste'moli: kecha va bugun
- 30 **M.Imomova**
Biologiya fanidan interfaol metodlarning ta'lim jarayoniga ta'siri
- 35 **O.E.Jumanova**
Maktabga tayyorlov guruhleri va birinchi sinf o'quvchilari o'quv dasturlarining uzviyligi va o'zaro bog'liqligi
- 39 **N.Sultonov**
Ta'limda zamonaviy texnologiyalar va ulardan foydalanishning samarali usullari
- 44 **P.X.Djuyraev, H.Ajumova**
Формирование опыта исследовательской деятельности будущего учителя
- 49 **Z.Karimova**
Особенности деятельности преподавателя при реализации воспитательного аспекта в процессе изучения иностранному языку
- 54 **L.M.Qaraxonova, D.M.Elmuratova**
Boshlang'ich sinflarga tabiatni anglashni multimedia ta'limi asosida tashkil etishning samarasi

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 59 **M.J.Boltayeva**
Tarix fanini world history commons platformasi yordamida o'qitishning jahon tajribasi
- 64 **F.Sh.Irsaliyev**
Elektron ta'lim resurslari yaratish va ulardan foydalanish
- 69 **Sh.Bekchonova**
5-6-sinf adabiyot darslarida IT-texnologiyalarini tatbiq etishning amaliy mexanizmlari
- 74 **M.P.Djumaniyazova**
Ta'limda elektron ta'limiy vositalardan foydalanishning nazariy va amaliy asososlari
- 80 **D.R.Karimov**
IT platformalarni tadbirkorlik sohasining rivojlanishga ta'sirini baholash usullari

MA'NAVIY TARBIYA

- 86 **F.X.Ibragimova**
Ta'lim muassasalarida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimli tashkil etish masalalari
- 91 **G.M.Qurbonova**
Oliy ta'lim tizimida madaniy qadriyatlar asosida talabalarining ijtimoiy faolligini rivojlantirish
- 96 **N.R.Masharipova**
Ta'lim jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish imkoniyatlari

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 101 **M.M.Xolmuxamedov**
Natijaga yo'naltirilgan kasbiy ta'limda ta'lim natijalarini baholash tamoyillari
- 105 **A.A.Nurmatov**
Bo'lajak o'qituvchi faoliyatining tarkibiy qismlari
- 108 **J.I.Annazoeva**
Роль и значение детских школ музыки и искусств в развитии национальной культуры (на примере узбекской традиционной музыки)



TA'LIM JARAYONIDA INKLYUZIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

X.I.IBRAIMOV,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori, akademik

Maqolada respublikamiz ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari, bu boradagi mavjud muammolar hamda bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning inklyuziv kompetentligini rivojlantirish-ning ijtimoiy-pedagogik asoslari haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: *inklyuziv ta'lim, inklyuziv kompetentlik, eksklyuziya, segregatsiya, integratsiya, inklyuziya.*

The article discusses the legal and regulatory framework for organizing inclusive education in educational institutions of our republic, existing problems in this regard, and the socio-pedagogical foundations for developing inclusive competence of future teachers and educators.

Key words: *inclusive education, inclusive competence, exclusion, segregation, integration, inclusion.*

«Inklyuziv ta'lim» tushunchasi adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi: «Inklyuziv ta'lim – inglizcha (inclusive, inclusion) so'zdan olingan bo'lib uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirilgan, o'ziga tortuvchi, qamrab oluvchi ma'nolarini anglatadi» [1]. Lotinchada esa (include) qamrab olaman, jalb qilaman ma'nosini, ya'ni nogironligi bo'lgan va oddiy bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim barcha mamlakatlarda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biridir.

Bizningcha inklyuziv ta'lim bu barcha o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir.

Umuman olganda, jahon tajribasiga nazar tashlasak alohida yordamga muhtoj bolalarni ta'lim bilan qamrab olish darajalari quyidagicha ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkinligini ko'ramiz:

Eksklyuziya – ta'lim bilan qamrab olinmagan ya'ni ta'limdan tashqarida nogironligi bor bolalar. Bunday bolalar ta'limga jalb etilmaydi va o'z-o'zidan ularning ta'lim olish huquqlari ta'minlanmaydi.

Segregatsiya – alohida yordamga muhtoj bolalarni umumiy ta'limdan alohidalash va ularga maxsus maktab va internatlarda ta'lim berish.

Integratsiya – alohida yordamga muhtoj bolalar uchun umumta'lim maktablarida alohida sinflarni tashkil etish.



Inklyuziya – alohida yordamga muhtoj bolalar boshqa bolalar bilan umumta'lim maktablarida bir sinfda tahsil olishi.

Uzluksiz ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning nazariy jihatlarini asoslash va amaliyotga tadbiq etish ham pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan sanaladi. O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonunining 17-moddasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari sanab o'tilgan bo'lib ular quyidagilardir [2]:

- umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti.

Inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning alohida ta'lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog'lom muhitga uyg'unlashtirish orqali ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta'minlanadi.

Qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bitta tashkilotda alohida guruhlarda, shuningdek inklyuziv guruhlarda birgalikda o'qishini hamda tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi [3].

Inklyuzivlik tamoyili ta'limda imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Ota-onalar va mutaxassis pedagoglar inklyuziv ta'limni nafaqat isalgan ta'lim muassasasi uchun ochiq eshik sifatida balki ta'lim samaradorligi natijasi uchun mas'uliyat sifatida ham baholashlarini istar edik. Bunda ta'lim samaradorligi taqdim etilayotgan inklyuziv xizmat turlarining alohida yordamga muhtoj bolalar ehtiyojlariga mosligi bilan o'lchanadi.

Bolalarga, shu jumladan, o'ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta'lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o'z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi [4]

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish o'z-o'zidan pedagoglar va tarbiyachilar faoliyatiga qo'yiladigan talabning ortishini, ularning funksional majburiyatlarini ko'payishini va professional malakalarini kengayishi ehtiyojini keltirib chiqaradi.



An'anaviy bilim va malakalarning o'zigina bu ta'lim turida yetarli emas. Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash pedagog va tarbiyachilardan maxsus professional kompetensiya ya'ni inklyuziv kompetentlikni talab qiladi.

Pedagog va tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi muammosi ko'pgina tadqiqotlar predmetiga aylangan. Masalan Rossiyalik olim N.V.Kuzminaning tadqiqotlarida pedagogning kasbiy kompetentligi komponentlari metodik kompetentlik, pedagogik-psixologik kompetentlik va autopsixologik kompetentlik va ijtimoiy kompetentlikdan iborat deb sanab o'tilgan. Olimaning samaradorligi yuqori va samaradorligi sust bo'lgan pedagog haqida bildirgan mulohazalari diqqatga sazovor. Ushbu farq eng avvalo ta'lim oluvchilarning berilgan materialni o'zlashtirish jarayonidagi o'ziga hosliklarini hisobga olishi, ular faoliyatidagi individual farqlarni ko'ra olish qobiliyatida seziladi [6]deya keltirib o'tgan.

A.K.Markovaning ta'kidlashicha kompetentli pedagog o'z kasbiy faoliyatini yuqori darajada yo'lga qo'ygan, samarali pedagogik muloqotga kirisha oladigan, ta'lim va tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikni namoyon qilib, shaxs va professional sifatida shakllanuvchi mutaxassisdir. A.K.Markova pedagoglar kompetensiyasining bir necha turlarini ajratib ko'rsatdi: shaxsiy, ijtimoiy, individual, maxsus. Olimning fikriga ko'ra o'qituvchining kasbiy kompetentligi kasbiy pedagogik pozitsiya, kasbiy bilim va ko'nikmalar, shaxsiy hususiyatlar kabilarni o'z ichiga qamrab oladi [7]. Shuni ta'kidlash lozimki, inklyuziv kompetentlikni shakllantirish uchun pedagog quyidagi muhim sifatlarga ega bo'lishi lozim: empatiya, refleksiya, mobillik va moslashuvchanlik, hamkorlik qobiliyati, ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga nisbatan senzitivlik, muloqotchanlik, o'z-o'zini boshqara olish ko'nikmasi va boshqalar.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim maktabi tarbiyachi va pedagog kadrlarida inklyuziv kompetentlikni shakllantirish murakkab, uzluksiz va tizimli jarayob bo'lib, quyidagi tavsiyalar inklyuziv ta'lim muhitida ishlay oladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlashda hisobga olinishini istar edik:

1. Inklyuziv ta'limni joriy etishda uzviylik va o'zaro aloqadorlik tamoyillariga rioya etish;

2. Inklyuziv ta'lim muammosi nafaqat bo'lajak defektolog mutaxassislar balki bo'lajak boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim yo'nalishi pedagog- tarbiyachilari to'qnash kelishi tayin bo'lgan muammo hisoblanar ekan (chunki bugun boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim fakultetlarida oliy pedagogik ta'limni olayotgan talabalar, o'qishni tamomlab inklyuziv sinf raxbarlari, yoki inklyuziv guruh tarbiyachilari bo'lib faoliyat olib borishlarini unitmasligimiz lozim) ushbu yo'nalishlar o'quv rejasidagi pedagogik turkum fanlar mazmuniga inklyuziv ta'lim mazmunini singdirish lozim;

3. Inklyuziv ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini talim amaliyotiga singdirish, bo'lajak boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim pedagog-tarbiya-



chilariga ta'lim berishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga sharoit yaratish;

4. Inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalariga tyutor (yordamchi pedagog xodim) sifatida oliy ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi yuqori kurs talabalarini pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilish;

5. Pedagog va tarbiyachilar uchun alohida yordamga muhtoj bolalarga havfsiz inklyuziv ta'lim muhitini yaratishga yordam beruvchi pedagogik, psixologik, metodik tipdagi adabiyotlar, qo'llanmalar, tavsifiya va dasturlarni ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika [Maru]. Darslik. T., «Sahhof», 2023, 416-bet.

2. Ibraimov X., Quronov M., Ibragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Marn]. Darslik. - T., «Sahhof», 2023.392-bet.

3. Ота-она - мураббий [Матн] / Х.Ибраимов, М.Курунов, Ж.Фозилов, Ф.Зарипов; - Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2024. - 220 б.

4. <https://lex.uz/docs/-5013007>

5. [https://en.wikipedia.org/wiki/Inclusion_\(education\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Inclusion_(education))

6. <https://www.lex.uz/docs/-4646908>

7. <https://lex.uz/ru/docs/-4333062>

8. <https://lex.uz/ru/docs/-5044711>

9. Кузьмина О. С. Особенности организации подготовки педагогов к работе в условиях инклюзивного образования // В мире научных открытий. - Красноярск: Научно-инновационный центр (Проблемы науки и образования). - 2013. - № 11.8. - С. 337-344.

10. Маркова А. К. Психология профессионализма. - М.: Издательство: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. - 308 с.

11. Бородина О. С. Формирование инклюзивной компетентности будущего учителя основ здоровья // Профессиональное образование в России и за рубежом. - 2014. - № 1 (13). - С. 75-79.

12. Козырева О. А. Изменения в структуре профессиональной компетентности педагога в условиях перехода к инклюзивному образованию // Сибирский вестник специального образования. - 2017. - №

13. Oizi T. K. S. Topical Issues Formation of Inclusive Competence of Future Teachers in the Republic of Uzbekistan // Journal NX. - С. 103-106.



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA ATROF-MUHIT VA TABIATGA QADRIYATLI MUNOSABATNI TARKIB TOPTIRISH

R. G. SAFAROVA,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo‘limi boshlig‘i, pedagogika fanlari doktori, professor

Ushbu maqolada shaxsda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shallantirishning ijtimoiy pedagogik sohasidagi mavjudd tajribalar, uning asosiy yo‘nalishlari, shart sharoitlari va ijtimoiy me‘yorlari haqida fikr yuritilgan. Shunga ko‘ra, ushbu maqoladan pedagogik jamoatchilik, talabalar va tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: shaxs, o‘quvchi, hayot tarzi, sog‘lom, barkamillik, yaratuvchanlik, sport, axloqiy, ma‘naviy, sog‘lom.

In this article, the existing experiences in the social-pedagogical field of developing healthy lifestyle skills in a person, its main directions. Conditions and social norms are discussed. Accordingly, this article can be used by the pedagogical community, students and researchers.

Key words: personality, student, lifestyle, healthy, integrity, creativity, sports, moral, spiritual, healthy.

Shaxs salomatligi va jamiyat salomatligi o‘zaro chambarchas bog‘langan yaxlit bir hodisaning ikki jihatidir. Shuning uchun ham o‘quvchilarni sog‘lom turmush tarziga odatlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega. Sog‘lom turmush tarziga odatlanish natijasida o‘quvchilarning jismoniy, axloqiy-ma‘naviy salomatliklarini mustahkamlash imkoniyati vujudga keladi. Shu o‘rinda sog‘lom turmush tarzining tavsifi qanday, degan haqli savol tug‘iladi. Sog‘lom turmush tarzi bu insonning aql-idrokka asoslangan xulq-atvor va harakatlar tizimini ifodalab, madaniy-tarixiy, axloqiy-diniy hamda milliy an‘nanalarga asoslanadi. Bu o‘zbek xalqining milliy mentalitetiga asoslangan maqbul harakatlanish tartibi, chiniqish, to‘g‘ri ovqatlanish, qulay hayot tartibiga amal qilish, kasalliklar va salbiy odatlardan voz kechishdan iborat bo‘lib, bularning barchasi insonning jismoniy, ruhiy, ma‘naviy, ijtimoiy muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. Bunday kishilar atrof-muhit bilan faol muloqotga kirishib, uzoq yillik ijtimoiy faoliyat tajribasini egallashga muvaffaq bo‘ladilar.

O‘quvchilar sog‘lom turmush tarzini egallashlari natijasida quyidagi sifatlarga ega bo‘ladilar:

- ijtimoiy yetuklik;
- ma‘naviyatlilik - yetuk shaxs sifatida yuqori darajadagi rivojlanish va o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatiga egalik;
- o‘z hayotiy faoliyatida umuminsoniy milliy qadriyatlarga amal qilish;



- milliy va umuminsoniy axloq me'yorlariga asoslanish;
- voqelikka rahmdillik va haqqoniylik asosida yondashish;
- yovuzlikka qarshi tura olish;
- qat'iyatlilik;
- ixtiyoriy harakatlarni muvofiqlashtira olish;
- mustahkam ma'naviy ko'nikmalarga ega bo'lish;
- mustaqil O'zbekiston davlatining fuqarosi sifatida jasorat ko'rsatish, aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish;
- qahramonlik ko'rsata olish;
- g'oyaviy sog'lom dunyoqarashga ega bo'lish;
- ma'naviy qadriyatlarni egallash;
- hayotdan ma'no izlash;
- ichkilikbozlik, kashandachilik, giyohvandlikka qarshi tura olish;
- umuminsoniy qadriyatlarga ijobiy munosabatda bo'lish;
- tanlov erkinligiga ega bo'lish;
- xushchaqchqlikka asoslangan kayfiyatning vujudga kelishi natijasida rivojlanayotgan shaxs jismlarida uyg'unlashish va quvonch hissining vujudga kelishini ta'minlash;
- hayotiy faoliyatida barqarorlikni erishish;
- yurak ishini bir maromga tushirish;
- o'quvchilarning gender yetukligini ta'minlash va jadallashtirish;
- jinsiy hamda ijtimoiy yetuklikni o'zaro muvofiqlashtirish;
- «ommaviy madaniyat» xurujlariga qarshi kurasha olish kabilar. Sog'lom turmush tarziga amal qilish ko'nikmasini shakllantirish uchun o'quvchilarning faoliyatini ongini ezgu amallarni egallashga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda ularning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy holatlariga ham e'tibor qaratish lozim.

Bugungi kunga kelib o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini samarali shakllantirishga oid bir qator yondashuvlar mavjud. Mutafakkir ajdodlarimiz va jadid ma'rifatparvarlari insonning aql-idroki, iqtidori, bilish faoliyati, kuch-quvvati uning salomatligiga bog'liq ekanligini qayta-qayta e'tirof etganlar. Muqaddas Islom dinining tayanch asosi bo'lgan Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda ham inson salomatligi, uning sog'lom turmush tarzi me'yorlariga amal qilishi, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi va muntazam faollik ko'rsatishiga alohida e'tibor qaratilgan. «Allohi Taolo o'z bandalari ichida g'ayratlisini yoqtiradi», deb ta'kidlangan. Muqaddas kitoblarda poklik va ozodalik ulug'langan. Har tomonlama yetuk barkamol shaxslar bo'lishlari uchun shohlar, ulamolar o'z farzandlari, hatto, xotin-qizlarni ham ham ot sporti, chovgon o'yini bilan shug'ullanishga undaganlar. «Alpomish», «Farhod va Shirin», «Sabbai sayyor», «Go'ro'g'li» kabi ko'plab dostonlarda yoshlarning jismoniy



chinqishlari zarurligi uqtirilgan va u aniq obrazlar misolida ko'rsatib berilgan. Mazkur an'analarning davom ettirish maqsadida O'zbekistonda «Besh tashabbus» sport o'yinlariga g'oyasiga asos solindi. Kuni kecha 2024-yil 7-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev maktablarda musiqa, jismoniy tarbiya va harbiy vatanparvarlik fanlari sifatini oshirish bo'yicha taqdimot bilan tanishdi. Ma'lumki, musiqa, jismoniy tarbiya va harbiy vatanparvarlik fanlari o'quvchilarda sog'lom turmush tarsi me'yorlarini singdirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Ma'naviy tarbiya jarayonini sport va jismoniy tarbiya bilan faol tarzda uyg'unlashtirish hayotga, mehnatga va vatan himoyasiga ta'lim oluvchilarda ijobiy munosabatni rivojlantiradi. O'zbek oilalarida sog'lom turmush tarzini mustahkamlaydi, o'quvchilarda harbiy vatanparvarlik hissini tarkib toptiradi. Mas'uliyatsizlik, ma'naviyatsizlik holatlari bilan kelishmaslik, nojuya xatti-harakatlar, nohaqlik, tekinko'rlik, boqimandalik, mansabparastlik, ta'magirikka qarshi kurashchanlik hissini qaror toptiradi, yoshlarni mardlikka undaydi. Ijodkor, ijtimoiy yo'naltirilgan shaxsning ma'naviy tarbiyasi milliy xarakterdagi ta'lim jarayonida amalga oshadi. Bunday tarbiya o'quvchilarning intellektual hamda axloqiy quvvatlarini muvofiqlashtirish hisobiga amalga oshadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni sport hamda jismoniy tarbiya orqali har tomonlama shakllantirishni juda erta yoshdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda Respublikamizda bolalar sportini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ustuvor o'rin ajratilmoqda.

Ma'naviyatlilik bu, o'z navbatida, hayotiy quvvat, shaxsni harakatga undovchi ruhiy holatdir. U o'zida intellektual, axloqiy, estetik, diniy qadriyatlarini mujassamlashtiradi va yagona quvvatga aylantiradi. Uning yordamida shaxs ichki olamining o'ziga xos jihatlari, mavjudligi namoyon bo'ladi. Shaxs ma'naviyati birinchi navbatda har qanday turdagi ijodiy faoliyat jarayonida shakllanadi.

Ajdodlarimiz ma'naviy salomatlik badan tarbiyasi natijasida vujudga kelishini ta'kidlaganlar. Sog'lom turmush tarzining ma'naviy asoslari bilan bir qatorda muhim shart-sharoitlari ham mavjud.

Sog'lom turmush tarzi yaxlit bir tizim sifatida o'zida to'rtta muhim tarkibiy qismni birlashtiradi:

1. O'quvchilarning salomatliklarini mustahkamlash asoslarini targ'ib etuvchi Zardo'shtiylik dini asoslari, Islomiy madaniyat va ajdodlarimiz hamda jaded ma'rifatparvarlari merosini o'zlashtirishlari.

2. O'quvchilarning maqsadga muvofiq tarzda harakatlanish madaniyatini egallashlari.

3. O'quvchilarning ovqatlanish mezonlariga amal qilishlari.

4. O'quvchilarning his-tuyg'ular va kechinmalarni egallash madaniyatini o'zlashtirishlari.



Salbiy kechinmalar katta buzg'unchilik quvvatiga ega bo'lsa, ijobiy histuyg'ular o'quvchilarning salomatliklarini muhofaza qiladi, mustahkamlaydi, muvaffaqiyat qozonishga yo'naltiradi. Sog'lom turmush tarziga amal qilish Islomiy hayot tarzi bo'lib, ma'naviy yuksak sifatlariga ega bo'lgan shaxsning axloqiy, jismoniy salomatligini barqarorlashtirish imkonini beradi. Inson umrini uzaytirib, unga ijodiy kuch-quvvat bag'ishlaydi va hayotdan qoniqish hissini in'om etadi. Bu har bir o'quvchining ma'naviy hayotida baxt, quvonch, to'laqonlilik, fikriy yetuklikni ta'minlaydi. Har bir o'quvchining salomatligini mustahkamlab, surunkali kasalliklarning oldin olish, halokatlar, zahmat chekishlarni bartaraf qilish, ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishlariga yordam beradi.

O'quvchilar orasida sog'lom turmush tarzini ongli tarzda egallashning barqaror mayllarini hosil qilish uchun muayyan vaziyatlarda amaliy ko'nikmalar va xulq-atvor me'yorlarini egallash tajribasini shakllantirish lozim. Buning uchun O'zbekiston Respublikasida sport va jismoniy tarbiya, bolalar salomatligini muhofaza qilish, to'g'ri ovqatlanishning samarali tizimining amal qilishini ta'minlash, savodli sport menedjerlarini tayyorlash, sport inventarlarini ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish, sifatli sport anjomlari ishlab chiqarishni jadallashtirish, sport anjomlari va sport xizmatlari marketingi ko'lamini kengaytirish kabilar alohida dolzarblik kasb etmoqda. Sport inshootlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash ham alohida zaruriyat sifatida namoyon bo'lmoqda. Birinchi navbatda, sport inshootlari sanitar-gigienik me'yorlarga javob berishi lozim.

O'quvchilarning jismoniy yuklamalarini optimallashtirish, ularni musiqa, jismoniy tarbiya va sportga qiziqtirish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ularni jismoniy estetik tarbiyalashning shakllari, yo'nalishlari, vositalari, usullari va metodlarini yangilash, muntazam takomillashtirish ham o'z yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi. O'quvchilarning salomatliklarini baholash mezonlari muntazam yangilanishi, takomillashtirilishi va to'ldirilishi lozim. O'quvchilarning sport sohasida muvaffaqiyatlarga erishishlarini ta'minlash uchun yangi ilmiy yondashuvlar, texnologiyalarni joriy etish, sport murabbiylarining mahoratini oshirish ham talab etilmoqda.

O'quvchilar orasida sog'lom turmush tarziga amal qilish ko'nikmalarini faollashtirish ularning salomatlik darajasini oshirish, jismoniy tarbiya sohasidagi bilimlarini kengaytirish va sport yordamida ularni ijtimoiylashtirish sport musobaqalarining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Sport musobaqalari, tanlovlar o'quvchilarning ijtimoiylashtirishlariga kuchli ta'sir ko'rsatadigan pedago-gik omil hisoblanadi. O'quvchilarni sog'lomlashtirish faqatgina ularga faol ta'sir ko'rsatish va ijtimoiylashtirish yordamida amalga oshadi. Sport musobaqalarining mohiyati o'quvchilarga oila, ommaviy axborot vositalari, pedagogik jamoatchilik, tengdoshlari yordamida keng targ'ib qilinishi lozim.



O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik uch bosqichli sport musobaqalarini muntazam tashkil etish va o‘tkazish uchun asos yaratish bilan bir qatorda, uning sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini hosil qilishdagi beqiyos ahamiyatini o‘quvchi va yoshlar ongiga yetkazish, ma‘naviy, jismoniy, intellektual, hamda mehnat tarbiyasining samarali tizimini vujudga keltirish, shaxsiy va milliy xavfsizlik, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlash, davlatning xalqaro obro‘sini ko‘tarishga ko‘maklashadi. Bu esa O‘zbekiston jamiyatida haqqoniy hayot tarzini tashkil etish, o‘quvchi-yoshlarni haqgo‘ylik, adolatlilik, poklik ruhida tarbiyalash, ularning axloqiy, ruhiy, jismoniy hamda ijtimoiy salomatliklarini barqarorlashtirish uchun ijtimoiy-pedagogik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 04.09.2015 4-sentyabrdagi «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi O‘zbekiston respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni // www.lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 22-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasi sportni rivojlantirish vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 465-son Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30-oktyabrdagi «Sog‘lom tumush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6099-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-oktyabrdagi «Aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 235-sonli Qarori.
8. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - Toshkent: Istiqolol, 2003. - 224 b.
9. Pedagogika: ensiklopediya /Tuzuvchilar: jamoa. - T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.- 315 b.



AVLODLARARO MUNOSABATLARDA UZVIYLIK VA UZLIKSIZLIK

A. T. TURGUNOVA,

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
«Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasida dotsenti», (PhD)*

Maqolada avlod tushunchasi, axborotlashgan jamiyatda avlodlararo munosabatlar to'qnashuvi, konflikt, nizolarning kelib chiqishi, qadriyatlarining mos kelmasligi, otalar va bolalarning bir-biriga munosabati, g'amxo'rligi, uch avlodning o'zaro munosabatlarda bir-birini tushinishi, hurmat ko'rsatishi, oilaviy qadriyatlar; me'yorlar; ideallar va munosabatlar insonning shaxs sifatida shakllanishi uchun fundament bo'lib xizmat qilishi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: *avlod, katta avlod, oila, qadriyatlar; ajdodlar merosi, pedagogika, nizo, konflikt, munosabat, nasl, tajriba, namuna*

В статье рассматриваются понятия поколения, столкновение межпоколенческих отношений в информационном обществе, конфликт, зарождение конфликтов, несовместимость ценностей, отношение отцов и детей друг к другу, забота, взаимопонимание трех поколений во взаимоотношениях, уважение, показано, что семейные ценности, нормы, идеалы и отношения служат фундаментом для формирования человека как личности.

Ключевые слова: *поколение, старшее поколение, семья, ценности, наследие предков, педагогика, спор, конфликт, отношения, поколение, опыт, пример*

In the article, the concept of generation, the clash of intergenerational relations in the information society, conflict, the origin of conflicts, the incompatibility of values, the relationship of fathers and children to each other, care, mutual understanding of three generations in mutual relations, respect shows that family values, norms, ideals and relationships serve as a foundation for the formation of a person as a person.

Key words: *generation, older generation, family, values, ancestral heritage, pedagogy, dispute, conflict, relationship, generation, experience, example.*

Insoniyat hayoti davomiyligini, jamiyat barqarorligini, uzviy taraqqiyotini ta'minlaydigan tabiiy jarayon – bu avlodlararo munosabatlardir. Avlodlararo munosabatlar tizimi bir qancha ijtimoiy institutlardan tashkil topgan bo'lib, turli munosabatlar darajalarini qamrab olgan tabiiy rivojlanish tendensiyalariga ega bo'ladi. Avlodlararo munosabatlar mavzusi bugungi kundagina vujudga keldi deyish noo'rin. Kishilik jamiyatining eng qizg'in mavzusi ham aynan avlodlararo munosabatlardir.

Avlod (arabcha valad – bola so'zining ko'pligi) – umumiy ajdodlaridan qarindoshlik munosabatlari bilan bir xilda uzoqlashgan kishilar guruhi. Masalan, ota-onalar, farzandlar, nabiralar – ketma-ket kelgan uch avlod; ota va o'g'il, ona va qiz farzand tug'ilishi oralig'idagi vaqt bir avlod davri (taxminan 30 yil) sanaladi; bir ajdod (bobo)dan



tarqalgan kishilar. Avlod ota va ona avlodiga bo‘linadi. Ota avlodga amaki-amakivachchalar, amma-ammavachchalar, aka-ukalar va ulardan tarqalgan keyingi nasl, ona avlodga tog‘a-tog‘avachchalar, xola-xolavachchalar va ulardan tarqalgan nasl kiradi.

«Avlod» tushunchasi jamiyatda muhim o‘rin tutganligi bois, uning muqaddas kitoblar – Qur‘on, Injil matnlarida tengdosh va zamondosh ma‘nolaridagi o‘zaklarda qo‘llanilganini kuzatish mumkin. Avlodning tarixiy-geografik birlik sifatidagi talqinlari ilk bor Gerodot asarlarida uchraydi [2].

Etimologik jihatdan «avlod» tushunchasi lotincha «gan» («nasl qoldirish») [11] va «generation» («yaratilgan», meva) rus tilidagi adabiyotlarda «koleno» («avlod tarmog‘i», «shajaraning bosqichi») [9] so‘zi bilan ifodalanadi. Shuningdek, amerikalik olim T.Morgan «Qadimiy jamiyat» kitobida «gens» tushunchasi urug‘doshlik jamiyatiga nisbatan ishlatilganligi masalasiga to‘xtalib, «avlod» tushunchasi kelib chiqishini umumiy o‘zak so‘z «gan» bilan bog‘laydi [10].

S.Ojegovning izohli lug‘atida «avlod» umumiy ajdodga nisbatan bir xil darajadagi qarindoshlik, bir vaqtning o‘zida yashaydigan har xil yoshdagi insonlar guruhi deb ta‘rif berilgan. Y.Afanasyev avlodni o‘ziga xos demografik xususiyatlar bilan ajralib turadigan, yoshi bo‘yicha yaqin va bir xil tarixiy davrda yashagan (shakllangan) odamlar guruhi deb ta‘riflaydi.

«Avlod» tushunchasini quyidagicha izohlash mumkin:

- umumiy ajdoddan kelib chiqish darajasi (genetik avlod);
- tengdoshlar, ya‘ni taxminan bir vaqtda tug‘ilgan (bir xil yoshdagi) insonlar;
- zamondoshlar, ya‘ni bir vaqtning o‘zida yashaydigan turli yoshdagi insonlar;

– ota-onalarning tug‘ilishidan farzandlarining tug‘ilishigacha bo‘lgan vaqt.

Avlodlararo munosatlarda, milliy, diniy, mafkuraviy, axloqiy madaniyatni shakllantirishda keksa avlod vakillarining shaxsiy namunasi katta rol o‘ynaydi. Ustoz madaniyatli inson bo‘lib, bu fazilat uning yurish-turishida, fe‘l-atvorida, kiyinishida, oilada, ish joyida insonlar bilan muomalasida, ro‘zg‘orni boshqarishi, jamoat joylarida o‘zini yaxshi tuta olishida, barcha xatti-harakatlarida o‘z ifodasini topadi. Ushbu fazilatlar keksa avlod vakillari ichki dunyosining tashqi ifodasidir. Bu borada XV asrda yashab ijod qilgan alloma Mavlono Sodiq Qoshg‘ariy «Odobiya» asarida «Ustozlikka da‘vogarning avvalo bo‘g‘zi toza bo‘lsin» [5] deydi. Mutafakkirning fikrlaridan ko‘rishimiz mumkinki, ustozlikning mohiyati halollikda, rostgo‘ylikda, tajribada, uning xatti-harakatlaridagi namunali fazilatlaridadir.

Avlodlararo munosabatlar mavzusi zamonaviy jamiyat uchun xos bo‘lib, nafaqat oila darajasida, balki jamiyat va davlat darajasida muhokamalarga, izlanishlarga sabab bo‘lgan. Avlodlar munosabatlar to‘qnashuvi ayniqsa XX asrning 20-yillarida yosh avlod o‘tmishdagi qadriyat g‘oyalari inkor etib, o‘ziga



xos dunyo g'oyalari bilan unga qarshi chiqqanida keskinlashdi. Tadqiqotchilar mavzuni bugungi dunyoda sodir bo'layotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar bilan bog'lashi bejiz emas. Ularning barchasi u yoki bu darajada insonning dunyoqarashi shakllanishiga, uning hayot tarzi va shaxslararo munosabatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Avlodlar o'rtasida bir-birini tushunmaslik, o'tmishni qabul qilish bilan bog'liq an'analarga amal qilmaslik kabi holatlar oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarda turli nizolarni vujudga keltiradi, muvozanatni buzadi va yosh avlodning qadriyatlarini o'zgarishiga sabab bo'ladi. Avlodlararo munosabatlarda ijobiy va salbiy xususiyatlar mavjud bo'lib, bunday salbiy illatlar turli yoshdagi insonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu kabi holatlarga juda ko'plab misollar keltirish mumkin, biroq, bugungi zamonaviy jamiyatda keng tarqalganlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– qadriyatlarining mos kelmasligi (mentalitetga, madaniyatga, oilaviy qadriyatlarga, o'qishga, insonlarga munosabat, shaxslarning ijobiy va salbiy xususiyatlari, globallashuvning o'zmi va boshqalar);

– oiladagi keksa avlod – bobo-buvi tajribasi, o'rta avlod – ota-ona namunasi va tarbiyasi;

– bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil etish (o'qish, ish bilan ta'minlanganlik holati, vaqtda dam olish);

– qulayliklarning mavjudligi (kiyim-kechak, maishiy texnika, oziq-ovqat va boshqalar);

– salomatlik;

– moddiy jihatdan ta'minlanganlik holati va boshqalar.

«Avlodlar o'rtasidagi salbiy illatlar qanday namoyon bo'ladi?», degan savolga aniq javob berish mushkul masala, boisi, ko'pgina omillar bunga sabab bo'lishi mumkin: bunda muhokama qilinayotgan masalaning mohiyatini muhimlik darajasidan tortib, tarbiya topgan oila, ijtimoiy muhit, suhbatdoshlarning asab tizimining o'ziga xos xususiyatlarigacha ahamiyatli. Aslida, eng katta omil ular tarbiyalangan muhit bilan bog'liq.

Avlodlararo munosabatlar murakkabligining eng katta muammolaridan biri – har ikki tomonning bir-birlariga nisbatan bag'rikenglik, intilish, kompromislarining kamligi. Insoniyat mavjudki, bir-birlari bilan munosabatga kirishadi, aloqa bog'laydi, otalar va farzandlar o'rtasidagi ziddiyatlar, nizolar, munosabatlar tarixi insoniyatning yaralishi bilan bog'liq. Qadimgi Misrda topilgan papiruslarda yoshlarning keksa avlod vakillarini hurmat qilmay qo'yayotganligi, ularning dini va urf-odatlariga bepisandlik qilayotganligi, buning natijasida esa dunyo halokatga uchrashi mumkinligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, Qadimgi Misming Hammurapi qonunlarida [7] yoshlarga alohida



o'g'itlar va ogohlantirishlar bayon qilingan bo'lsa, bundan uch yarim ming yil ilgari yashab o'tgan fir'avnlardan birining qabrtoshi ustiga «Yoshlarimiz o'jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar-pisandga olmaydi, ajdodlar qadriyatlarini inkor etadi» [13] degan so'zlar bitib qo'yilgan.

Avlodlararo munosabatlar masalasi turkiy tilli adib Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (Saodatga eltuvchi bilim) [7] asari, Kaykovusning «Qobusnoma» [3], Alisher Navoiyning «Hamsa» [1] asari, rus yozuvchisi Lev Nikolayevich Tolstoyning «Urush va tinchlik» [4], Ivan Turgenevning «Otalar va bolalar» [14] asarlarida dolzarb masalalardan biri sifatida tahlil qilingan.

Amerikalik sotsiolog L.Feyer o'zining «Avlodlar ziddiyati. Talabalar harakatining harakteri va ahamiyati» kitobida «Avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlar – insoniyat tarixidagi doimiy mavzulardan biri, shaxs harakterining eng asosiy xususiyatlariga asoslanadi. Bugungacha mavjud bo'lgan barcha jamiyatlar tarixi, aslida tomonlar o'rtasidagi kurash tarixidir» [8] deb yozadi.

Yoshlar uchun avlodlararo munosabatlarda ziddiyatlarni keltirib chiqaradigan asosiy ijtimoiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yoshlar jamiyatda ijtimoiy mavqeyiga ega bo'lishlarida, har doim keksa avlod vakillarining bunday tashabbuslarga xayrixoh bo'lmasligi;
- keksa avlodning har doim xushmuomalalik, qo'llab-quvvatlash bilan emas, balki tanbeh berish, boshqaruv, nazorat qilish kabi xatti-harakati;
- yoshlarning xatti-harakatlariga keksalar tomonidan cheklov qo'yilishi;
- jamoat joylarida, katta davralarda, ma'rakalarda keksalarga donolik va xayrixohlik bilan, yoshlarga gapga quloq tutmaydigan, bebosh, hayotga nisbatan yengil munosabatda deb qarashning mavjudligi [12].

Avlodlar o'rtasidagi salbiy illatlar ko'proq oilada sodir bo'ladi (ba'zan hatto har kuni). Ziddiyatlarning kelib chiqish sabablari, mohiyati, oqibatlariga ko'ra turli xil o'lchovlar mavjud.

Keksav avlod vakillari yoshlarga munosabatda quyidagicha yondashadi:

1. Birinchi guruh (avtoritar) – yoshlar nima yaxshi yoki yomonligini bilishmaydi, ishonuvchan, tajribasizligi sababli qaror qabul qilishda katta xatoliklarga yo'l qo'yadi, ularni doimiy qat'i nazoratga olish lozim deb hisoblaydi.

2. Ikkinchi guruh – yoshlarni nazorat qilish kerak, ammo qarorlar qabul qilganda tanlash huquqi berilishi lozim, ularning xohish va istaklarini qo'llab-quvvatlash shart deb hisoblaydi.

3. Uchinchi guruh (liberal) – yoshlar g'oyalari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, ularga teng huquqli sherik, do'st sifatida qaraydi, bugungi zamonaviy texnologiyalarni o'rganishda yoshlarning yutuqlaridan foydalanish lozim deb hisoblaydi.



Bizningcha munosabatning uchinchi turi avlodlar o'rtasidagi o'zaro tushunishga asoslangan sog'lom muhitni yaratadi, bu esa yoshlarning kelajakda mustaqil qarorlar chiqarish, hayotdagi muammolarga yechim topishda asqotadi.

Insonlarning turli yosh davrlarida keksa avlod bilan munosabatga kirishishda obrazi, qiyofasi turlicha namoyon bo'ladi. Shartli ravishda dinamikani to'rt bosqichi; ilk bolalik davri, o'smirlik davri, ulg'ayish, ya'ni aqlan to'lishish davri, ota-onani yo'qotish davri hisoblanadi.

Avlodlararo munosabatlarda insonning yoshi, bilimi, turmush tajribasi, yashash muhiti bilan birga o'z-o'zini tarbiyalash uning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. O'z-o'zini tarbiyalash zamonaviy pedagogika sohasida dolzarb mavzulardan biri bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan ikki yo'nalishga bo'lib o'rganiladi. Birinchisi, insonning tug'ilishi, o'z-o'zini anglashi, shakllanish davri, ikkinchisi, ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritish, rivojlanish davri. Ushbu ikki jarayon vaqtlariga ko'ra bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Lekin shaxsning voyaga yetishi va ulg'ayishi bilan bog'liq jarayonlarning o'zi avlodlararo munosabatlar boshlanishining asosini tashkil qiladi.

Jamiyatlarida, mahallalarda, oilalarda, mehnat va boshqa turdagi kasbiy jamoalarda avlodlararo munosabatlarning asosiy institutlaridan biri sifatida yoshi katta avlodning insoniy sifatleri va ularning mavqeyi muhim o'rin egallaydi. Keksav avlod keyingi avlod uchun ideallik shaxs, faxr va g'urur tuyg'usini shakllantirmasa avlodlararo munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Har qanday yoshi katta inson o'z oilasidagilar uchun g'urur, faxr, iftihar tuyg'usini shakllantirishi lozim. Bunday yetakchiga yoshlar nafaqat havas qiladi, balki unga nisbatan chuqur hurmat bilan qaraydi, uning maslahatlariga, ko'rsatmalariga amal qilishni o'zlari uchun sharaf hisoblaydi.

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, avlodlararo munosabatlar tizimining asosiy va dastlabki instituti – oila hisoblanadi. Oila – bu birinchi kichik ijtimoiy guruhdir. Aynan ushbu guruhda inson dunyoga keladi, ulg'ayadi, voqelik to'g'risida dastlabki tasavvurlarga ega bo'ladi va o'zining murakkab hayot yo'lini bosib o'tadi. Ushbu guruh (oilal) a'zolari bilan o'rnatilgan, vujudga kelgan, shakllangan aloqalar ko'pchilik hollarda butun umr davomida amal qiladi. Aynan ushbu kichik ijtimoiy guruhda (oilal) qaror topgan oilaviy qadriyatlar, me'yorlar, ideallar va munosabatlar insonning shaxs sifatida shakllanishi uchun fundament bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. «Xamsa». «Yangi asr avlodi», 2021-yil. 538 b.
2. Kalonova S. Jamiyatda avlodlar almashinuvi jarayonlarining sotsiologik tahlili - T.: «Fan texnologiya», 2018, 30 b
3. Kaykovus. Qobusnoma. Nashrga tayyorlovchilar Dolimov S., Dolimov U. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. - 224 b.



4. Lev Nikolayevich Tolstoy. «Urush va tinchlik». «Yangi asr avlodi», 2019-yil. 896 b.
5. Qoshg'ariy M.S. Odob saboqlari. Fors tilidan Komilov N. tarjimasi. «Sharq Yulduzi», 1991. 1-son.
6. The Code of Hammurabi. Translated by L. W. King. <https://avalon.law.yale.edu/ancient/hamframe.asp>
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Emin Usmon tarjimasi -T.: Fan. 1971
8. Игнатова Т.В. Преемственность и конфликт поколений [Электронный ресурс] // Образование и общество: науч., информ.-аналит. журн. 2005. № 3. URL: http://www.jeducation.ru/3_2005/100.html (дата обращения: 06.06.2016).
9. Калиновский Ю.И. Философия образовательной политики - М., 2000. С.277, 540.
10. Морган Т. Древнее общество. М.: «Институт народов Севера», 1935. С.28
11. Социологический энциклопедический словарь М.: Издательство НОРМА (Издательская группа НОРМА-ИНФРА М), 2000. 488 с.
12. Сыроед Н Конфликт поколений как социальная проблема. - М: ДВФУ, 2016. - 7 с.
13. Таранов П.. Энциклопедия высокого ума. М., 1999. Б-16
14. Тургенев И. Отцы и дети. Текст произведения. Источник: Библиотека всемирной литературы. Серия вторая. Том 117. М., «Художественная литература», 1971. - 16 с.



TINGLOVCHILARDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDAGI INSONPARVARLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH

M.Z.HAMDAMOVA,

Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi, «Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari» kafedrasining professori, f.f.d,

Ushbu ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan maqola, o'zining kasbiy malakasini oshirib boruvchi ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan tinglovchilarga mo'ljallangan bo'lib, bu boradagi bilimlarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida, o'quvchi va o'qituvchi xodimlarlar bilan qo'shimcha ishlash, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish, milliy qadriyatlar asosida insonparvarlik fazilatlarini rivojlantiruvchi omillarni amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: kasbiy malaka, insonparvarlik, milliy qadriyatlar, tadbirlar, metod, fazilat, rivojlantirish.

Данная статья, имеющая научно-теоретическое и практическое значение, предназначена для слушателей, которые работают в системе образования, совершенствуют свои профессиональные навыки и приобретают знания в этой связи в общеобразовательных школах, дополнительной работе с учащимися и педагогическими работниками, организации духовно-просветительской работы, события, национальные ценности, основанные на факторах, развивающих гуманитарные качества.

Ключевые слова: профессиональная квалификация, гуманизм, национальные ценности, деятельность, метод, добродетель, развитие.

This article of scientific-theoretical and practical importance is intended for listeners who are working in the educational system, improving their professional skills, and acquiring knowledge in this regard in general secondary schools, additional work with students and teaching staff, organization of spiritual and educational events, national values based on the factors that develop humanitarian qualities.

Key words: professional qualification, humanitarianism, national values, activities, method, virtue, development.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, hamda uni rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida katta e'tibor berib kelinmoqda. Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi har qanday davlatni zamon talablariga hamohang ravishda innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi va muhim omilga aylanganligi hamma ma'lum. Hozirgi kundagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot nafaqat ishlab



chiqarishning ko'p sonli tarmoqlariga, balki madaniy, ijtimoiy-gumanitar bilimlar, ta'lim sohasiga ham innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim tizimida tadrijiy islohotlar davom etmoqda. Ayniqsa, fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda. Zero, innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat deb hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlarning muammolari pedagog kadrlar salohiyati bilan bog'liq. Zamonaviy tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish hal qiluvchi rol o'ynaydi. HR menejrlari iqtidorli xodimlarni yollash va saqlab qolish, ularning ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularning motivatsiyasi va o'z ishlariga jalb etilishini ta'minlash uchun javobgardir. Hozirgi tez sur'atlarda va yuqori raqobat muhitida HR menejrlari strategik va faol bo'lishi kerak. Ular tashkilotning umumiy maqsad va vazifalariga mos keladigan samarali HR strategiyalarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari kerak.

Inson resurslarini boshqarish (HR menejment) nima? Inson resurslarini boshqarish (Human Resources Management – HRM, yoki oddiygina HR) tashkilotning shu erda ishlaydigan odamlarni yollash, boshqarish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ichki siyosati yoki ichki kompleks funksiyasi hisoblanib, inson faoliyatiga ta'sir qiluvchi barcha jarayonlar va dasturlar HRning bir qismidir. Inson resurslari bu – tashkilotda ishlaydigan malakali mutaxassislardir. Inson resurslarini boshqarish aslida xodimlarni boshqarish bo'lib, korxonaning aktivlari bo'lgan ishchilarga e'tibor beradi. Shu munosabat bilan bunday xodimlar ba'zan inson kapitali deb ataladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumiy va xususiy inson salohiyatini shakllantirish mexanizmlari etarli darajada ishlab chiqilsa, inson kapitali va resurslari darajasi o'ssa, tashkilotning raqobatbardoshligi ortadi.

HR menejrlari uchun asosiy strategiya xodimlarni jalb qilishga e'tibor qaratishdir. Ishga jalb qilingan xodimlarga ega kompaniyalar samaraliroq, mijozlarning qoniqish darajasi yuqori va daromadliroqdir. HR menejrlari bunga ijobiy ish madaniyatini yaratish, martaba rivojlanishi va ko'tarilish imkoniyatlarini taqdim etish hamda raqobatbardosh tovon va imtiyozlar taklif qilish orqali erishishlari mumkin. Yana bir muhim strategiya texnologiyadan foydalangan holda



HR operatsiyalarini soddalashtirishdir. Ko'pgina tashkilotlar ish haqini qayta ishlash va nafaqalarni boshqarish kabi muntazam HR vazifalarini avtomatlashtirish uchun inson resurslari axborot tizimlaridan foydalanmoqda. Bu nafaqat vaqt va resurslarni tejaydi, balki HR menejerlariga ko'proq strategik tashabbuslarga e'tibor qaratish imkonini beradi. Umuman olganda, zamonaviy tashkilotlarning muvaffaqiyati va barqarorligini ta'minlashda HR boshqaruvining o'rni muhim. Samarali strategiyalarni ishlab chiqish va xodimlarni jalb qilish va texnologiyalarga e'tibor qaratish orqali HR menejerlari o'z kompaniyalariga bugungi dinamik biznes muhitida muvaffaqiyat qozonishlariga yordam berishlari mumkin.

Resurslarni rejalashtirish va mehnat bozorini rivojlantirish tendensiyalari nuqtai nazaridan, mehnat bozorida harakat qilayotganingizda yodda tutishingiz mumkin bo'lgan bir nechta narsalar mavjud. E'tiborga olish kerak bo'lgan tendensiyalardan biri – masofaviy ish yoki yarim kunlik ish soatlari kabi moslashuvchan ish tartibiga talab ortib bormoqda. Bundan tashqari, texnologiya ko'plab sohalarda katta rol o'ynashda davom etar ekan, ma'lumotlarni tahlil qilish yoki kodlash kabi sohalarda ko'nikmalarga ega bo'lish yuqori baholanishi mumkin. Kelgusi yillarda sog'liqni saqlash yoki qayta tiklanadigan energiya kabi o'sishi kutilayotgan sohalarni ham ko'rib chiqishga arziydi. Oxir oqibat, sanoat tendensiyalaridan xabardor bo'lish va o'z mahoratingizni va ish qidirishingizni shunga moslashtirish muhimdir. Mehnat bozori ajoyib tezlikda o'zgarib bormoqda va kompaniyalar yangi o'zgarishlarga moslashishlari kerak. Ishning onlayn formatiga o'tish tendensiyasi bozorda hukmronlik qilmoqda.

Inson resurslarini boshqarish jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. HR bo'limlari iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikka hissa qo'shadigan xilma-xil, malakali va g'ayratli ishchi kuchini yollash va rivojlantirish ustida ishlaydi. Ta'lim va rivojlanish dasturlari, ish va hayot muvozanati tashabbuslari va xodimlarni sog'lomlashtirish dasturlari kabi samarali HR amaliyotlarini ishlab chiqish individual va jamiyatning barqarorligini oshirishi va ijtimoiy birlashuvga hissa qo'shishi mumkin. Bundan tashqari, HR rahbarlari ijobiy ijtimoiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ko'proq axloqiy, mas'uliyatli va barqaror biznes amaliyotlarini himoya qilishlari mumkin. HR guruhlarini jamiyatimizdagi tizimli tengsizliklarni kamaytirish uchun xilma-xillik, tenglik va inklyuzivlik sa'y-harakatlarini ham qo'llab-quvvatlashi mumkin. Umuman olganda, inson resurslarini boshqarish odamlarning o'zlari va jamoalari uchun yaxshiroq kelajak qurish uchun zarur ko'nikmalar, bilim va resurslar bilan jihozlanishini ta'minlash orqali jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga muhim hissa qo'shishi mumkin.



Inson resurslarini boshqarish bo'yicha etakchilik ijobiy ish joyi madaniyatini yaratish va biznes muvaffaqiyatiga erishish uchun juda muhimdir. HR rahbarlari tashkilotning umumiy maqsad va vazifalariga mos keladigan HR strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, kompaniya ishchi kuchining motivatsiyasi, faolligi va samarali bo'lishini ta'minlash uchun javobgardir. Mana HR menejerlari ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim etakchilik fazilatlarini:

1. Strategik fikrlash: HR menejerlari biznes maqsadlari va ularga erishishda HR qanday hissa qo'shishini tushunish uchun strategik fikrlashlari kerak. Ular HR imkoniyatlari va muammolarini aniqlay olishlari hamda ularni hal qilish bo'yicha rejalar ishlab chiqishlari kerak.

2. Muloqot qobiliyatlari: HR menejerlari og'zaki va yozma ravishda mukammal kommunikator bo'lishi kerak. Ular xodimlar va yuqori rahbariyatga HR siyosati va amaliyotlarini aniq tushuntira olishi hamda tashkilot nomidan muzokara olib borishi kerak.

3. Hissiy intellekt: HR menejerlari o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi boshqarish, motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarni o'z ichiga olgan yuqori hissiy intellektga ega bo'lishi kerak. Ular o'zlarining his-tuyg'ularini tushinishlari va boshqarishlari, boshqalarning his-tuyg'ulariga hamdard bo'lishlari kerak. 4. Halollik: HR menejerlari qaror qabul qilishda shaffof, halol va axloqiy bo'lishi kerak. Ular ishonchli bo'lishi va tashkilot uchun namuna bo'lishi kerak.

5. Ijodkorlik: HR menejerlari samarali va samarali HR echimlarini ishlab chiqishda ijodiy va innovatsion bo'lishlari kerak. Ular HR operatsiyalarini yaxshilash uchun yangi yondashuv va texnologiyalarni sinab ko'rishga tayyor bo'lishi kerak. O'rganish va tahlillar zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi tezkor rivojlanayotgan ta'lim jarayonlarining talablaridan orqada qolayotganini ko'rsatmoqda. Bu holat pedagogik ta'limni rivojlantirish va uzluksiz ta'lim jarayonida pedagoglarni tayyorlashni yaxshilash bilan bog'liq muammolarning dolzarbligini ko'rsatadi. Bu esa uzluksiz ta'limdagi bosh strategiyadir.

Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma'naviyati, madaniyati, o'ziga xos urf-odatlarini, an'analarisiz tasavvur qilish qiyin. «Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim»[1].

Qadriyatlar – ma'naviy kamolot asosi «Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy



narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi»[5]. «Qadriyat inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadriini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha»[2]. 3 «Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha»[6] - degan ta'riflar berilgan. Bu esa, o'z navbatida, qadriyatlarining ahamiyatini ko'rsatmoqda. Milliy qadriyatlar – millat uchun ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq xoslik shaklidir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati, madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Keyingi vaqtlarda O'zbekistonda milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Bu ona yurtga ehtirom, avlod-ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma'naviy boyliklar sifatida tushunish, izohlash ilmiy jihatdan to'g'ri emas.

Qadriyatlar – ma'naviy kamolot asosi va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi. Keyingi vaqtlarda tarbiya masalasida qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz qatori oilada, maktab va jamoat tashkilotlarida milliy, umuminsoniy qadriyatlarining, an'analarning ustuvorligiga erishildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz», [5] – degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida etuk, barkamol etib tarbiyalashda barchamizga kuch-g'ayrat bag'ishlamoqda. Safo Ochil o'zining «Mustaqillik va tarbiya masalalari» nomli risolasida «Milliy qadriyatlar ota-bobolardan bizgacha etib kelgan udumlar: Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, Navro'z, urug'-don ekish va hosil bayramlari, beshik to'yi, sunnat to'yi, o'g'il uylantirish va qiz chiqarish bilan bog'liq to'ylar, uy-joy to'yi, qazo bilan bog'liq turli ma'raka-marosimlar, shuningdek, xalqning har xil an'analari – hashar, ota-onalarga hurmat, yoshlarga izzat, qariyalarga muruvvat, milliy odob-axloq me'yorlariga amal qilish, ilm olish, oila mustahkamligiga erishish, ustozlar qadriga etish, vafot etganlar qabrini ziyorat etish, xalqqa muhabbat, Vatanni sevish va ardoqlash, askarlikka o'z ixtiyori bilan borish, baynalmilalchi bo'lish, muloyim va shirinsuxanlik va shu kabilarni o'z ichiga qamrab oladi»[7].



Milliy qadriyatlarning asosi bo'lgan ma'naviyat va madaniyat deganda, inson xulq-atvorining go'zalligi, saxovatligi, oliyjanoblighi, va'dasiga vafodorligi, hayoliligi, bilim olishi, donoligi, bag'rikengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg'uborligi, xushmuomalaligi va shu singari insoniy xislatlar tushuniladi. Ota-ona o'z farzandlari bilan bevosita va bilvosita muloqotda bo'lib, ularni ma'nan oziqlantirar ekan, eng avvalo, o'zlari o'zaro muomala jarayonida namuna bo'lishlari hamda farzandlarini ko'proq tinglab, nutqiy layoqatini oshirishga harakat qilishlari so'ngra o'z fikrlarini axloq me'yorlariga rioya qilgan holda suhbatga oid hikmatlar, maqollar, hayotiy misollardan keltirib tushuntirishlari juda muhimdir.

Ta'kidlash joizki, diqqat va mahorat bilan eshitish odobi va malakasiga «mahorat bilan eshitish» bilimlarini mustahkamlash orqaligina ega bo'lish mumkin. Albatta, ijtimoiy hayot davomida oilada ota-ona va bola o'rtasida turli voqea va hodisalar, tushunmovchiliklar bo'ladi. Insonning eng sof tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada ota-onaning qalb qo'ridan chiqadigan mehr-muhabbati, shirin so'zi orqali shakllanadi.

Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – ezgulik, olijanoblik, mehr-oqibat va or-nomus kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila muhitida qaror topadi. Shunday ekan, oilada nojo'ya ish qilib qo'ygan bola yig'laganda ona yoki ota do'q urib, «Hoziroq yig'ini to'xtat!», deb qattiq gapirishi yaramaydi. Chunki, bola noto'g'ri yoki ayb ish qilganini o'zi ham anglagan va qo'rqib ketganidan yig'lab yuborgan bo'lishi mumkin. Bu holatda ota yoki ona bolani bag'riga bosib, tinchlantirib, unga ehtiyot bo'lish kerakligini aytishining o'zi kifoyadir.

Aksincha, ota-ona o'zidan itarib, uni jazolab, qo'pol muomalada bo'lsa, bola «stress» yoki «shok» holatiga tushib, uning nutqiga, fikrlashiga, eshitish, xulosa chiqarish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ko'p hollarda kechki payt yoki nonushtadan oldin farzandlar ota-onaga murojaat qilganlarida ular bolani oxirigacha tinglamay, «hozir vaqtim yo'q», «shoshib turibman», «xalaqit berma» kabi fikriy ehtiyojini qoniqtirmaydigan javoblar beradilar. Bunday munosabat bolaga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, undagi ijodkorlikni, tashabbuskorlikni so'ndiradi, oila a'zolari bilan maslahatlashish kabi odatlarning susayishiga olib keladi.

Yuqoridagi vaziyatlardan uzoqroq bo'lib risoladagidek munosabatlarni shakllantirishda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan axloqiy, ma'naviy, madaniy qadriyatlarni bilish, o'rganish va hayotda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Shu



o'zida Yusuf Xos Hojibning «Kishi uchun juda kerakli bo'lgan ikki a'zo bor: biri – til, boshqasi – yurak. Til so'z uchun, yurak, ko'ngil esa shu so'zdan lazzatlanishi uchun berilgan», -degan fikrini nadaqadar ma'noliligini anglagan holda, o'z tajribalarimizdan kelib chiqib shu ta'kidlashni joiz deb bilamanki, bunday ug'itlar ota-onalarni va yoshlarni go'zal, chiroyli so'zlaydigan, ma'naviy barkamol, yuksak odob va ilm egasi bo'lishlarida qo'l keladi deb o'ylamaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. «O'zbekiston», 2016. B.146.
2. Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. - T; «O'zbekiston», 1997. B.48. 2. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati. (A. Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahriri ostida). - T; Sharq, 1998, B. 279
3. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. «G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi». T; 2010.
4. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to'plami). -T; «O'zbekiston», 1997. B.198;
5. Komilov T., Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. O'zR FA, «Fan», 2000. B.20.
6. Tarbiya ensiklopediyasi. 2010. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», B.509.
7. Safo Ochil. Mustaqillik va tarbiya masalalari. T; «O'zbekiston», 1995. B.5-6.



TURKIY ELATLARINING XALQ VA SPORT O‘YINLARIGA DOIR TERMINLAR ISTE‘MOLI: KECHA VA BUGUN

X.N.QODIROVA,

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
1-bosqich doktoranti PhD., v.b dotsent*

Mazkur maqolada Turkiy elatlarning xalq va sport o‘yinlarining Qadimgi davrlardan bugungi kungacha ma‘lum miqdorda o‘z qoidalarini, shartlarini, o‘yin borish tartibi ketma-ketliklariga o‘zgartirishlar kiritilganligi yoki ushbu o‘yinlarning tarixiy asarlarda, dissertatsiyalarda turli qo‘llanilganligi, ba‘zi xalq va sport o‘yinlarining aynan terminlari bugungi kunda leksikamizda foydalanilmayotganligi haqida fikr mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *xalq o‘yinlari, sport o‘yinlari, o‘yin turlari, ko‘pkari, chavandoz, poyga.*

In this article, there is an opinion about the fact that the rules, conditions, and sequence of the game have been changed to a certain extent from ancient times to the present day of the folk and sports games of the Turkish people or that these games have been used in different ways in historical works, dissertations and that the exact terms of some folk and sports games are not used in our lexicon today.

Key words: *folk games, sports games, types of games, kopkari, rider, race.*

В данной статье высказывается мнение о том, что правила, условия и последовательность игры с древнейших времен до наших дней в народных и спортивных играх турецкого народа в определенной степени изменились, либо что эти игры по-разному использовались в исторических трудах, диссертациях, а также приводятся комментарии о том, что точные термины некоторых народных и спортивных игр сегодня не используются в нашем лексиконе.

Ключевые слова: *народные игры, спортивные игры, виды игр, копкари, наездник, гонка.*

Globalashuv jarayoni har bir millat va elatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy-ana’anaviy, urf-odatlariga shu qatiri leksikasiga ham ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi. Zamonaviy yangi so‘zlar leksikaga kiritilib borgani sari qaysidir so‘zlarning este‘moli ham susayib boradi. Alal oqibat batamom iste‘moldan chiqib, tarixiy bir hodisaga aylanadi go‘yo.

Shu asnoda Turkiy elatlarning xalq va sport o‘yinlaridagi ba‘zi atamalarning ba‘zi birlari batamom iste‘molda emasligi soha mutaxassislarini tom ma‘noda qayg‘ulantiradi.

Izlanishlarimiz natijasida adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, asrlar



o'tishi natijasida biz asliyatimizni zamonaviylikka almashtirmoqdamizki, natijada o'zligimizni unutib bormoqdadekmiz.

Turkiy elatlarda eng qadimgi davrlardan o'yinlar o'ynalib kelingan. Madaniyatshunos M.Qodirov izlanishlari natijasida o'zbek xalq o'yinlarini vaqti, joyi, o'ynalish mavsumi, yoshi kabi xususiyatlariga ko'ra quyidagicha ilmiy tasniflaydi:

1. Ovchilik negizida shakllangan o'yinlar;
2. Chorvachilikka aloqador o'yinlar;
3. Hunarmandchilik bilan bog'liq o'yinlar;
4. Mavsumiy va Navro'z bayrami bilan bog'liq o'yinlar;
5. Bolalar va qizlar o'yinlari[6;123].

Bizning tadqiqot ishimiz uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich ta'lim bo'g'ini bilan aloqador bo'lganligi sababli aynan kichik maktab yoshiga doir xalq va o'yinlariga doir manbalarni tahlil qilib chiqdik.

Qadimiy manba bo'lmish «Avesto»da chavandoz so'zining kelib chiqishi to'g'risida shunday ma'lumotlar bor. «Tarixda qora tulporni jilovlagan Siyovush timsoli «Aspabarak» nomi bilan mashhurdir. Bu qadimgi xorazm tilida otliq chavandoz degan ma'noni beradi[8;136]. Biroq, mazkur leksema bugungi kunda iste'molda emas.

Boysun qirlarida aprel oyining 10-20 oralig'ida «Lola sayli» tashkil etilib, unda qizlar to'-to'p bo'lib sayr qilishgan. Gullardan turli shakllar yasab qo'llariga va boshlariga taqib yurishgan.. Ular bu bilan gilam va savat to'qish malakalarini oshirganlar. Bunday kezlarda xotin-qizlar orasida «Xayinchak» o'yini ommalashadi. Umar Hayyomning «Navro'znoma» asirida bu o'yin nixoyatda qadimiy o'yinlardan biri bo'lib, Jamshid podshohligi afsonalarida aks etganligi haqida ma'lumotlar mavjud[9;2]. Ushbu leksema bugungi kunda «Xalinchak» shaklida este'mol qilinayotganligini ta'kidlash lozim.

Mazkur o'yinni M.Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit-Turk» asarida bayon etilgan bo'lib, o'sha davrda saroy joriyalari o'ynaganlarini qayd etib, «Arqonning ikki uchi daraxtga yoki ustunga bog'lanib, so'ng qizlarning biri arqonni ustiga o'tirib, oyoqlarini sakratib, ba'zan yuqori ba'zan quyi tushirib sakraydi» – deya ta'riflaydi[7;427]. Ushbu o'yin turi hozirda ko'proq bolalar orasida foydalanilmoqda. Asosan mavsumga ko'ra bahordan to'kuzning ilk oylarigacha ya'ni kunning ili va issiq ularida sevilib o'ynaladi.

Maxmud Qoshg'ariyning «Joriyalarning daraxt shoxlariga arqon bog'lab



shu arqonda uchib o'ynaydigan" o'yin nomi "yalngu" deb qayd etilgan. Bu so'z hozirgi o'zbek tilida mavjud emasligi, uning o'rmiga arg'umchoq atamasi iste'molda ekanligini E.Jabborov nomzodlik dissertatsiyasida qayd etib o'tadi. Muallif qo'shimcha sifatida Maxmud Qoshg'ariyning yangli-mangli o'yini hozirgi kunda o'yinining versiyalari ham atamaning o'zi ham istemolda mavjud emasligini yozadi.

Hozir kunda bolalar sevib o'ynaydigan "Yong'oq", "Buqur", "Yong'oq poylama" kabi yong'oq vositasida o'ynaladigan o'yinlar 10-12 asrlardan avval ham mavjud ekanligini M.Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-Turk" lug'ati yaqqol dalildir desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. M.Qoshg'ariy "Yong'oqni chuqurchaga otish o'yinini atichliq"[7;62-167] deb yozadi. Mazkur o'yinning nomi hozirgi kunda buqur, do'l deb yuritilib, bu ikki so'z yong'oq tashlab kiritiladigan chuqurcha nomini anglatadi. E.Jabborov atichliq so'zining davrlar o'tishi bilan iste'moldan chiqqanligini qayd etadi.

Bundan tashqari M.Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-Turk" asarida "Mo'nuz-mo'nuz" (mugiz, shox) bolalar o'yini ham keltirilgan bu o'yin ham hozirgi kunda unitilib borayotgan o'yinlardan biridir. Shu bilan birga leksikaning o'zi ham spirantizatsiya hodisasiga uchraganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu so'z spirantizatsiya hodisasiga uchragan holda qo'llanilmoqda[7;244].

Qirg'iz xalqi etnografisini o'rgangan A.Divayev kechasi o'ynaladigan oqsuyak o'yini qirg'iz tilida "Orda" deb nomlanganin yozib qoldirgan. Bunda o'yin nomi belgilangan marra orda nomi bilan atalgan. Qirg'iz xalq o'yinlariga bag'ishlangan yana bir manbada oshiq o'yinining ikki guruhga bo'lib o'ynaladigan turi orda ekanligi ko'rsatilgan.

Yana bir xalq tomoshalaridan biri "Chavki" katta maydonlarda, kunning qorong'u qismida, olov yoqib o'tkaziladigan tomosha bo'lib, hozirgi O'zbekistonning janubiy viloyatlarida to'y marosimlarida uyushtirilgan. Jangavor kurash xarbiy askarlar, hos sipohlar o'rtasida o'tkazilgan bo'lsa, kurash tomosha sifatida Buxoro amirligida "Chavki" tomoshasi bugungi kunda o'tkazilmaydi. Tom ma'noda yyan bir qo'ldan boy berilgan an'ana, qadriyat desak aslo adashmagan bo'lamiz[5;105].

Turkiy eletlarda xalq o'yinlari bilan bir vaqtning o'zida sport o'yinlari ayniqsa kurash, uloq kabi o'yinlar har davrda sevilib o'ynalgan. Xalqning qon-qoniga singib ketganidanni, sobiq Ittifoq davrida bu o'yinlar taqiqlanishiga qaramay xalq yashirincha uyushtirib kelganligi haqida dallar ham yo'q emas.

Mazkur sport o'yinlaridan biri uloq ko'pkaridir. Qadimiy tarixiy manbalarimizdan yana biri «Alpomish» dostonida chavandozlik san'ati Boychibor tavsifi,



ommaviy tomoshalar, poyga, uloq-ko'pkari juda tushunarli tarzda bayon qilingan[10;39-40,43-44,76-77].

Ot bilan o'ynaladigan xalq o'yinlaridan biri uloq (ko'pkari) ham mifologik tasavvurlar bilan bog'liq, ya'ni turkiy xalqlarda azal-azaldan bo'ri muqaddas jonivor sifatida e'zozlangan. «Ko'kbo'ri» qadimgi turklarning bobokaloni O'g'izxonga rizq-ro'z berish to'g'risida yo'llarni ko'rsatganligi, shundan buyon bo'ri bilan uchrashgan kun Navro'z, Ko'kbo'ri kuni ro'shnoqlikka chiqqan kun bo'lib qolganligi afsonada o'z ifodasini topgan.

Ikkinchidan, «Ko'kboru» o'yini «muqaddas bo'ri» sharafiga uyushtirilganligi obrazli tarzda unga totem sifatida qaralganligini ko'rsatadi[1].

Shuningdek, «Ko'k yolli bo'ri» chaqqon, epchil va yengil harakat qilganligi, o'z o'ljasiga favqulodda tashlanib, imkon qadar uni qo'ldan chiqarmasligiga ramziy ma'no berilib, uloq o'yini unga qiyoslangan. Bu xalqlarning totemizm e'tiqodi zahirida shakllangan bo'lib, hatto turkmanlarning qadimgi odatlarida «Kok bo'ri» to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lib, bugungi kunga qadar «salar» va «sariq» urug'larida yaxshi saqlangan. To'y kuni uylanmagan yosh yigitlar, ya'ni kuyovning do'stlari xo'jayin oldiga borib, «Bizga Kok bo'ri ber» deb talab qilishgan. «Ko'k bo'ri» ramziy ma'no ifodalab, o'miga sovg'a sifatida pul, qo'y va echkilar berilgan[2;59-62]. Ko'pkari, uloq O'rta Osiya xalqi tomonidan sevib o'ynalib, tomoshasi uchun tumonat xaloyiq turli uzoq manzillardan tashrif buyurushu ushbu o'yinning o'ziga xos qadriyatga sohib ekanligini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, bugungi kunda ham mazkur o'yin yuqori ishtiyoq bilan kuz-qish mavsumida uyushtirilib kelinayotgani taxsinga sazovordir.

I.R.Ibrohimovning qarashlariga ko'ra, ko'pkari o'yini uzoq yillarga borib taqalishi, Navro'z bayrami bilan bog'liq ekanligi, dastavval Markaziy Osiyoliklarda tuya kallasini qo'lga kiritish uchun tortishuv bo'lgani, ana shu ko'pkarining qadimiy ko'rinishi bo'lgani, unda odamlar uloq uchun emas, qurbonlik marosimida so'yilgan jonivor-tuyaning boshi uchun tortishganligini shu bilan birga, Ko'pkari qajimiy o'yin ekanligi uni Markaziy Osiyoda O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmanistonda sevib o'ynalganligini, jumladan, o'zbekistonning Farg'ona vodiysidan uloq, janubi-g'arbiy viloyatlarida ko'pkari, qirg'izlarning shimoli-sharqiy viloyatlarida ko'k pari, ko'k bo'ru, janubi-g'arbiy viloyatlarida esa uloq, forsiylarda bozbashi/tortishuv deb yuritilganligi haqida ma'lumotlar yozib qoldirgan[5;126].

Mazkur o'yinlar bugungi kunda sport sifatida tan olinib, Turkiy davlatlar tomonidan har yili musobaqalar tashkil etilib kelinmoqda. Xulosa qilib aytganda,



ushbu sport o'yinlarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga jismoniy tarbiya hamda tarbiya fanlari mashg'ulotlarida ma'lumotlar bilan tanishtirish, tom ma'noda urf-odatlar, milliy o'zlik, qadriyatlar barqarorligi hamda bardavomligini taminlashning ustuvorligini taminlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дуйшекеев Т. Кок бору кылымдарды кариткан оюн, Кок-бору кылымдарды карыгтаар оюн. // Кок бору. 1999. - №5.24 август.
2. Жикиев А. Традиционные Туркменские праздники, развлечение и игры. - Ашхабад: Ылым, 1983. - С.59-62.
3. Туркестанский сборник. Том 479. - С.42.
4. Фирсов В. Сарты. / Этнографическое и антропологическое исследование. Туркестанский сборник. Т.479. Ч.1. Этнография. - Ташкент, 1904. - С.93-94.
5. Abdurahmonov I.R. O'zbek xalq o'yinlari va tomoshalari (XX asr O'zbekiston janubiy viloyatlari misolida). 17.00.01- teatr san'ati ixtisosligi bo'yicha s.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.ya. T: 1997 y. - B 105.
6. Qodirov M. O'zbek xalq dramasi. T: 1963. - B 123.
7. Qoshg'ariy M. Devoni lug'atit-Turk. T: 1962. 3-tomlik, 2-tom. -B 244.
8. Tohir Karim. Muqaddas Avesto izidan. - Toshkent: Cho'lpon, 2000. - B. 136.
9. Umar Xayyom. Navro'znomasi. T: 1990. - B 2.
10. Xushboq Mardonaql o'g'li. Alpomish. - Toshkent: Yozuvchi, 1998. - B. 25, 39-40, 43-44, 76-77.



BIOLOGIYA FANIDAN INTERFAOL METODLARNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI

M.IMOMOVA,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Ushbu maqolada biologiya fani o'qitish jarayonida qo'llaniladigan interfaol pedagogik metodlar; shu jumladan xaritalash (vizualizatsiya), T sxemasi va zanjir metodlari, test metodi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqola o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish va dars jarayonida ularning qiziqishini oshirishga yordam beradigan zamonaviy texnologiyalarni tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: *Interfaol metodlar, xaritalash (vizualizatsiya), T sxemasi metodi, zanjir metodi, biologiya ta'limi, pedagogik texnologiyalar.*

This article provides information about interactive pedagogical methods used in teaching biology, including mapping (visualization), T-scheme and chain methods, test method. The article analyzes modern technologies that help to activate students' learning activities and increase their interest in the course of the lesson.

Key words: *Interactive methods, mapping (visualization), T scheme method, chain method, biology education, pedagogical technologies.*

Ta'limni takomillashtirish, pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish - bu faqat o'qitish jarayonini samarali qilish emas, balki yosh avlodni kamolotga erishishiga yordam berishning muhim vositasidir. Sharqning buyuk allomalari Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek kabi olimlar, o'z asarlarida maktab va madrasalarda o'qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanishga katta ahamiyat berganliklarini ta'kidlab o'tishgan. Ularning ilmiy merosi bugungi ta'lim tizimining shakllanishida va pedagogik jarayonni rivojlantirishda o'z aksini topgan.

Hozirgi kunda ta'lim tizimi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni o'z ichiga olgan yangi yondashuvlarga muhtoj. Biologiya fanini o'qitishda an'anaviy usullarni takomillashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun interfaol metodlar samarali vosita hisoblanadi. Biologiya fanida interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarning faolligini oshiradi, bilimni yaxshilashga yordam beradi va mavzuni chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Noan'anaviy pedagogik texnologiyalar - hamkorlikda o'rganish, modellashtirish, tadqiqot (loyiha) texnologiyalari kabi yondashuvlar ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu texnologiyalar o'quvchilarning bilim olishdagi



faol ishtirokini ta'minlash, ularni mustaqil fikrlashga undash va bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Noan'anaviy ta'lim texnologiyalari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlash, o'quvchilarni bilim olishda faol ishtirok etishga undash, shuningdek, o'qituvchining didaktik metodlarini zamonaviylashtirishga qaratilgan. Ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi barcha elementlar (o'quvchi, o'qituvchi, dars materiali, texnologiyalar) o'zaro bog'liq bo'lib, yagona tizimni tashkil etadi.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llashda asosiy maqsad – o'quvchilarning ilmiy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, ularga o'zlashtirilayotgan bilimlar bilan real hayotdagi vaziyatlarni bog'lash imkonini yaratishdir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, kommunikativ va o'quv faoliyatini tashkil etish texnikalari muhim o'rin tutadi.

Biologiya ta'limi – tabiiy fanlardan biri sifatida, o'zining o'ziga xos yondashuvini talab qiladi. Biologiya o'qitishning maqsadi – o'quvchilarga tirik tabiat, organizmlar va ularning hayoti haqida chuqur bilim berish, ekologiya va biotexnologiyalar sohasida bilimlarni shakllantirishdir. Bugungi ta'lim tizimida biologiya ta'limi o'quvchilarda nafaqat bilim, balki ularni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim.

Biologiya o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, xususan, interfaol va faol metodlar muhim rol o'ynaydi. Bu metodlar o'quvchilarga bilimlarni faqat eslab qolish emas, balki ular ustida mustahkam ishlashga, tajriba o'tkazishga, mantiqiy mulohazalar yuritishga imkon beradi. Misol uchun, loyiha texnologiyasi yordamida o'quvchilar muayyan biologik masalalarni tadqiq qilishadi, real muammolarni hal etishda o'z bilimlarini qo'llaydilar.

Biologiya fanida, fanlararo bog'lanishni amalga oshirish, kimyo va fizika kabi boshqa tabiiy fanlar bilan uzviy aloqani o'rnatish ham juda muhim. Masalan, biologiya darsida kimyo elementlarining biologik jarayonlardagi rolini tushuntirish, o'quvchilarga tabiiy jarayonlar va moddalarning o'zaro ta'siri haqida chuqurroq tushuncha beradi. Bu esa ularning nafaqat biologiya, balki boshqa fanlarni ham o'rganishga qiziqishini oshiradi. Quyida bir nechta metodni qo'llanilishini ko'rib chiqamiz:

Dars jarayonini bosqichlarga bo'lib olib har bir bosqichida o'quvchilar ball yigib borishni o'qituvchi o'quvchilarga aytiladi masalan: takrorlash –1 ball, yangi mavzu-1 ball, mustahkamlash-3 ball to'plashi mumkinligi jami 5 baho bo'lishi aytiladi. Shundan takrorlash bosqichiga zanjir Metodi qo'llansa o'tilgan mavzular yana bir bor eslanib takrorlanib oladi.

Zanjir Metodi – bu metodni darsning takrorlash bosqichida qo'llasa yaxshi natijalar qo'lga kiritiladi. Buning uchun har bir o'quvchi o'tilgan mavzulardan 1 tadan



ma'lumot aytadi, ikkinchi o'quvchi uni takrorlamay qo'shimcha ma'lumot aytiladi, kiyangi o'quvchilar ham birin ketin bir birlarini takrorlamasdan o'tilgan mavzulardan yangi ma'lumotlar aytadi, ma'lumot aytgan o'quvchilar joyiga o'tiradi ma'lumot aytalmagan o'quvchi tik turgan xolatda qoladi va ular 1 ballni quldan chiqaradi.

Yangi mavzuni tushuntirishda Xaritalash metodida o'quvchilar mavzu yoki biologik jarayonning asosiy tushunchalarini va ularning o'zaro bog'liqligini vizual tarzda tasavvur qilishadi. Bu metod o'quvchilarga biologik tizimlar va jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Misol uchun, sekretiya bezlari yoki tayanch harakatlanish sistemasini xarita yordamida tasvirlash, o'quvchilarga materialni boshqacha ko'rinishda anglash imkoniyatini beradi. Bunga Biologiya (Odam va uning salomatligi) fanidan sekretiya bezlari mavzusini sxema (xarita)langan xolatdagi ko'rinishidan namuna sifatida ko'rsataman

Gipofiz bezini bo'laklari va ulardan ajraladigan garmonlar

oldingi 6-xil

1. somatotrop gormon
2. adrenokortikotrop
3. tireotrop
4. gonodotrop
5. laktotrop
6. lyuteinlovchi

oraliq 1-xil

1. intermedin gormoni

orqa 2-xil

1. oksitotsin
2. vazopressin yoki antidiuretik garmon (ADG)

Xaritalash metodining afzalliklari – Xarita yaratish jarayonida o'quvchilar o'rganayotgan mavzuni tizimli ravishda tuzishni o'rganadilar. Bu, o'z navbatida, jarayonlar va tushunchalar orasidagi bog'liqlikni chuqurroq anglashga yordam beradi. Xarita yaratish jarayonida o'quvchilar faollik ko'rsatadi, chunki ular nafaqat mavzuni o'rganadilar, balki tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni o'zlari aniqlashadi. Bu interfaol yondashuv ularni o'rganishga yanada ko'proq jalb qiladi. Xarita yaratishda o'quvchilarga o'z tasavvurlarini ishlatishga imkoniyat beriladi. Ular mavzuni qanday qilib osonroq tushunishni o'ylab topadilar va o'zlari uchun eng qulay shaklni yaratadilar. Xarita yaratishda o'quvchilar ko'p ma'lumotni yig'ib, uni tahlil qilishga majbur bo'ladilar. Bu jarayon fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Raqamlar so'zlaganda metodi ham yangi mavzuni tushuntirishda qo'llasa bo'ladi. Buning uchun o'quvchilar yangi mavzuni o'qishga 5 daqiqa vaqt berib kitoblar yopilib yangi mavzuga tegishli raqamlar beriladi masalan yuqaridagi mavzu uchun quyidagi raqamlarni berish mumkin 3, 6, 6, 2, 4, 3, 6, 1, 2, 3, 2, va o'quvchilarga shu raqamlarga tegishli fikrni aytib deb o'qtuvchi tomonidan topshiriq beriladi va bu raqamlarga o'quvchilar tarif berishi kerak.



Test metodi – takrorlash bosqichida ko‘proq foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi chunki o‘quvchilarni yangi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganini tez va oson aniqlab olish mumkin. Bu metoddan ko‘p foydalanish kerak chunki o‘quvchilar oliy o‘quv yurtlariga ham test yichish orqali qabul qilinadi. Tesni turli murakkablikdagi xillaridan foydalanish kerak testni yichish jarayonida danday testlarni o‘quvchilar yichishga qiyalayotganini bilib olishimiz mumkin va bu testlarni qanday oson topishga o‘qtuvchi tuxtalib o‘tadi.

«T» sxemasi metodi – ham ham yangi mavzudan oldin takrorlashda yoki yangi mavzudan kiyen takrorlashda foydalansa bo‘ladi buning uchun quyidagi shakl chizib olinadi: Masalan sekritsiya bezlari mavzusidan kiyen qo‘llaniladigan bo‘lsa o‘quvchilarga shunday savol beriladi. Ichki sekritsiya bezlaridan ajraladigan garmonlarning organizm uchun afzaliklari va miqdorini o‘zgarishidan kelib chiqadigan kamchiliklari nimalardan iborat? Bu metodni hamma mavzuda qo‘lab bo‘lmaydi chunki ikki tomonlama fikrlar aniqlanish kerak.

I daqiqa metodi-bu metod dars jarayonida o‘quvchilarni darsga jalb qilishda foydalaniladi. Mavguga tegishlimi mavzudan tashqarimi o‘qtuvchi savol berish kerak masalan: Qalamni yozishdan tashqari foydalansa bo‘ladigan 10 ta vazifasini toping yozing. Shunda o‘quvchilarda yana qanday vazifasi bor ekan deb fikri jamlanib ahtarishga tushadi.

«Ortiqchasini top» metodi – bu o‘quvchilarga yoki talabalariga biror mavzu bo‘yicha ma‘lumotlar berilganda, ularning oralarida eng mos kelmaydigan yoki ortiqcha bo‘lgan elementni aniqlashni o‘rgatish uchun ishlatiladigan interfaol metodlardan biridir. Bu metodda o‘quvchilarga bir nechta javoblar, faktlar yoki obyektlar beriladi, va ularning ichidan to‘g‘ri javobni topish yoki «ortiqcha» bo‘lganini ajratib ko‘rsatish kerak.

Bu metod o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga undaydi va ular ma‘lumotlarni yaxshiroq tahlil qilishga o‘rganadilar. Biologiya yoki boshqa fanlarda bu metodni amalga oshirishda quyidagi usullarni qo‘llash mumkin:

O‘quvchilarga to‘g‘ri tushuncha berish va vazifani qanday bajarishlarini tushuntiring. Misol uchun: «Sizga bir nechta faktlar yoki elementlar beriladi. Siz ularning orasida nima ortiqcha yoki boshqa mavzu bilan bog‘lanmaganini topishingiz kerak». Masalan: mavzuga oid misollarni tanlang, masalan, biologiya fanidan sekritsiya bezlarini o‘rganishda berish mumkin.

Xulosa – Interfaol metodlar – bu o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning diqqatini va motivatsiyasini oshirishda samarali vositalardir. Bu metodlar orqali o‘quvchilar faqat bilimlarni yodlash bilan cheklanmay, balki ularni tahlil qilish, taqqoslash, va o‘z fikrlarini erkin ifodalashga o‘rganadilar.



Masalan, xaritalash, «T» sxemasi, ortiqchasini topish kabi metodlar biologiya fanida nafaqat ilmiy jarayonlarni tushuntirishni osonlashtiradi, balki o'quvchilarga yangi bilimlarni tizimli ravishda olish imkonini yaratadi. Shu sababli, o'qituvchilarni interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish, ularning pedagogik malakalarini oshirish, ta'lim sifatini yuksaltirish uchun muhimdir. O'qituvchilarni malaka oshirish imkoniyatlari yaratish orqali, biz o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash va yangi, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirishda yordam beramiz. Bu, o'z navbatida, ularning bilimlarini yanada mustahkamlashga, ilmiy izlanishlarini rivojlantirishga va eng muhimi, hayotda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, masalan, multimedia vositalari, interaktiv doskalar, virtual laboratoriyalar va onlayn platformalar biologiya fanini o'rganishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Bu texnologiyalar yordamida o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kyriaki Anagnostopoulou, Vassilia Hatzinikita, Vasilia Christidou. PISA and biology school textbooks: the role of visual material // *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 46 (2012) 1839 - 1845
2. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Yusupova, N. M. (2022). SMART TEXNOLOGIYALARDA TA'LIM JARAYONI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(6), 441-445.
3. Avazjono'g'li, V. D., & Esonalio'g'li, M. Y. (2022). Prospects for the Development of the 3D Modeling Process. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 7, 78-79.
12. G'ofurovich, T. X. A., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022).



MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI VA BIRINCHI SINIF O'QUVCHILARI O'QUV DASTURLARINING UZVIYLIGI VA O'ZARO BOG'LIQLIGI

O.E. JMANOVA,

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti tayanch doktoranti*

Ushbu maqolada birinchi sinf o'quvchilarining maktabdagi o'quv-tarbiya muhitiga moslashtirishda maktabga tayyorlov guruhлари va birinchi sinf o'quv dasturlarining uzviyligi va o'zaro bog'liqligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'quv dastur, moslashtirish, integrativ yondashuv, hamkorlik, maktabga tayyorgarlik xaritasi.

В данной статье говорится о связности и взаимозависимости групп подготовки к школе и учебной программы первого класса в адаптации первоклассников к образовательной среде в школе.

Ключевые слова: учебная программа, адаптация, интегративный подход, сотрудничество, карта готовности к школе.

This article talks about the coherence and interdependence of school preparation groups and first grade curriculum in adapting first graders to the educational environment at school.

Key words: curriculum, adaptation, integrative approach, cooperation, school readiness map.

Maktab ta'limiga tayyorgarlik 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Kichik guruh yoshidan boshlab oddiylikdan murakkablikka qarab bolaning kompetensiyalari ya'ni bilim, ko'nikma va malakalari shakllanib, rivojlanib boradi. 6-7 yoshli tayyorlov guruhining bolalarini maktab ta'limiga tayyorlash esa, uning yangi muhitga borishi va u muhitdagi yangi bilim va jarayonlarga tayyorligi bilan belgilanadi. Tayyorgarlikning asosiy korpusi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umum ta'lim maktablariga, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, maktabga tayyorlov guruhлари va birinchi sinf o'quvchilarining faoliyatiga qaratiladi. Ushbu faoliyatning maktabga tayyorgarlikning dasturi amal ekanligining yana bir isboti yangi qabul qilinayotgan farmon va qarorlarda o'z ifodasini topayotganligi bilan baholanadi. Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 152-son farmoniga ko'ra maktabga tayyorlov guruhлари va boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlarida o'zaro uzviyligi va bog'liqligi ta'minlanishi belgilab qo'yildi.



6-7 yoshli maktabgacha ta'lim tashkilotiga borgan, maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichidan o'tgan bola bilan maktabga tayyorgarlik bosqichidan o'tmagan bolaning o'rtasida juda katta tafovut mavjud. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda 6-7 yoshli bolalarni maktabga bir yillik majburiy tayyorlash va bolalarni maktabgacha ta'limga qamrovini oshirish jarayonlari jadal rivojlanmoqda. Bolalarni maktabdagi o'quv-tarbiya muhitiga moslashtirishning oson bo'lishi uchun o'quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash lozim.

Maktabga tayyorlov guruhlarini tamomlagan tarbiyalanuvchilarga ularning rivojlanish xaritasi asosida bir yillik maktabga tayyorlovdan o'tganlik haqida elektron sertifikat berish taklifi ma'qullandi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va boshlang'ich ta'lim uzluksizligini ta'minlash maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotidan chiqishda 6-7 yoshli bolaning maktabga tayyorligi xaritasi to'ldiriladi (faqat maktabgacha ta'lim tashkiloti bitiruvchilari uchun).

Maktabga tayyorlik deganda bolada tayanch kompetensiyalar va rivojlanish sohalarining kompetensiyalarini shakllanganligi tushuniladi. Ushbu xarita MTTning har bir bitiruvchisi uchun to'ldiriladi. Unda bola rivojlanishining beshta yo'nalishi bo'yicha erishgan natijalari ko'rsatiladi.

Ushbu bolaning maktabga tayyorlik xaritasi quyidagilarga imkon beradi: maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonining muvaffaqiyati va samaradorligini aniqlaydi, boshlang'ich sinf o'qituvchisini bolaning boshlang'ich maktabda muvaffaqiyatli moslashishi va yanada samarali rejalashtirish uchun xabardor qiladi.

K - kuzatilmaydi yoki kamdan-kam kuzatiladi

B - ba'zida kuzatiladi

T - tez-tez kuzatiladi

D - doimiy ravishda kuzatiladi

Majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlov «Ilm yo'li» variativ dasturi asosida amalga oshiriladi.

Majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlardagi ta'lim jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- bolaga yo'naltirilgan ta'limga yondashuvi;
- inklyuziv ta'lim haqida mushohada yuritish;
- bolani xolistik(yaxlit) rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim muhitining xususiyatlarini belgilash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyatning yetakchi turi – o'yin asosida ta'lim berish;



- bola – ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi;
- rejalashtirish va baholash samaradorligi;
- bolani tarbiyalash va rivojlantirish jarayoniga ota-onalarni hamkorlik asosida jalb etish;
- interfaol ta’lim;
- integrativ o’qitish.

Integrativ yondashuv asosida birinchi sinf o’quvchilarini maktadagi o’quv-tarbiya muhitiga moslashtirish eng qulay va to’g’ri yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Integratsiyalashgan ta’limda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- tizimli bilim berish tamoyili, ta’lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyili, pedagogik hamkorlikka tayanish tamoyili;
- integratsiyaning differensiya bilan uzviyligi;
- ta’lim-tarbiya jarayonining aniq maqsadga yo’naltirilganligi;
- integratsiyalashgan ta’limning ta’lim beruvchi shaxsiga qaratilganligi;
- ta’lim oluvchilarni faollashtirishga va komil insonni shakllantirishga yo’naltirilganligi.

Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash va birinchi sinfda uni maktabdagi o’quv tarbiya muhitiga moslashtirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning mazmuni oila, MTT va maktab faoliyatining integratsiyasi bilan baholanadi. Xususan, bunday faoliyat tayyorgarlik va moslashuv jarayonlarining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlaydi. Maktabga tayyorlov guruhleri va birinchi sinf ta’lim dasturlarining o’zaro uzviyligi bolada ta’lim olish jihatidan qulayliklar yaratilishiga olib keladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va birinchi sinf o’quvchilari uchun o’tiladigan mashg’ulotlar va fanlarning o’zaro bog’liqligini ko’rib chiqamiz.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari uchun quyidagi mashg’ulotlarlar o’tiladi: Elementar matematika, Atrofi olam bilan tashtirish, Nutq o’stirish, Jismoniy tarbiya, Musiqa, ingliz tili, aplikatsiya. Ushbu mashg’ulotlarning mantiqan va mazmunan birinchi sinf o’quv dasturlarida davom etishi, o’quvchilar uchun ta’lim olishda qulayliklar yaratadi. Maktabga tayyorlov guruhi mashg’ulotlari va 1-sinf mashg’ulotlarida o’tiladigan mavzularining ham o’zaro bog’liqligi o’quvchilarning fanlarni yaxshi o’zlashtirishlari uchun asos bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti tayyorlov guruhida ta’lim tarbiyaviy faoliyatni tashkil etuvchi faoliyat dasturlari kelajakda bolaning



maktab ta'limidagi fanlarni davom ettirishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Aynan bu fanlar bog'liqligini uzviy holda davom ettirilgan pedagoglar bolalarni maktab ta'limidagi qiyinchiliklardan oson olib o'tishiga yordam beradi. Biz maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarga olib bordigan frontal «Nutq o'qitish», «Elementar matematika», «Savodxonlik» faoliyatlari maktabda o'qitiladigan «Alifbe», Matematika», «O'qish», kabi fanlarning poydevoridir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida «Elementar matematika» faoliyatida hisob kitob, fazoda mo'ljallanish, vaqtni idrok qilish, geometrik figura va shakllar haqida dastlabki tushunchalarni beriladi, maktabda esa bolalar shu bilimlarni yanada takomillashtiradi. «Savodxonlik» faoliyati esa maktabgacha ta'lim tashkilotida «alifbe» fanining o'qitilishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabda ta'lim-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishdagi izchillik bola shaxsini rivojlantirishni amalga oshirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 152-son Farmoni, 30.09.2024.
2. Fayzullayev Sh.N. Bolalarni maktab tayyorlash metodikasi: Darslik. - Samarqand: SamDU, 2022. - 196 b.
3. Bolaning maktabga moslashuvi / S. Maksimenkoning buyrug'i, K. Maksimenko. - K.: Mikros-SVS, 2003.- 111yillar.
4. Bojovich L. I. Shaxsni shakllantirish muammosi/L. I. Bojovich; ed. D. Feldshteyn. - M.: Mezduar. ped. akademiya, 1995.-212 b. - (Tanlangan psixologik ishlar).
5. «Ilm yo'li» variativ Davlat o'quv dasturi. - T., 2020.



TA'LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

N.SULTANOVA,

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti,
Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti vb

Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning pedagogikadagi ahamiyati va ularning raqamli asrda o'quv tajribalarini oshirishga ta'siri o'rganiladi. Ushbu texnologiyalar qanday qilib jalb qilish va faol o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi, shaxsiylashtirilgan o'rganish va differentsiatsiyani ta'minlaydi, hamkorlik va global aloqani osonlashtiradi va baholash va qayta aloqa amaliyotini yaxshilaydi. Maqolada talabalarning turli ehtiyojlarini qondiradigan dinamik va interaktiv o'quv muhitini yaratishda texnologiyaning transformatsion roli ta'kidlangan. Shuningdek, moslashtirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlash va o'z vaqtida hisobot berish uchun adaptiv ta'lim tizimlari, aqlli repetitorlik tizimlari, onlayn platformalar va raqamli baholashlardan foydalanishning afzalliklari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiyalar, pedagogika, jalb qilish, faol o'rganish, shaxsiylashtirilgan o'rganish, farqlash, hamkorlik, global ulanish, baholash.

Ushbu maqolada World History Commons platformasining tarixiy ta'limga ta'siri va uning madaniyatlar va tarixiy davrlar osha o'zaro bog'liq hikoyalarni taqdim etishda global nuqtai nazarni shakllantirishdagi roli o'rganiladi. Birlamchi manbalar, raqamli vositalar va pedagogik strategiyalarni o'z ichiga olgan ochiq kirish imkoniyatiga ega resurslarni taqdim etish orqali World History Commons o'qituvchilarga tarixni an'anaviy milliy yo'naltirilgan yondashuvlardan kengroq va ko'p qirrali fan sifatida taqdim etish imkonini beradi. Platforma tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo tushunish va raqamli savodxonlikni rivojlantirib, talabalarga zamonaviy muammolarning global ildizlarini tushunish va ko'proq empatiya va xabardorlik bilan qarashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: World History Commons, global nuqtai nazar, tarixiy ta'lim, madaniyatlararo tushunish, raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, ochiq kirish resurslari, o'zaro bog'liq hikoyalar, inklyuziv tarix, globalashgan ta'lim.

This article examines the transformative impact of World History Commons on history education, highlighting its role in fostering a global perspective that emphasizes interconnected narratives across cultures and historical periods. By providing open-access resources, including primary sources, digital tools, and pedagogical strategies, World History Commons equips educators to present history as an inclusive, multifaceted subject that transcends traditional nation-centered approaches. The platform supports critical thinking, intercultural understanding, and digital literacy, helping students understand the global roots of contemporary challenges and encouraging a more empathetic, informed worldview.

Key words: World History Commons, global perspective, history education, intercultural understanding, digital literacy, critical thinking, open-access resources, interconnected narratives, inclusive history, globalized education

В статье рассматривается влияние платформы World History Commons на преподавание истории, подчеркивается ее роль в формировании глобального подхода, который акцентирует внимание на взаимосвязанных повествованиях, охватывающих разные культуры и исторические периоды. Обеспечивая доступ к первоисточникам, цифровым инструментам и педагогическим стратегиям, платформа World History Commons позволяет преподавателям представить историю как многогранную и инклюзивную науку, выходящую за рамки традиционного национально-ориентированного подхода. Платформа поддерживает развитие критического мышления, межкультурного понимания и цифровой грамотности, что помогает учащимся осознавать глобальные корни современных проблем и формировать более эмпатичный, осведомленный взгляд на мир.



Ключевые слова: *World History Commons, глобальный подход, преподавание истории, межкультурное понимание, цифровая грамотность, критическое мышление, открытые ресурсы, взаимосвязанные повествования, инклюзивная история, глобализованное образование.*

Tobora bir-biriga bog‘langan dunyoda tarixni o‘rganish milliy yo‘naltirilgan hikoyalardan global nuqtai nazarlarga o‘tib, o‘zaro bog‘liqlik va umumiy tajribalarni ta‘kidlash orqali sezilarli o‘zgarishlarga uchradi. Geografik va madaniy chegaralardan ustun bo‘lgan tarixni tushunishga bo‘lgan ehtiyoj hech qachon bunchalik dolzarb bo‘lmagan, chunki migratsiya, iqlim o‘zgarishi va ijtimoiy harakatlar kabi zamonaviy muammolar ularning tarixiy ildizlarini chuqurroq anglashni talab qiladi. Ta‘lim beruvchilar talabalarni ushbu bog‘lanishlarni qanday qabul qilishini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, shuning uchun o‘qitish manbalari va platformalarini to‘g‘ri tanlash zaruriyatga aylanadi.

Ushbu platforma tarixiy ta‘limda global yondashuvni targ‘ib qiluvchi ta‘sirli platforma sifatida maydonga chiqdi. Bu ochiq kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan ta‘lim resursi sifatida o‘qituvchilar va talabalarga tarixni taqqoslash va madaniyatlararo nuqtai nazardan o‘rganish uchun birlamchi manbalar, interaktiv vositalar va pedagogik strategiyalarni taqdim etadi. Ushbu raqamli platforma tarixiy voqealarni alohida hodisalar sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida tahlil qilish uchun asos yaratib, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, empatiya va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi.

Ushbu maqola ushbu platformadan turli ta‘limiy kontekstlarda foydalanish bo‘yicha global tajribani o‘rganadi. Unda platformani qo‘llagan o‘qituvchilarning talabalarni kengroq tarixiy hikoyalarga jalb qilishdagi muammolari, strategiyalari va muvaffaqiyatlari tahlil qilinadi. Maqola turli hududlardan olingan misollar va tajribalar orqali platforma qanday qilib raqamli savodxonlikni rivojlantirishga va chegaralar osha hamkorlikda ta‘lim olishni qo‘llab-quvvatlashga hissa qo‘shayotganini namoyish etadi. Shu orqali ushbu platformaning globallashtirilgan dunyo talablari uchun tarixiy ta‘limni o‘zgartirishdagi o‘rmini ta‘kidlaydi.

An‘anaviy tarixiy ta‘lim ko‘pincha milliy yoki mintaqaviy hikoyalarga urg‘u beradi va alohida mamlakatlarning rivojlanishini izolyatsiya qilingan holda ko‘rib chiqadi. Biroq, zamonaviy dunyo haqiqatlari tarixiy hodisalar chegaralar osha chuqur bog‘langanligini ko‘rsatadi. Tor va mahalliy ko‘rinish talabalar tushunchasini cheklashi va bir qismdagi tarixiy voqealar qanday qilib dunyoning boshqa joylaridagi taraqqiyotga ta‘sir qilishi yoki uni shakllantirishi mumkinligini anglashga



to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, insoniy tajribalar o'zaro bog'liqligini yorituvchi global nuqtai nazarni qamrab oluvchi tarixiy ta'limga ehtiyoj juda dolzarbdir.

Global yondashuv talabalarga tarixiy bog'lanishlarning murakkab tizimini o'rganish imkonini beradi. Masalan, Yevropadagi sanoat inqilobi Osiyo va Afrikadagi mustamlakaga aylantirilgan hududlarga bo'lgan iqtisodiy ta'sirini hisobga olmasdan to'liq tushunilishi qiyin. Xuddi shunday, sivilizatsiyalarning yuksalishi, urushlar, savdo yo'llari va inqiloblar jamiyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllangan. Tarixni global ko'z bilan o'qitish talabalarni hodisalar va g'oyalar qanday qilib vaqt va makonda tarqalganini va hozirgi dunyoni qanday shakllantirganini tushunishga undaydi.

Global nuqtai nazar talabalarga ko'plab tarixiy nuqtai nazarlarni kashf qilish orqali xilma-xillikni qadrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Turli madaniyatlarning voqealarni qanday izohlaydi va bir-birlari bilan qanday aloqada bo'lganligini tushunish talabalar orasida empatiyani kuchaytiradi. Bu ularga tarixiy shaxslarning qarorlari va sharoitlarining murakkabligini yaxshiroq anglash imkonini berib, madaniy farqlarga nisbatan bag'rikenglik va hurmatni targ'ib qiladi. Ayniqsa, bugungi ko'p madaniyatli jamiyatlarda madaniyatlararo kompetensiya samarali muloqot va hamkorlik uchun zarurdir.

Iqlim o'zgarishi, migratsiya, pandemiyalar va mojarolar kabi zamonaviy global muammolar o'z tarixiy ildizlariga ega. Global tarixiy yondashuv talabalarni ushbu masalalarni kengroq kontekstda tahlil qilishga tayyorlaydi, ular o'tgan va bugungi kun o'rtasidagi uzluksizlikni tushunishlariga yordam beradi. Masalan, mustamlakachilikni o'rgangan talabalar zamonaviy geosiyosiy keskinliklar haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishlari, tarixiy pandemiyalarni o'rganayotganlar esa hozirgi sog'liqni saqlash inqirozlariga o'xshashliklarni aniqlashlari mumkin.

Milliy tarixlar ko'pincha voqealarni tanlab talqin qilishi mumkin va bu noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan tushunchalarga olib keladi. Global tarixiy doira esa talabalarni bunday hikoyalarga shubha bilan qarashga va alternativ nuqtai nazarlarni o'rganishga undaydi. Bu manbalarga tanqidiy yondashuvni rivojlantiradi va talabalarni kamsitilgan jamoalar, tub xalqlar va transmilliy harakatlar kabi kam tanilgan hikoyalarni kashf etishga undaydi.

Tarixiy ta'limda global nuqtai nazarni qo'llash talabalar bilimini boyitadi va ularni zamonaviy hayotning murakkabliklarini boshqarishga tayyorlaydi. World History Commons kabi platformalar turli tarixiy manbalarga va madaniy, geografik



hamda vaqt bo'yicha bo'linmalarni birlashtiruvchi o'qitish strategiyalariga kirishni ta'minlash orqali ushbu o'zgarishlarga hissa qo'shadi.

Platformaning amaliy tatbiq misollari.

Shimoliy Amerika Sinflari: Atlantika Dunyosini Qayta O'ylash.

Shimoliy Amerikadagi ta'lim muassasalarida ushbu platforma Atlantika dunyosi tarixini, ayniqsa transatlantika qul savdosini o'rgatishda qo'llanilgan. Platforma orqali talabalar Afrika, Yevropa va Amerika manbalarini tahlil qilishadi, bu esa Evrotsentrik hikoyalarga tanqidiy yondashishni rag'batlantiradi[1]. Ushbu yondashuv o'quvchilarga transatlantika savdo jarayonlarida ishtirok etgan har bir mintaqaning nuqtai nazarini tushunish imkonini beradi va global tarixning murakkabliklarini ochib beradi.

Yevropa maktablari: mustamlaka merosini o'rganish

Yevropa ta'lim muassasalarida o'qituvchilar platformasidan mustamlakachilikning oqibatlarini o'rganishda foydalanishgan[2]. Dekolonizatsiya va migratsiya mavzulariga bog'ishlangan modullar orqali talabalar o'z mamlakatlarining o'tmishini va ushbu tarixiy jarayonlarning zamonaviy global migratsiya jarayonlariga ta'sirini chuqurroq tushunishga imkon olishadi. Bu nafaqat milliy tarixni tanqidiy o'rganishga, balki zamonaviy ijtimoiy va siyosiy voqealar bilan tarixiy bog'liqlikni ko'rishga yordam beradi.

Osiyo: mintaqaviy va global tarixlarni bog'lash

Osiyoda o'qituvchilar ushbu platformani mahalliy tarixni global jarayonlar bilan bog'lashda qo'llashgan. Masalan, Ipak yo'li nafaqat savdo yo'lagi sifatida, balki san'at, din va siyosatga ta'sir ko'rsatgan madaniy ko'prik sifatida ham o'rganiladi[3]. Bu yondashuv Osiyo mamlakatlari tarixining dunyoviy o'zaro bog'liqligini ochib beradi va o'quvchilarga o'z mintaqasining global tarixdagi o'rnini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Platformaning bu kabi tatbiqlari o'qituvchilarga talabalarning tarixni turli nuqtai nazarlardan tushunishiga yordam berish uchun samarali vosita sifatida xizmat qiladi[4]. Shu orqali global tarixiy jarayonlar o'rganilib, nafaqat o'tmishni chuqurroq tushunish, balki hozirgi dunyoni tanqidiy yondashuv bilan idrok etish ko'nikmalari ham shakllantiriladi.

Platforma tarixiy ta'limni yangi darajaga olib chiqishda muhim rol o'ynaydi, madaniyatlar va vaqtlar osha tarixiy hodisalarni bog'laydigan global yondashuvni taqdim etadi. Inkluziv va o'zaro bog'liq yondashuvni targ'ib qilish orqali u o'qituvchilarga tarixi milliy nuqtai nazardan kengroq bo'lgan ko'p qirrali hikoya



sifatida taqdim etish imkonini beradi. Ushbu platformaning ochiq kirish imkoniyatlari talabalarga turli birlamchi manbalar, raqamli vositalar va hamkorlikda o‘rganish tajribalarini taklif etadi, ularning tarixni tushunish darajasini oshiradi[5].

Tarixiy ta’limda global yondashuv tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo tushuncha va raqamli savodxonlikni rivojlantirib, talabalarning globallashtirilgan dunyodagi murakkabliklarga tayyor bo‘lishlariga yordam beradi. Bu o‘quvchilarni tarixiy hodisalarga kengroq nuqtai nazardan qarashga, turli madaniyatlarning o‘zaro ta’sirlarini anglashga va hozirgi global muammolarni tushunishga undaydi. Texnologik imkoniyatlar va ta’lim standartlaridagi cheklolarga qaramasdan, platformaning turli o‘quv muhitlariga ta’siri raqamli resurslarning tarixiy ta’limni qayta shakllantirishdagi imkoniyatlarini namoyan etadi.

Umuman olganda, platforma o‘qituvchilar uchun tarixni yanada kengroq va global tushuncha bilan shakllantirish uchun qimmatli vosita hisoblanadi. Talabalar dunyo tarixi o‘zaro bog‘liq hikoyalarni o‘rganar ekan, ular murakkab va o‘zaro bog‘liq dunyoni tushuna oladigan xabardor va empatik fuqarolar bo‘lib yetishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stearns, P. N. (2022). *World History: The Basics*. Routledge.
2. Manning, P. (2018). *A History of the World: From the 20th to the 21st Century*. Routledge.
3. *World History Commons*. (n.d.). Available at: <https://worldhistorycommons.org>
4. Taylor, C. (2019). «Global Education through Digital Platforms: Case Studies from the Classroom.» *Journal of Educational Technology*.
5. Bender, T. (2016). *Rethinking World History: Essays on Europe, Islam, and World History*. Princeton University Press.



ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISH

F.SH.IRSALIYEV,

Guliston davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Maqolada elektron ta'lim resurslari yaratish va ulardan o'quv jarayonida foydalanish masalalari yoritilgan. Elektron ta'lim resurslari o'z ichiga o'quv trenajyorlari, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o'zida bilim berish va ularni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotlarni qamrab oladi. Elektron ta'lim resurslari masofali o'qitish shaklining asosiy obyekti hisoblanadi. Elektron ta'lim resurslari avtomatlashtirilgan tizimga asoslangan.

Tayanch so'zlar: *elektron ta'lim, elektron ta'lim resurslari, o'quv jarayoni, kompyuter texnologiyalari, avtomatlashtirish, dasturiy ta'minot.*

The article describes the creation of electronic educational resources and their use in the educational process. Electronic learning resources include training simulators, tasks for practical and laboratory classes, test tasks, as well as software that controls the process of knowledge transfer and simultaneous learning. Electronic educational resources are the main object of distance education. Electronic learning resources are based on an automated system.

Key words: *e-learning, electronic learning resources, educational process, computer technology, automation, software.*

В статье описано создание электронных образовательных ресурсов и их использование в образовательном процессе. Электронные учебные ресурсы включают в себя обучающие тренажеры, задания для практических и лабораторных занятий, тестовые задания, а также программное обеспечение, контролирующее процесс передачи знаний и одновременного обучения. Электронные образовательные ресурсы являются основным объектом дистанционного образования. Электронные учебные ресурсы основаны на автоматизированной системе.

Ключевые слова: *электронное обучение, электронные учебные ресурсы, образовательный процесс, компьютерные технологии, автоматизация, программное обеспечение.*

Ta'lim jarayonida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ta'limning zamo-naviy shakllari va usullarini qo'llash, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, masofali o'qitish texnologiyalarini joriy qilish masalalari dolzarb muammo-lardan biri hisoblanadi. Masofali o'qitish – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilmiy asoslangan o'qitish usullarini qo'llab ta'lim olish shaklidir. O'qitishning bu shaklida o'quvchilarga mos ta'lim predmetini erkin tanlash, o'qituvchi bilan muloqat



qilish sharoitlarini ta'minlaydigan an'anaviy, zamonaviy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadigan, o'qitish jarayonida ta'lim oluvchining qaerdaligi va vaqtga bog'liq bo'lgan holda amalga oshiriladi. Masofali o'qitishda o'quv jarayoniga tegishli bo'lgan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl, o'qitish vositalari va hokazo) Internet texnologiyasining texnik va dasturiy vositalari bilan amalga oshiriladi [1]. Tadqiqotning maqsadi o'quv jarayonida elektron ta'lim resurslari, avtomatlashtirilgan tizimlarning o'rni, ahamiyati, ularni yaratishga qo'yiladigan talablar va ulardan samarali foydalanish masalalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti va qo'llaniladigan metodlar. O'quv jarayonini tashkil etishda kompyuterlardan foydalanilsa jarayon avtomatlashtirilgan tizim ositida faoliyat olib boradi. Bunda kompyuter o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda, o'quv rejalar, o'quv dasturlari va o'quv materiallarini yaratishga tavsiyalar ishlab chiqishda, testlashtirish va nazorat qilishda pedagogik xodimlarga ko'makchi vazifasini bajaradi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba, to'plangan ma'lumotlarni taqqoslash va solishtirish metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Zamonaviy o'quv jarayonini shu jumladan, masofali o'qitishni tashkil qilishda ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirishda axborot makonining o'rni juda katta. Ta'lim muassasalarida fanlardan axborot makonini yaratish Internet va Intranet tarmoqlarida ta'lim portallari, elektron ta'lim resurslari tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Elektron ta'lim resurslari asosida o'qitishni tashkil qilishda umumlashtirilgan o'qitish texnologiyalari va tizimlari yaratish muhim ahamiyatga ega. Umumlashtirilgan o'qitish texnologiyalari va tizimlariga elektron o'quv-uslubiy majmualarda joylashtirilgan o'quv dasturlari, rejalar, darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni, test tizimlari majmuasini keltirish mumkin.

Elektron ta'lim resurslari masofali ta'lim tizimining rivojlanishiga, shu bilan birga uning asosiy vositasi hisoblanib, masofali ta'limning tashkiliy-uslubiy va me'yoriy-huquqiy bazasining rivojlanishiga, ta'lim oluvchilar va pedagoglarni mutlaqo yangi vositalar bilan ta'minlashga, pedagogik tadqiqotlarni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Elektron ta'lim resurslari asosida masofali o'qitish amalga oshiriladigan ta'lim muassasalarida majmuaga o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish, uning tuzilmalari, moliyaviy-xo'jalik ishlarini yuritish, o'quv reja va dasturlar, o'quv materiallari, testlar va boshqalar haqida ma'lumotlar joylashtiriladi.

Elektron ta'lim resurslarining asosiy o'quv-uslubiy qismi elektron darslik tizimiga asoslangan. Elektron darslik – kompyuter va axborot-kommunikatsiya



texnologiyalariga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan elektron o'quv adabiyoti hisoblanadi [3].

Elektron ta'lim resurslari o'quv jarayoni mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg'ulotlarida repititor, mustaqil ta'lim olishga vosita, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida uslubiy yordamchi, o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishini nazoratchisi, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun masala va mashqlar bilan ta'minlovchidir.

Elektron ta'lim resurslari o'quvchilarga axborotni o'qish, ma'ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga mo'ljallangan vazifalarni bajarish, o'z bilimlarini tekshirish va zarur hollarda ularni to'ldirish, o'z-o'zini nazorat qilish kabi bilim shakllarini tavsiya etishi mumkin.

Elektron ta'lim resurslari o'z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o'zida bilim berish va ularni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda u o'quv predmetlarining asosiy axborotli qismini bayon etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar, o'quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini beradigan test texnologiyalaridan tashkil topadi [4].

Elektron ta'lim resurslaridagi mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun yaratilgan o'quv-uslubiy materiallar avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida faoliyat olib boradi. Avtomatlashtirilgan o'quv-uslubiy materiallar ta'lim oluvchilarga kerakli mavzular bo'yicha ma'lumotlarni tavsiya etadi va bilimlarni nazorat qiladi. Bilimlarning nazorati natijasiga qarab ta'lim oluvchilarga turli saviyadagi topshiriqlar tavsiya qilinadi. Avtomatlashtirilgan o'quv-uslubiy ta'lim vositalari yordamida ta'lim oluvchilar o'qituvchining yordamisiz ham o'z bilimlarini oshirib takomillashtirib borishi mumkin [5].

O'quv jarayonida mustaqil ta'limini tashkil etish uchun elektron o'quv-uslubiy majmualar yaratish va joriy etishning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi [2]:

- talabalarining mustaqil ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojini e'tiborga olish va uni amalga oshirish uchun etarli shart-sharoitlar yaratib berish;
- ta'lim tizimining turli yo'nalishlarida talabalarining faol ta'lim olish shakllariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va uni joriy qilish;
- talabalar tomonidan ta'lim mazmuni, metodi va zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- fan va texnika taraqqiyotining bugungi darajasi bilan mukammal tanishtirish va bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish;



– oliy ta'lim muassasalarining elektron axborot-ta'lim muhiti va integrallashgan o'quv-ilmiiy resurslarini yaratish;

– ta'lim jarayonini axborotlashtirish borasida to'plangan ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish;

– zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida talabalar mustaqil ta'limni tashkil etish imkonini beruvchi elektron o'quv-metodik majmualar yaratish;

– talabalar mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishga oid o'quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo'riqnomalarni ko'rsatmalar ishlab chiqish va boshqalar.

O'quv jarayoni uchun elektron ta'lim resurslari yaratishning asosiy maqsadi – ta'lim jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish tamoyillari asosida tashkil etishni ta'minlash, ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan etakchi professor-o'qituvchilarning kasbiy salohiyatlariga tayangan holda, ta'lim sifatini oshirish, talabalar uchun uzluksiz ta'lim olish imkoniyatini yaratish, ta'limning turli shakllarini o'zaro bir-biriga muvofiqlashtirishdan iborat.

O'quv jarayoni uchun elektron ta'lim resurslari asosida mustaqil ta'limni tashkil etish an'anaviy ta'lim shaklidan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi [2]:

– talabalar mustaqil ishlash imkoniyatining kattaligi;

– o'quv-metodik ta'minotning rang-barangligi;

– ta'lim olishni individuallashtirish;

– etakchi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy markazlarda faoliyat ko'rsatayotgan yuqori malakali professor-o'qituvchilar hamda olimlar salohiyatidan keng foydalanish;

– talabalar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga sharoit yaratish;

– talabalarning keng auditoriyasini qamrab olish va uning natijasi sifatida o'zaro hamkorlik muhitini yaratish;

– o'quv jarayonida talabalar guruhini faollashtirish va muvofiqlashtirish;

– talabalarni kuzatish, yordam ko'rsatish hamda ular bilan ishlashni individuallashtirish va tabaqalashtirishga qaratilgan axborot muhitini yaratish;

– multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali talabalarda o'qishga qiziqishni orttirish;

– ta'limning interfaol xususiyati asosida talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv materiallarini o'zlashtirishning samaradorligini oshirish;

– real holatlarda namoyish qilinishi qiyin, yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatlarini yaratish;

– an'anaviy hamda masofali ta'lim o'quv-metodik ta'minotining samarali integratsiyasini ta'minlash;

– talabalarga mustaqil izlanish orqali o'quv materiallarini topish, o'rganish



hamda muammoli masalalarni hal etish orqali ularda ma'lum tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish;

- talabalarning amaliy kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda o'quv trenajer vazifasini bajarish;
- o'quv jarayonida nazorat tahlilini sifatli tashkil etish;
- talabalar kurs, malakaviy bitiruv ishlarini bajarishda, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlab olish, turli ma'lumotlarni tahlil eta olish kabi malakalarni shakllantirish.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini takomillashtirishning asosiy omillari sifatida kompyuter bilan mulqotni, elektron ta'lim resurslari orqali o'quv-metodik ta'minotni yaratish, o'quv jarayonini kompyuterli axborot-ta'lim muhiti va zamonaviy talablar darajasida tashkil qilish, ta'lim berishda gipermatn, multimedia, axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanish kabilarni qayd etish mumkin [2].

O'quv jarayonini kompyuterlashtirish, masofali o'qitishning asosiy vositalaridan biri bo'lgan elektron o'quv-uslubiy ta'minotni yaratish va ularni takomillashtirish muammolarini hal qilish bo'yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar kabi respublikamizda ham turli yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan, 2009. -146 b.
2. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. Toshkent: Fan, 2007. - 160 b.
3. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish kontsepsiyasi. Toshkent: Sharq, 2002.- 20 b.
4. Toshtemirov D.E. Masofali o'qitishning uslubiy vositalari. // Kasb-hunar ta'limi, 2008. № 5. - 23 b.
5. Toshtemirov D.E. Ta'lim portalining tarkibiy tuzilishi va uslubiy ta'minoti. // Kasb-hunar ta'limi, 2010. № 2. -B. 10-11.
6. D.E. Toshtemirov. O'quv jarayonida raqamli texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Monografiya. Guliston: «Universitet», 2024. - 180 b.



5-6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA IT-TEXNOLOGILARINI TATBIQ ETISHNING AMALIY MEKANIZMLARI

SH.BEKCHONOVA,

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti «Umumta'lim maktablarining
5-6-sinf adabiyot darslarida IT -texnologiyalarini
qo'llash metodikasi» innovatsion loyiha ijrochisi, PhD, dotsent*

Ushbu maqolada 5-6 sinf adabiyot darslari uchun axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash mexanizmlari, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali o'qituvchilar raqamli savodxonlikka ega bo'lishi va uni o'quv dasturiga qanday kiritish kerakligini tushunishi o'quvchilarning fanni o'rganishiga ijobiy ta'sir qilishi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *mexanizm, 5-6 sinf, adabiyot, raqamli savodxonlik, ta'lim, samaradorlik, axborot texnologiyalari.*

В данной статье представлено положительное влияние на усвоение учащимися естественных наук, если преподаватели приобретут цифровую грамотность с помощью информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) и поймут, как включить ее в учебную программу, 5 -Механизмы использования информационных технологий в образовательном процессе для 6-го класса. объясняются классные уроки литературы.

Ключевые слова: *механизм, 5-6 класс, литература, цифровая грамотность, образование, эффективность, информационные технологии.*

This article presents the positive impact on students' learning of science if teachers acquire digital literacy through information and communication technologies (ICT) and understand how to incorporate it into the curriculum, 5 -Mechanisms of using information technologies in the educational process for 6th grade literature lessons are explained.

Key words: *mechanism, 5-6 th grade, literature, digital literacy, education, efficiency, information technology*

Maktablar axborot almashish, yaratish, tarqatish, saqlash va boshqarish uchun turli xil IT vositalaridan foydalanadi. Ayrim kontekstlarda IT doskalarni interaktiv raqamli doskalarga almashtirish kabi yondashuvlar o'qitish va o'rganishning o'zaro hamkorligining ajralmas qismiga aylandi. Dars vaqtida o'rganish uchun o'quvchilarning shaxsiy smartfonlari yoki boshqa qurilmalaridan foydalanish va o'quvchilar uyda ma'ruzalarni kompyuterda ko'rib, o'qib, takrorlab, oz'lashtirishlari mumkin bo'lgan va ko'proq dars vaqtida interfaol mashqlarni qo'llashda foydalanadigan «aylantirilgan sinf» modeli ta'lim samaradorligi oshirishga xizmat qiladi [1,2].



Adabiyotlar tahlili. 5-6-sinf adabiyot darslari uchun IT texnologiyasini tatbiq etishning amaliy mexanizmlarida asosan diskurs-tahlil metodidan foydalaniladi.

Mishel Fuko bu soʻzni keng qamrovli maʼnoda koʻrib chiqib, diskursni lisoniy emas, balki umummadaniy tushuncha deb hisoblaydi. «... Diskurs, shubhasiz – belgi hodisasi, lekin bu – narsalarni ifodalash uchun belgilarning shunchaki ishlatilishidan koʻra koʻproq ish bajaradigan hodisa. Aynan uning ana shu koʻproq ish bajarishi uni til va nutqqa qiyoslab boʻlmasligini taʼminlaydi».

Yu.S. Stepanov diskursga V.Z. Demyankov bergan taʼrifni eng yaxshi taʼrif deb hisoblaydi. «Diskurs – bitta gapdan yoki mustaqil gap qismidan koʻproq matnning ixtiyoriy fragmenti. Koʻpincha, (lekin doimiy emas) qandaydir tayanch konsept atrofida jamlanadi. Harakatlanadigan shaxslar, obyektlar, holatlar, zamonlar, harakatlarni tasvirlaydigan umumiy kontekstni hosil qiladi. Diskurs gaplarning ketma-ketligidan emas, uni hosil qiladigan va talqin qiladigan, diskurs bilan «yaratiladigan» olam tomonidan aniqlanadi» [3].

Muammolar va muhokama. Raqamli madaniyat va raqamli savodxonlik: kompyuter texnologiyalari va raqamli madaniyatning boshqa jihatlari odamlarning yashash, ishlash, oʻylash va oʻrganish usullarini oʻzgartirib, butun dunyo boʻylab bilim va quvvatning qurilishi va taqsimlanishiga taʼsir koʻrsatdi. Raqamli savodxonligi sust boʻlgan oʻquvchilar uchun raqamli madaniyat milliy va global iqtisodiyotda muttasil noqulay vaziyatga tushib qolishga olib keladi.

Raqamli savodxonlik – jamiyatda toʻliq ishtirok etish uchun yangi ommaviy axborot vositalaridan tanqidiy foydalanishda asqotadigan axborotni izlash, aniqlash va ishlab chiqarish koʻnikmalarini shakllantirish masalasi oʻquv dasturlari tuzishda muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda[4].

Koʻpgina mamlakatlarda raqamli savodxonlik maktablarga axborot-texnologiyalarini kiritish orqali shakllantirilmoqda. ITning baʼzi keng tarqalgan taʼlim dasturlariga quyidagilar kiradi:

– Har bir bolaga bitta noutbuk: Kamroq quvvat sarfi, arzon operatsion tizim va maxsus qayta dasturlash va tarmoq funksiyalari kabi xususiyatlar bilan 1:1 asosida maktabda foydalanish uchun arzonroq noutbuklar ishlab chiqilgan. Biroq, har bir bola uchun bitta noutbuk bilan taʼminlash baʼzi rivojlanayotgan mamlakatlarga juda qimmatga tushishi mumkin.

– Planshetlar: Planshetlar – bu klaviatura yoki sichqonchasiz kirish imkonini beruvchi sensorli ekranli kichik shaxsiy kompyuterlar. Arzon taʼlim dasturlarini («ilovalar») planshetlarga yuklab olish mumkin, bu ularni oʻrganish uchun koʻp



qirrali vositaga aylantiradi. Eng samarali ilovalar yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'quvchilarga o'z tushunchalarini ifodalash uchun ijodiy va individual variantlarni taqdim etadi.

– Interaktiv doskalar. Interfaol oq taxtalar prognoz qilingan kompyuter tasvirlarini ko'rsatish, manipulyatsiya qilish, sudrab borish(bir joydan ikkinchi joyga oson ko'chirish), bosish yoki nusxalash imkonini beradi. Bir vaqtning o'zida doskada qo'lda yozilgan yozuvlarni olish va keyinchalik foydalanish uchun saqlash mumkin. Interfaol doskalar o'quvchilarga yo'naltirilgan faoliyatdan ko'ra butun sinfni o'qitish bilan bog'liq. O'qituvchilar sinfda foydalanishi uchun IT mavjud bo'lganda, o'quvchilarning faolligi odatda yuqoriroq bo'ladi.

– Elektron kitobxonlik. Elektron kitoblardan o'quvchilar raqamli shaklda yuzlab kitoblarni saqlashi mumkin bo'lgan elektron qurilmalardan foydalanishlari mumkin bo'lib, ular o'qish materiallarini yetkazib berishda tobora ko'proq foydalanilmoqda. Ayniqsa, adabiyot darslarida mustaqil o'qish uchun elektron kitoblardan foydalanish juda qulay vosita bo'lib, ko'plab klassik kitoblar elektron kitob shaklida bepul mavjud.

– Diskurs-ta'lim metodi: Kompyuterda o'qitish va sinfdagi interfaol ta'lim faoliyati orqali uyda mustaqil mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan aylantirilgan sinf(flipped classroom) modeli va diskurs ta'lim metodidan unumli foydalanish kengaytirilgan o'quv dasturini yaratishga imkon beradi[4].

AT va o'qituvchilarning malakasini oshirish: O'qituvchilarga shakllantiruvchi ta'limni baholash, individual o'qitish, onlayn resurslardan foydalanish hamda o'quvchilarning o'zaro munosabati va hamkorligini rag'batlantirish uchun AKTdan foydalanish qobiliyatini oshirish uchun maxsus kasbiy rivojlanish imkoniyatlari kerak. AT bo'yicha bunday treninglar ijobiy bo'lishi kerak. O'qituvchilarning sinfda AKTga bo'lgan umumiy munosabatiga ta'sir qiladi, biroq u har bir fan bo'yicha ATdan foydalanish bo'yicha o'qitilganda axborot texnologiyalarini o'qitish va o'rganish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berishi kerak [1,3].

5-6-sinf adabiyot darslarida IT-texnologiyalarni joriy etishning amaliy mexanizmlari:

1. Interfaol doskalar yoki smart doskalar:
2. Raqamli hikoyalar kitoblari va elektron kitoblar:
3. Virtual sayohatlar va muallif tashriflari:
4. Onlayn tadqiqot va hamkorlik:
5. Multimedia taqdimotlari va kitob treylerlari:



6. Gamifikatsiya va interaktiv darslar:

7. Raqamli portfellar va fikr-mulohazalar:

IT-texnologiyalarini joriy etishning ushbu amaliy mexanizmlarini integratsiyalash orqali 5 va 6-sinf o'quvchilari uchun adabiyot darslarida yanada qiziqarli, interfaol va hamkorlikda o'quv muhitini yaratish mumkin.

Adabiyot darslarida 5-6-sinflarda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'quv qo'llanmalarini yaratish o'qituvchilarga ushbu vositalarni o'z o'quv jarayonlariga samarali integratsiyalashda yordam beradi. Mana shunday qo'llanmalar uchun tavsiya etilgan sxema, jumladan, muayyan texnologiyalar, ularning ilovalari va bosqichma-bosqich ko'rsatmalar:

1. Raqamli hikoyalar. StoryBird bir-ikki daqiqa ichida raqamli vizual hikoyalar asosida olingan bepul resurs. StoryBird orqali mavzular va hikoya qahramonlarini tushunishni yaxshilash uchun vizual hikoyalar yaratish mumkin.

2. Onlayn muhokamalar. Padlet – bu almashish va hamkorlik qilish oson bo'lgan chiroyli loyihalarni yaratish uchun raqamli ilova, o'quvchilarning o'qish haqidagi fikrlari va savollarini almashishiga yordam beradi.

3. Interaktiv viktorinalar

Kahoot sayti orqali qiziqarli viktorinalar yaratib ular orqali o'quvchilarni 24/7 onlayn va dars jarayonida offlayn baholash mumkin. Viktorinani o'quvchilar bilan birgalikda savol asosiy ekranda ko'rinadigan, xotirani mustahkamlash uchun o'quvchilarning ekranida variantlar rangi ko'rinadigan ko'rinishida o'ynash va shu bilan birga savollarni va savollarga javoblarni o'quvchilarning ekranlarida ham ko'rinadigan qilib o'ynash mumkin. Viktorina kodini o'quvchilarga jo'natib yoki doskaga yozib, ularni o'z qurilmalari orqali o'yinga qo'shilishlarini kutib, qatnashchilar kirgach o'yinni boshlash mumkin.

4. Multimedia taqdimotlarini gmail.com.dagi pochta orqali Google Slides multimedia yordamida ma'lumotni ijodiy tarzda taqdim etish.

5. StoryJumper orqali adabiyot mavzulari asosida hikoyalar yozish va tasvirlash mumkin.

6. Hamkorlik loyihalarini Google Docs da matn yoki mavzularni birgalikda tahlil qilish mumkin[5].

Ushbu o'quv qo'llanmalarda o'qituvchilar uchun 5-6-sinf adabiyot darslarida turli raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha aniq qadamlar berilgan. Ushbu vositalarni qo'llash o'quv dasturini boyitadi, adabiyotni qiziqarli va dolzarb qiladi va XXI asr kishisiga xos muhim ko'nikmalarni shakllantiradi. Mulohazalar



va texnologik yutuqlar asosida ushbu qo‘llanmalarni muntazam yangilab turish va qayta ko‘rib chiqish ularning samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alsied, S.M. and Pathan, M.M. 2015. «The use of computer technology in EFL classroom: Advantages and implications.» International Journal of English Language and Translation Studies. 1(1).

2. Bryant, B.R., Ok, M., Kang, E.Y., Kim, M.K., Lang, R., Bryant, D.P. and Pfannestiel, K. 2015. «Performance of fourth-grade students with learning disabilities on multiplication facts comparing teacher-mediated and technology-mediated interventions: A preliminary investigation. Journal of Behavioral Education. 24».

3. Cheung, A.C.K and Slavin, R.E. 2013. «The effectiveness of educational technology applications for enhancing mathematics achievement in K-12 classrooms: A meta-analysis». Educational Research Review. 9.

4. Dunleavy, M., Dextert, S. and Heinecke, W.F. 2007. «What added value does a 1:1 student to laptop ratio bring to technology-supported teaching and learning» Journal of Computer Assisted Learning. 23.

5. Enyedy, N. 2014. Personalized Instruction: New Interest, Old Rhetoric, Limited Results, and the Need for a New Direction for Computer-Mediated Learning. Boulder, CO: National Education Policy Center.



TA'LIMDA ELEKTRON TA'LIMYIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

M.P.DJUMANIYAZOVA,

*Urganch davlat universiteti,
Tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti
«Biologiya» kafedrasida katta o'qituvchisi*

Mazkur ta'lim tizimida tabiiy fanlar, jumladan biologiya fanini elektron ta'limiy vositalar asosida tashkil etish va samaradorlikka erishishning nazariy va amaliy asoslariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: *uzluksiz ta'lim tizimi, o'quv jarayoni, umumiy o'rta ta'lim maktablari, elektron ta'lim vositalari, elektron ta'lim muhiti, biologiya, baholash, elektron baholashda test topshiriqlari, elektron darslik va qo'llanma, biologiya darsligi.*

It is dedicated to the theoretical and practical foundations of the organization of natural sciences, including biology, on the basis of electronic educational tools and achieving efficiency in this educational system.

Key words: *continuous education system, educational process, general secondary schools, e-learning tools, e-learning environment, biology, evaluation, test tasks in e-evaluation, e-textbook and manual, biology textbook.*

Dunyo hamjamiyati ta'lim tizimini barqaror tarraqqiyot tendensiyalariga moslashtirish sharoitida biologiya sohasida interaktiv ta'lim strategiyalari va mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida yanada takomillashtirish, hozirgi zamon biologiya ta'limida elektron ta'limiy resurs vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jadal olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar kelajakda biologiya fanining yangi fan yo'nalishlari hosil bo'lishida, mavjud ta'limiy jarayonlarni axborotlashgan ta'lim muhiti bilan integratsiyalashning pedagogik-psixologik muammolarini yechishdek muhim vazifaga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida axborotlashgan ta'lim muhitini yaratish, o'quv fanlariga mo'ljallangan multimediali ilovalarni keng joriy etish va umumiy o'rta ta'lim maktablarining yangi avlod o'quv-metodik adabiyotlar bazasini xalqaro ta'lim standartlariga, ta'lim sifatini baholashning xalqaro dasturlari tizimiga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «Ta'limda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo'llash jarayonini tizimli tashkil etish choralarini ko'rish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa umumiy o'rta



ta'lim maktablari o'quvchilarining biologik savodxonligini oshirish, tabiiy-ilmiy dunyoqarashini, tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarini shakllantirishda biologiya darslari, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni interaktiv elektron ta'limiy resurslar vositasida tashkil etilishini ta'minlaydi.

Mavzuning ustuvor vazifalari.

– zamonaviy axborotlashgan ta'lim muhitida biologiyadan o'quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlashtirish;

– dars jarayonida o'quvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda o'quv-ta'limiy texnologiyalar va dasturiy ta'lim vositalarini o'zaro kompleks holda tizimlashtirish asosida takomillashtirish;

– biologiyadan darsdan tashqari ishlarda o'quvchilarning individual bilim olishlarini elektron dasturiy ta'minot vositalari hamda mustaqil faoliyatga yo'naltirish asosida tashkillashtirish;

– o'quv jarayonida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar bilimini nazorat qilish va ta'lim sifatini baholashning xalqaro dasturlar talablariga moslashtirish.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlar, tub islohotlar joriy etilayotgan hozirgi kunda har bir o'quv predmetining o'quvchi tomonidan samarali o'zlashtirilishi o'quv jarayonida foydalaniladigan zamonaviy innovatsiyalar, interfaol vositalar, o'qituvchining kasbiy kompetentligi va albatta, o'quvchilarning intellektual salohiyat darajasiga chambarchas bog'liq masaladir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmonida belgilangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, pedagog va mutaxassislarining umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillari, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining biologiya o'quv predmetini o'qitishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda hozirgi axborotlashgan muhitda, o'quvchi-yoshlarda biologiyadan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda o'quv-metodik majmualar bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari, elektron resurslardan maqsadli foydalanish ko'nikmalarini to'g'ri yo'naltirish, tarbiyalash va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish talab etiladi.



Uzluksiz ta'lim tizimining deyarli barcha o'quv muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlarida, jumladan biologiyani o'rganish davomida ham hozirgi kunda deyarli har bir mavzu uchun taqdimot materiallarini tayyorlash va o'quv jarayoniga joriy etish eng maqbul vositalardan sanalmoqda.

Davlat ta'lim standartining umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun umumta'lim fanlaridan o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo'yiladigan umumiy talablarda quyidagilar o'z aksini topgan: «Darsliklarning multimediali ilovalari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi hisoblanadi va har bir umumta'lim o'quv predmeti mazkur talab asosidagi elektron ta'lim resursiga ega bo'lishi lozim'ligi ta'kidlanadi.

O'quv fanlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan namoyish vositalari ham ayni bir amaliy dasturlar asosida yaratiladi. O'qituvchidan bunday amaliy dasturiy vositalarni tayyorlash va joriy etish kompetensiyasiga ega bo'lish talab etiladi yoki bevosita dasturlovchilar mehnatiga ehtiyoj seziladi. Shunday bo'lsada, ko'p hollarda ikki fanning o'zaro integrativ yondashuvi asosida ko'plab ilmiy manbalarni o'zida aks ettirgan elektron vositalar yaratilishiga erishilmoqda.

Har qaysi o'quvchi kompyuterdan mustaqil foydalana olar ekan, uning imkoniyatlar dunyosini kashf etib boradi. Endilikda, ta'lim jarayonida tavsiya etiladigan o'rgatuvchi dasturlar, namoyish usullari, hisoblash ishlari – bularning barchasi kompyuter, mobil vositalar asosida amalga oshiriladi. Xuddi shu o'rinda tadqiqotning asosiy vositasi bo'lgan elektron ta'limiy resurslar, elektron vositalar va ulardan foydalanish texnologiyasiga ham bevosita axborotlashgan muhitdagi muhim ilmiy-amaliy samara berish vositasi sifatida qaraladi.

Yuqori sifatli elektron vositalardan foydalanish va ularni ta'lim jarayoniga to'g'ri tatbiq etish o'quvchilar tomonidan axborotlarni qabul qilish, ularga ishlov berish, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni muntazam nazorat qilish, ijodkorlikni tarbiyalash, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, ta'lim natijasini



uzluksiz kuzatib borish imkoniyatini beradi. Buning barobarida, o'quvchilar faoliyatini tashxis qilish va bashoratlash, kelgusi darslarni loyihalash yuzasidan tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish, muayyan axborotning o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatida takrorlash tartiblarini belgilashga zarur sharoit yaratadi.

Dissertatsiyaning mazkur bobida shuningdek, hozirgi kunda biologiya darslarida elektron ta'limiy resurslardan foydalanish, elektron ta'limiy vositalarning mavjudligi, umumta'lim maktablarida elektron ta'limiy resurslardan foydalanishning hozirgi holati, shuningdek, o'qituvchilarning axborotlashgan muhitda o'quv jarayonlarini tashkil etish borasidagi faoliyatlari, biologiya fanlarini kompyuterlashtirishdagi muammolar, tahliliy natijalar, so'rovnoma va anketalarga olingan javoblar haqidagi ma'lumotlar, ularning yechimi haqidagi fikr-mulohazalarda o'z aksini topgan.

Biologiya darslari jarayonida samaradorlikka erishish ko'p hollarda didaktikaning qonuniyatlariga to'liq rioya etish va bevosita shakl, metod va usullarni ta'lim jarayoniga to'g'ri tatbiq etish orqali amalga oshiriladi. O'quv jarayonida tabiatdagi voqea-hodisalar bilan tabiatda hayvonot dunyosining tarqalishi, yashash tarzi, ko'payishi va rivojlanishi bilan bog'liq ilmiy ma'lumotlar bevosita darslik, o'quv-metodik qo'llanmalar vositasida amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar zamonaviy ta'lim texnologiyalari, dasturlashgan vositalar, test va shu kabi noan'anaviy ta'lim vositalari asosida o'quv jarayoni faolligiga erishiladi. Bugungi axborotlashgan davrda ko'pgina o'quv fanlari kabi biologiya darslarida ham elektron ta'lim vositalarini faol qo'llash samaradorlik omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Biologiya darslarida ta'limning elektron vositalaridan foydalanish va ularni o'quv jarayoniga joriy etish o'ziga xos yangi usulni vujudga keltiradi. Biologiyadan elektron resurslarning o'quv jarayonidagi muhim hamda ahamiyatli belgilariga quyidagilarni kiritish o'rinli hisoblanadi:

– namoyish etilayotgan ma'lumotning ko'rgazmaliligi (har xil ranglardan, illyustratsiya, tovush, video, animatsiya va boshqa elementlardan foydalanish); tezkor qayta aloqa (materillarni o'zlashtirishda o'rnatilgan test-tizimlari tezkor nazoratni ta'minlaydi); interafol tartib o'quvchiga o'quv materillarini tez o'zlashtirishda o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatadi; doimiy ravishda o'quv qo'llanmalarini to'g'rilab borish va yangi ma'lumotlar bilan boyitib borishga ko'maklashadi (elektron o'quv qo'llanmadagi eski ma'lumotlar o'rmini yangilari bilan almashtirish yoki ularni o'zgartirish kelajakda foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishi uchun amalga oshiriladi).



Biologiyani o'qitishda elektron ta'limiy resurslardan foydalanish ta'limning samaradorligini ta'minlash bilan bir qatorda tarbiyaviy vazifalarning unumli yechimi topilishini ham ta'minlaydi. Biologiyani o'qitishda elektron ta'limiy resurslardan foydalanish quyidagi didaktik qulayliklarni ta'minlaydi:

1) murakkab o'zlashtiriladigan bilimni bayon etish, ya'ni organizmning tashqi va ichki muhitida sodir bo'layotgan jarayonlar bilan tanishish, ularni bevosita kuzatish imkoniyati bo'lmagan holatlarni monitor orqali o'rganish va tahlil qilishda qo'llaniladi; 2) hayvon organizmida organlarning joylashishi va ularning vazifasini o'rganish o'ziga xos usulda tashkil etiladi; 3) hayvonlarning yashash tarzi, tabiatda tarqalishi, ko'payishi va rivojlanishi va ularning xilma-xilligi haqidagi mavzularga qo'shimcha CD va DVD shakldagi ilmiy-ommabop filmlar qisqa hajmli materiallarining namoyish etilishi o'quvchini bevosita tabiat bilan uzviy aloqada ekanligini, uni ardoqlashi zarurligi haqidagi tarbiyaviy tushunchalarni shakllantiradi; 4) o'quvchining mustaqil bilim olishini rivojlantiradi.

Yangi mavzuning nazariy qismi darsning dastlabki 7-8 daqiqasida o'quvchilarga yangi bilimlarni berish orqali amalga oshiriladi, darsning tashkil etish bosqichlariga ko'ra, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni asosida berilgan bilim mustahkamlanadi. Aynan o'rganishning dastlabki 7-8 daqiqasi o'quvchi uchun qabul qilish, eslab qolishda eng samarali muddat hisoblanadi, 15 daqiqadan keyin esa o'quvchida o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi pasaya boshlaydi.

Ta'kidlab o'tilganidek, biologiya darslari samaradorligini oshirish va o'quvchilarning aktiv faoliyatini ta'minlash maqsadida yaratilgan ushbu dastur ba'zi bir kamchiliklardan holi emas, albatta. Dars jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyasi elementlarini keng tatbiq etish zarur bo'lgan hozirgi davrda biologiya fanining samaradorligini oshirish uchun yangi metodikaning o'ziga xos o'rni mavjudligini e'tirof etish zarur.

Ma'lumki, biologiyadan darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning mazmuni mashg'ulotlar davomida amalga oshiriladigan maqsad va vazifalar, xususan sistematika, hayvonlarning morfologik va anatomik tuzilishiga oid ma'lumotlarni bilish bilan belgilanadi. Mazkur mashg'ulotlar davomida o'quvchilar darsda o'zlashtirgan nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, amaliy ko'nikma va malakaga ega bo'ladi.

Biologiyadan darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda hayvonlarning rivojlanishining turli bosqichlarini qisqa yoki uzoq muddatli kuzatishlar asosida



amalga oshirish ham maqsadga muvofiq bo'lib, bu mashg'ulotlar o'quvchiga zavq beribgina qolmasdan, balki uy hayvonlarining xatti-harakatlari va ulg'ayishi bilan bog'liq jarayonlarni ko'rish, e'tibor qaratish, shu bilan birgalikda tabiatni sevish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda o'quvchilarni xalqaro baholash tizimiga samarali tayyorlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim tizimida PISA, TIMSS atamaları tez-tez takrorlanmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xalqaro baholash tizimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha dolzarb vazifalar amalga oshirilayotgan bir paytda o'quvchilarni nostandart test topshiriqlari asosida baholashga o'rgatish, ularning tabiiy-ilmiiy savodxonligini oshirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda tadqiqot doirasida o'quvchilarni nostandart test topshiriqlari asosida bilimni nazorat qilishning didaktik tizimini ishlab chiqildi.

Biologiya fanida elektron ta'limiy resurslardan foydalanishni takomillash-tirish yuzasidan yuqorida ta'kidlanganidek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya darslari samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini ajratib olishga, shuningdek, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar ko'lamini yanada rivojlantirishga imkon yaratuvchi quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Джурраев Р. Х., Карахонова Л. М. Медиаобразование как фактор повышения качества обучения школьников //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. - 2013. - Т. 11. - №. 2. - С. 322-323.
2. Карахонова Л. М. Эффективное использование электронных образовательных ресурсов в обучении биологии //Наука и образование сегодня. - 2020. - №. 6-1 (53). - С. 41-42.
3. Karakhonova L. M. Using the electronic educational resources in biology lessons //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY. -2019. - С. 35-39.
4. Карахонова Л. 6. DEVELOPMENT OF STUDENTS'KNOWLEDGE BASED ON THE USE OF 3D EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE BIOLOGY EDUCATION //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. - 2020. - Т. 1. - №. 2. - С. 55-59.



IT PLATFORMALARNI TADBIRKORLIK SOHASINING RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH USULLARI

D.R.KARIMOV,

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
Kichik biznes va tadbirkorlik mutaxassisligi magistranti*

Mazkur maqolada mamlakatimizda elektron tijoratning o'рни va ahamiyati, uning rivojlanish bosqichlari, kelajakda rivojlanish imkoniyatlari to'g'risida fikr-mulohazalar keltirilgan. Hamda uning imkoniyatlarini baholash va shu orqali rivojlanish istiqbollarini belgilash yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Elektron tijorat, elektron bozor, elektron pul, to'lov tizimlari, online do'konlar, Online bank xizmatlari, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya.

В данной статье представлены мнения о роли и значении электронной коммерции в нашей стране, этапах ее развития и возможностях дальнейшего развития. Также выделена оценка его возможностей и определение перспектив развития.

Ключевые слова: Электронная коммерция, электронный рынок, электронные деньги, платежные системы, интернет-магазины, онлайн-банковские услуги, цифровизация, цифровая трансформация.

This article presents opinions on the role and importance of electronic commerce in our country, its development stages, and future development opportunities. Also, the evaluation of its capabilities and the determination of development prospects are highlighted

Key words: Electronic commerce, electronic market, electronic money, payment systems, online stores, online banking services, digitization, digital transformation.

«Biznesda odamlarga emas, balki dasturlarga ishonish ishonchliroq»

Hozirgi kunda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda, umuman iqtisodiyotda IT sohasini qo'llanilishi zamonaviy qilib aytganda – elektron tijorat deb atalmoqda.

Iqtisodiyotning real sektorida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

– sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarni texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg'unlashtirish;

– korxonada ta'minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish;



– zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish;

– innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

– ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;

– savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o‘zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish;

– boshqaruv ma‘lumotlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish.

Raqamli texnologiyalar milliy bozori uchun qulay muhitni yaratish va istiqbolli «raqamli» startaplarni rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

– texnoparklar va kovorking markazlari faoliyatini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish orqali zamonaviy raqobatbardosh va eksportga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlarni, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish;

– raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning biznes amaliyotiga ta‘siri va yangi raqamli xizmatlar yoki mahsulotlar paydo bo‘lishi ta‘sirini hisobga olgan holda qonunchilik bazasini takomillashtirish mexanizmlarini shakllantirish;

– milliy startaplarni rivojlantirishni rag‘batlantirish va axborot texnologiyalari sohasida yangi ish boshlayotgan korxonalar va kichik korxonalar, jumladan venchur moliyalashtirish orqali ko‘maklashish;

– mahalliy dasturiy mahsulotlar bozori rivojlanishi uchun sharoit yaratish, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari va davlat organlarining samarali o‘zaro hamkorligini ta‘minlash orqali yangi innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va ularni keyinchalik amalga oshirish;

– tashqi bozorda mahalliy texnologik va dasturiy mahsulotlarga bo‘lgan talabni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish;

– intellektual mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish, ustav kapitalida intellektual mulkni ko‘rsatish imkoniyatini yaratish bilan bog‘liq tartibotlarni soddalashtirish;

– venchur ekotizimlarning rivojlanishini soddalashtirish uchun «regulyativ qumdon»ni yaratish;



- transport jarayonlarini rejalashtirishda aholining harakatchanligini aniqlash uchun (maxfiy ma'lumotdan tashqari) turli xizmatlardan (mobil aloqa operatorlari ma'lumotlari, ilovalar va boshqalar) ma'lumotlarni jamlash bo'yicha yagona platformani joriy etish;
- axborot texnologiyalari sohasidagi startap va tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish tizimining muqobil mexanizmlarini joriy yetish;
- innovatsion g'oyalarni, startaplar va venchur loyihalarini moliyalashtirish tizimining barqaror zanjirini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- axborot texnologiyalari sohasida yangidan ish boshlagan va kichik korxonalariga startap-loyihalarni amalga oshirishda, innovatsiya faoliyati natijalarini investitsiyalarni jalb qilgan holda ko'maklashish;
- sportchilarni kompyuter sport turlari bo'yicha, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida o'qitish uchun kompyuter sport markazlari (professional klublar) tarmog'ini yaratish;
- kompyuter o'yinlari sanoatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, xorijiy investitsiyalarni mahalliy IT-mahsulotlarini ishlab chiqish va rag'batlantirishga jalb qilish, ushbu sohadagi malakali mutaxassislarni tanlab olish va tayyorlash;
- axborot texnologiyalari sohasida autsorsing xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-texnik va moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- loyiha boshqaruviga o'qitishni joriy etish, shuningdek, startap-loyihalarini qo'llab-quvvatlovchi inkubatsiya va akseleratsiya markazlari faoliyatini tashkil etish orqali axborot texnologiyalari sohasidagi oliy ta'lim sifatini oshirish;
- IT-parkning xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarini ochish orqali mahalliy dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilarining manfaatlarini ifodalash hamda ularga o'z mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda ilgari surishda ko'maklashish;
- har tomonlama tahliliy va amaliy tadqiqotlar asosida raqamlashtirish jarayonlarining ishlab chiqarish va iqtisodiyot tarmoqlariga ta'sirini baholash va kelgusida mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasini kengaytirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;
- axborot texnologiyalari sohasida tijoratlashtirish salohiyati baland bo'lgan yuqori texnologik mahsulotlar yaratilishiga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlanmalari ishlab chiqilishini rivojlantirish;
- IT-park asosida ilg'or texnologiyalardan (Big Data, IoT, AI blokcheyn va boshqalar) foydalangan holda ustuvor tarmoqlar uchun «aqli yechimlar» ni ishlab chiqishni rag'batlantirish;



– biznes korxonalari, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan yuqori texnologiyali tadbirkorlik markazlari va klasterlarini yaratishga ko‘maklashish;

– texnoparklar, akseleratorlar va inkubatorlarni xakatonlar, tanlovlar va konferensiyalar orqali tizimli ravishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va grant subsidiyalari berish.

O‘zbekistonda onlayn tadbirkorlik, onlayn bozor kabi tushunchalar so‘nngi yillarda ommalashib bormoqda. Onlayn tadbirkorlik o‘zi qanday jarayon, uning tadbirkor uchun foydali jihatlari va bu jarayonning murakkablik darajasi qanday?

Mamlakatimizda elektron tijoratning o‘rni va ahamiyati, uning rivojlanish bosqichlari, kelajakda rivojlanish imkoniyatlari hamda uning imkoniyatlarini baholash va shu orqali rivojlanish istiqbollarini belgilash, shu bilan birga, milliy iqtisodiyot va uning rivojlanishida IT sohasini o‘rnini keng tadqiq etish hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishda, dunyo tajribasida keng qo‘llanilgan quyidagi prinsiplarni joriy etilishi zarur bo‘lmoqda:

– elektron tijoratni rivojlantirishda korpoorativ sektor faol rol o‘ynashi lozimligi;

– elektron tijorat bilan shug‘ullanishga doir, davlat organlari tomonidan, asoslanmagan turli cheklovlar qo‘yilishini bartaraf etish lozim;

– davlat hokimiyati organlari elektron tijorat jarayonida, faoliyatga soha subyektlarini qo‘llab-quvvatlash hamda huquqiy bazasini takomillashtirish va mustahkamlash maqsadidagina aralishishi mumkinligi;

– elektron tijoratni boshqarish va rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda davlat boshqaruv organlari Internetning tarmog‘ining soha uchun ahamiyatini, dolzarbligini inobatga olishi lozim;

– elektron tijorat jarayoni ma‘muriy-hududiy bo‘linish va davlat chegaralariga bog‘liq bo‘lmagan ravishda, global masshtabda sodir bo‘lishi lozim. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, O‘zbekistonda elektron tijorat rivojlantirishi bilan bir birgalikda sohaning takomillashishi uchun to‘siq bo‘layotgan bir qancha muammolar ham mavjud. Bu muammolarning tez va aniq yechimini topish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Global dunyoda iqtisodiy o‘rningning faollashuvi, dunyo aholisining yashash darajasi yaxshilanishi, axborot texnologiyalarining kundalik hayotga singib ketgani natijasi hisoblanadi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, erkin axborot



oqimining ta'minlanishi bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtiradi va ijtimoiy farovonlikni oshirishga sabab bo'ladi.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi iqtisodiyotda ham o'z aksini topadi. Axborot texnologiyalarining har xil segmentlarining yuqori darajada rivojlanganayotganligi va samarali qo'llanilayotganligi, barcha sohalar kabi, iqtisodiyotda, zamonaviy marketing sohasidagi erishilayotgan barcha yutuqlarning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston iqtisodiyoti ham albatta bundan mustasno emas.

Bunga aniq misol sifatida axborot texnologiyalarining bir qator masalan, ma'lumotlar almashinuvi tarmoqlari, hujjatlar ijrosini samarali ta'minlash yaratilgan platformalar, internet marketing tizimlari, respublikada biznesni barqaror rivojlantirishini ta'minlamoqda keltirish mumkin.

O'zbekistonda iqtisodiyotning bosqichma-bosqich rivojlanishi oqibatida biznes faoliyati yuritishning yangi prinsiplari, ayniqsa, biznesda IT sohasining ahamiyati keskin oshdi. Bugungi kunda har bir internet foydalanuvchisi IT sohasi nima, «elektron tijorat» nima ekanligini anglab yetdi.

Elektron tijorat tizimini uch sinfga bo'lish mumkin:

- chakana savdoni tashkil qilishbo'yicha (biznes-iste'molchi, B2C);
- biznes hamkor bilan aloqlar o'rnatish (biznes-biznes, B2B);
- iste'molchilar o'rtasidagi savdo (iste'molchi-iste'molchi, C2C).

Tadbirkorlikda IT sohasini keng qo'llanilishi natijasida, tovar va xizmatlar assortimenti xilma xillashib borgani sari, alohida shaxslarni, korxonalarni, sohalarni, davlat muassasalarini va nihoyat davlatlarni bir biri bilan birlashtirib, hamkorlarning o'zaro ta'siri IT texnologiyalar yordamida samarali va xech qanday to'siqlarsiz kelishuvlarga erishishga imkon bermoqda.

Elektron tijoratning o'ziga xos qulayliklari va ustunliklari mavjud:

- xalqaro operatsiyalarda axborot olish tezligi oshadi;
- ishlab chiqarish va sotish davri qisqaradi;
- arzon kommunikatsion vositalardan foydalanish evaziga axborot almashish harajatlari kamayadi[7].

Tadqiqotda natijasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar kelgusida iqtisodni va o'zaro biznes munosabatlarni rivojlanishiga hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini butun jahon iqtisodiyoti va uning talablari bilan bellasha oladigan mustahkam iqtisodiyotni shakllanishida muhim o'rin tutadi.



Biroq, tadbirkorlikning axborotlashuvi natijasida ishsizlik darajasi ko'payishi extimoli yuqori ekanligi asosiy muammo sifatida saqlanib qoladi. Mazkur muammoning yechimi sifatida tadbirkorlikning shunday turlari paydo bo'lyaptiki, bularga xizmat ko'rsatish sohasidagi turli xildagi onlayn xizmatlarni misol qilish mumkin.

Dissertatsiya ishi materiallaridan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha «Mentorlik» faoliyatida va oliy o'quv yurtlarida «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik», «Zamonaviy marketing», «Startup loyihalarini boshqarish» kabi fanlarning o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin[8].

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga, olingan natijalarning amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni respublika tashqi savdo faoliyatini rag'batlantirishga va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda raqobatbardosh amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda qo'llashning mumkinligi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Sharifxodjayev, Z. Xakimov. Interaktiv va raqamli marketing. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisodiyot. 2019. – 271 b
2. Абдухалилова Л.Т. Интернет маркетинг. - Т.: Иқтисодийот, 2019. 265 б.
3. Ergashxodjaeva Sh. J., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2018. –315 b.
4. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Samadov A.N., Alimxodjayeva N.E., Sharipov I.B. Marketing kommunikatsiyasi. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisodiyot, 2019. ?418 b.
5. Gary Armstrong, Philip Kotler, Michael Harker, Ross Bernnan. Marketing an introduction. England, 2016, Paperback: 720 pages, Pearson.
6. lex.uz - O'zbekiston respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 2. <https://www.statista.com/>- Statistik ma'lumotlar portali.
7. «Internet – marketing» o'quv qo'llanma, L.T.Abduxalilova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, «IQTISODIYOT» nashriyoti, 2019 yil.
8. TDIU, 2011 - 198 b.; Jalolov J., Axmedov I., Nematov I., Akramov T. Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2011 - 198 b.; Nazarova G.G'. Xalilov X. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va XIM: Darslik. -T., 2005. - 320 b.; R.X.Shodiev. «Jahon iqtisodiyoti». - T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot, 2005.; Ishmuxamedov

**TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI TARBIVYIVY
FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMLI TASHKIL ETISH
MASALALARI****F.X.IBRAGIMOVA,***Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti doktoranti*

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarini tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir: tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, sinergetik, gernevntik va psixoterapevtik yondashuvlar haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *ma'naviy-tarbiyaviy ishlar, talabalarning tarbiyaviy faoliyati, ma'naviy-axloqiy tamoyillar, tizimli yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, sinergetik yondashuv, gernevntik yondashuv, psixoterapevtik yondashuv.*

В данной статье описываются о системных, деятельностных, синергетических, герневнтических и психотерапевтических подходах подготовки студентов вузов к воспитательной деятельности.

Ключевые слова: *духовно-воспитательные работы, воспитательная деятельность студентов, духовно-нравственные принципы, системный подход, деятельностный подход, синергетический подход, герневнтический подход, психотерапевтический подход.*

This article describes the systematic, activity-oriented, synergetic, hermeneutic and psychotherapeutic approaches to preparing students for higher education.

Key words: *spiritual-educational work, educational activity of students, spiritual-moral principles, systemic approach, activity-oriented approach, synergetic approach, hermeneutic approach, psychotherapeutic approach.*

Ta'lim va tarbiya – shaxs shakllanishining asosini tashkil etadi. Tarbiya, ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda o'ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta'lim va tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Ta'lim va tarbiyaning birligi, avvalo, ular maqsadining umumiyligidan iboratdir.

Oliy o'quv yurtlarida ma'naviy-tarbiyaviy ishlar, tadbirlar ko'plab o'tkaziladi. Shunga qaramay talabalar orasida axloq-odobga to'g'ri kelmaydigan hatti-harakatlar uchrab turadi, ya'ni oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar hamma joyda ham kutilganidek natija beryapti deb bo'lmaydi. Ayrim oliy o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlar universitet, institut miqyosida, shuningdek, fakultet va guruhlarda biri ikkinchisi bilan bog'lanmagan har turli tadbirlarni amalga oshirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Odatda, bunday tarbiyaviy tadbirlarda ko'pincha faolroq



talabalar qatnashadilar. Tarbiyaga muhtoj va tarbiyalash zarur bo'lgan ayrim talabalar esa bu ishdan chetda qolaveradi. Tarbiyaviy ishning ba'zan kam samara berayotganligining sabablaridan yana biri, yoshlarga axloqiy ta'sir o'tkazish usullarining bir tomonlamaligidadir.[4]

Tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash deganda talabalarning subyektiv pozitsiyasini amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish, uni ta'lim muassasasining ta'limiy va jamoatchilik faoliyatiga faol jalb etish; kasb sirlarini amaliy o'zlashtirish, o'zining imkoniyatlari va qobiliyatlarini baholash bilan bog'liq mustaqil faoliyatga tashabbus uyg'otish va qo'llab-quvvatlash; talabalar jamoasini hamkorlikdagi ijtimoiy ahamiyatga ega innovatsion o'quv loyihalari, dasturlar, ta'lim-tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqishdagi ishtirokini ta'minlash; ta'limiy muhitda o'zaro hamkorlik aloqalari, sherikchilikni kengaytirish tushuniladi. Tarbiya jarayoni talabalar qiyofasida yangi faol subyektni tarkib toptiradi.

Respublikamizda pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Talabalarning ma'naviy-axloqiy shakllanishi bir-biri bilan uzviy bog'liq va biri ikkinchisini taqozo qiladigan yaxlit ta'lim-tarbiya ishlarini muntazam va izchil ravishda bajarishni talab etadi. Tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning aniq va mukammal tizimigina, yaxlit tizimli yondashuvigina tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi.[4]

Tarbiyaviy ishda mukammal tizimning mavjudligi bir xil ishni ortiqcha takrorlayvermaslikka, talabaga nisbatan biri ikkinchisiga to'g'ri kelmaydigan qarama-qarshi ta'sirlarning oldini olishga, talabalarga bir xil talablar qo'yish va yakdillik bilan ta'sir o'tkazishga imkon beradi.

«Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi»da oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar sifatida quyidagilar alohida ajratib ko'rsatilgan:

– ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'quvchi-yoshlarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdirish



va ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish;

– o'quvchi-yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallash, media madaniyatni rivojlantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganishni rag'batlantirish;

– kasbiy-ma'naviy ko'nikmalarni mustahkamlash, o'zini-o'zi tarbiyalashga o'rgatish;

– faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish;

– ilmiy, ma'naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog'lom diniy e'tiqodni shakllantirish;

– baxtli oilaviy hayot, farzand tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

– kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish[3].

Talabalarning innovatsion, adaptatsion sharoitda ishlashini, tez o'zgaruvchan sharoitlarga nisbatan qayishqoq bo'lishni zamonning o'zi talab etmoqda. Shu bois ham oliy ta'lim muassasalari talabalarining tarbiyaviy faoliyatga layoqatligini zamon talablariga javob bera oladigan darajada rivojlantirish, ta'limni tubdan isloh qilish, mazkur tizimni yangi sifat bosqichiga ko'tarishning muhim shartlaridan biridir.

Bugungi kunda tarbiya jarayonini tashkil etishga doir zamonaviy yondashuvlarga tayangan holda talabalarni mazkur faoliyat turiga samarali tayyorlash ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday zamonaviy yondashuvlar orasida tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, sinergetik, germenevtik va psixoterapevtik yondashuvlar ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya jarayoni yaxlit tizim sifatida obyekt yaxlitligini va uni ta'minlovchi mexanizmlarni ochib berish; murakkab aloqalarining turli tiplarini aniqlash hamda ularni yagona nazariy ko'rinishga keltirish; shuningdek, obyektning yaxlitlik xususiyatlarini, uning tuzilmasi hamda dinamikasini belgilash imkonini beruvchi murakkab obyekt o'zaro bog'langan modellarining iyerarxik tizimi to'g'risidagi tasavvurlarni amalga oshiradi. Demak, tizimli yondashuvdan kelib chiqadiki, murakkab obyekt (tarbiya tizimi)ning o'ziga xosligi uning tarkibiy qismlarining alohida xususiyatlarini inkor etmaydi, aksincha, ma'lum bir tarkibiy qismlar orasidagi aloqa va munosabatlarga doir bog'lanishlarni hosil qiladi. Tarbiya jarayoni yaxlit tizim sifatida ijtimoiy buyurtma, maqsad, metodologik yondashuvlar,



qonun, qonuniyat, tamoyillar, tarbiya mazmuni, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish shakl, metod va vositalari, tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar, ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligi, diagnostika, profilaktika, korreksiya kabilarning o'zaro aloqadorligi va birligini talab etadi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvning mohiyati – bixevioristik yo'nalganlik, tarbiyani shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy pedagogik ta'sir sifatida qarash; har bir pedagogik ta'sir tarbiyalanuvchida uning so'zlari, xatti-harakati yoki amallarida namoyon bo'ladigan ma'lum javobni yuzaga keltiradi. Xususiyatlari – ideal va tarbiya dasturining mavjudligi, tarbiya tizimining aniq tashkil qilinganligi, tartib va bahslashuvning ahamiyati.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati shundan iboratki, u tarbiyaviy ideal, tarbiya dasturi, aniq faoliyat yuritadigan tarbiya tizimi, tartib, intizomlilik, «bolalarcha o'zboshimchalik»ni bartaraf qilishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy ma'noda bu yondashuv axloqiy-insonparvar qadriyatlarning shaxsiy ahamiyatli ma'nosini anglash, motivatsion-irodaviy va emotsional darajada o'zlashtirish sifatida qaraladi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv uchun tarbiya jarayonini anglashning chiziqli tamoyili xarakterli: har bir pedagogik ta'sir tarbiyalanuvchining ma'lum javobi(so'z, hatti-harakat, amal)ni ko'zda tutadi.

Tarbiyaga sinergetik yondashuv murakkab tizimlarning o'z-o'zini tashkillashtirish nazariyasi asosida kelib chiqqan. Sinergetika murakkab tarzda bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishuvchi ko'p miqdordagi qismlar, komponentlar va ichki tizimlardan tarkib topuvchi metatizimlarni o'rganuvchi fan sifatida yuzaga kelgan.

Dunyo hamjamiyatida prefigurativ madaniyatdan hosil bo'luvchi fenomenlar: kelajakning (hatto yaqin kelajakning) noaniqligi, bugunning beqarorligi, informat-sion xaos borgan sari ko'proq anglanilib bormoqda. Ushbu sharoitlarda tarbiya maqsadga yo'naltirilgan boshqaruvga bo'ysunishi mumkin emas, chunki tarbiyaning o'zi – noaniqlik sohasi. Tarbiyani diagnostika qilish, uning natijalarini o'lchash murakkabligi tasodif emas: ular doimo haqiqiy tarbiya vaziyatidan vaqt bo'yicha kechikib yuradi va noaniqdir. Tarbiya jarayonida pedagog ta'sirida shaxsning qaysi motivatsion-qadriyatli tizimlari o'zgarishga uchrayotganligini, tarbiyalanuvchining o'zining ma'naviy izlanishlari, o'zini «yenga olishi», hayotiy tajribani egallashi natijalari qanday bo'layotganligini aniqlash oson emas.

Sinergetik yondashuv pedagogga tarbiya jarayonini chiziqsiz sifatida tushunish, tarbiya tizimlari ochiqqligini, ahamiyat hosil qiluvchi tasodiflarni (fluktuatsiyalarni) tan olish shartini qo'yadi. Tarbiyaga sinergetik yondashuvning o'ziga xos xususiyati –



shaxsni o'zgartirishning bir qancha yo'llari, imkoniyatlarini tan olish va sakrashlar yuz beruvchi keskin, beqaror tarbiyaviy vaziyatlar bilan bog'liq.

Bolalik hayoti tabiatining o'zi uning har bir lahzasini to'laqonli qadriyatlar bilan boyitadi, shu sababli tarbiya ob'ektiv, hamma uchun umumiy bo'lgan maqsadga ega bo'lishi mumkin emas. Tarbiya maqsadi tarbiyachining aniq bir shaxsning individualligining namoyon bo'lishini tushunishi hodisasi orqali paydo bo'ladi.

Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, oliy ta'lim tizimida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin: kasbiy tarbiyaning o'ziga xosligi; tarbiya nazariyasi va amaliyotida stereotiplardan voz kechish; oliy ta'limning o'quv, auditoriyadan tashqari, ijtimoiy faoliyatida tizimli ravishda tarbiyaning xilma-xil obyekt va subyektlarini yaratish; tarbiyaning an'anaviy shakllari va innovatsion loyihaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish; media vositalar va texnologiyalardan maksimal darajada foydalanish; natijaviylik ko'rsatkichlari (kompetensiyalar) majmuini ishlab chiqish va ularni har bir ta'lim oluvchining amaliy faoliyatiga tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 4947-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi «Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4623-son Qarori
3. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. T.: «Aloqachi». 2008



OLIV TA'LIM TIZIMIDA MADANIY QADRIYATLAR ASOSIDA TALABALARNING IJTIMOIV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

G.M.QURBONOVA,
O'zDJTU dotsenti

Talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirish muhim omil sifatida jamiyatdagi ma'naviy-axlokiy sifatlarini o'zlashtirish va ularga erishish yo'llarini belgilaydi. Ushbu makolada talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning nazariy jihatlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy makon, o'qitish sifati, faoliyat, ijtimoiy faollik, innovatsion shakl, madaniy qadriyatlar, shaxsiy yetuk.

Развитие социальной активности студентов как важный фактор определяет пути приобретения и достижения духовно-нравственных качеств в обществе. В данной статье описаны теоретические аспекты развития социальной активности студентов.

Ключевые слова: социальное пространство, качество обучения, деятельность, социальная активность, инновационная форма, культурные ценности, личностная зрелость.

The development of students' social activity as an important factor determines the ways of acquiring and achieving spiritual and moral qualities in society. This article describes the theoretical aspects of the development of social activity of students.

Key words: social space, quality of teaching, activity, innovative form of social activity, cultural values, personal maturity.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning takomillashtirilgan dasturiy-metodik ta'minoti yaratildi. Natijada talabalarni tayyorlashning madaniy qadriyatlarning kasbiy-pedagogik qadriyatlar bilan aloqasi, madaniy-ijodiy faoliyatning pedagogik faoliyatdagi ijod va refleksiya bilan o'zaro aloqasi, kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik mexanizmlari ishlab chiqildi va ta'limni insonparvarlashtirishning ustuvorligi ta'minlandi. Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish mexanizmlarini ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik isloxlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ma'naviy madaniyatni shakllantirish asosida takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda oliy ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatida madaniy qadriyatlar asosida ijtimoiy faollikni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish; talabalarining ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan



vositalarini yaratish; talabalarla ijtimoiy faollikni rivojlantirishning tizimini takomillashtirish; talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning texnologiyalarini takomillashtirish; talabalarda kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatga asoslangan samarali pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb axamiyat kasb etmokda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi «Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora- tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1533-son, 2014 yil 6 fevraldagi «O‘zbekiston Respyblikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga karatilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-2124-son, 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ 2909-son Qarorlari, 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respyblikasini yanada rivojlantirish 6o‘yicha xarakterlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF 4947-son Farmoni xamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-hukukiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat kiladi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining ijtimoiy faollikni rivojlantirishga oid jaxonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: aloqiy tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqishga doir xalkaro xamkorlikni amalga oshirishning tashkiliy va straterik mexanizmlari takomillash-tirilgan (Association for Educational communications and Technology – AECT); oliy talim muassasasi talabalarini o‘qitish faoliyatiga tayyorlashga doir tizimning samarali faoliyat ko‘rsatish menejmenti va xizmat ko‘rsatish soxasi mexanizmlari asosida takomillashtirilgan (Belfield pedagogical university); talabalarni ijtimoiy faolligini kasbiy faoliyatila samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan, ijtimoiy faollikni rivojlantirishda talim-tarbiyaviy vazifalarini loyihalash, ma’naviy-ahloqiy bilimlarni turli vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradigan ijtimoiy-psixologik treninglar tizimi ishlab chiqilgan (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university); talaba shaxsi ijtimoiy faollikni rivojpantrishning loyixa texnologiyalari ishlab chiqilgan (Chunang universiteti); pedagog shaxsi ma’naviyatini shakllantirishning dasturlashtirish texnologiyasi ishlab chikilgan (Miyagi pedagogika universiteti); talabalarda ijtimoiy faollikni tarbiyalash texnologiyasi ishlab chiqilgan (Rossiya ta’lim akademiyasi). Oliy ta’lim muassasalari talabalarining ijtimoiy faollikni rivojlantirishga oid jaxonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: aloqiy tarbiya



texnologiyalarini ishlab chiqishga doir xalkaro xamkorlikni amalga oshirishning tashkiliy va straterik mexanizmlari takomillashtirilgan (Association for Educational communications and Technology - AECT); oliy talim muassasasi talabalarini o'qitish faoliyatiga tayyorlashga doir tizimning samarali faoliyat ko'rsatish menejmenti va xizmat ko'rsatish soxasi mexanizmlari asosida takomillashtirilgan (Belfield pedagogical university); talabalarni ijtimoiy faolligini kasbiy faoliyatila samarali tashkil etishga yo'naltirilgan, ijtimoiy faollikni rivojlantirishda talim-tarbiyaviy vazifalarini loyihalash, ma'naviy-ahloqiy bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash imkonini beradigan ijtimoiy-psixologik treninglar tizimi ishlab chiqilgan (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university); talaba shaxsi ijtimoiy faollikni rivojlanitirishning loyixa texnologiyalari ishlab chiqilgan (Chunang universiteti); pedagog shaxsi ma'naviyatini shakllantirishning dasturlashtirish texnologiyasi ishlab chikilgan (Miyagi pedagogika universiteti); talabalarda ijtimoiy faollikni tarbiyalash texnologiyasi ishlab chiqilgan (Rossiya ta'lim akademiyasi).

Talabalarning ijtimoiy faollikni rivojlantirishning falsafiy, ijtimoiy-antropologik masalalari A.Begmatov, M.Kaxxarova, A.Mavrulov, J.Tulenov, G.Tulenova, E.Yusupov, O.Gaybullaevlar tomonidan tadkik etilgan.

Ijtimoiy faollik – faollikning yuksak shaklidir. U fakat iisonga ijtimoiy mavjudot sifatada, insonlar guruxiga, jamiyatga xos. Odatda «ijtimoiy faollik» atamasi ijtimoiy munosabatlarning muayyan tizimida insonlarning intensiv faoliyatini belgilash uchun kanday bulsa, uni amalga oshirishga kobilyatni belgilash uchun xam shunday ishlatiladi. Shunday kobilyat bo'la turib, ijtimoiy faollik murakkab, integral fazilat sifatada mavjud. U kandaydir aloxida xususiyatni, balki xa'tiy faoliyat xususiyatlarining butun majmuini ifodalaydi, ularning bosh fazilati – ijtimoiy – faoliyatli moxiyatning ifodasi.

Amerikalik sotsiolog F.G.Keddings ijtimoiylashuv nazariyasi (1987) kitobida ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy xayotga taybrlashdir deb fikrini bildirgan.

Fransuz olimi Gabriel Tard, A.V.Petrovskiylarning tadkikotlari ijtimoiylashuv mexanizmlariga turli yondashuvlarini keltirib utishgan.

Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan Maks Veberg uni muammolarni yechishga karatilgan xarakat, inson xulk-atvoriniig taxminiy variantlarini subyektiv anglash sifatida, 3.Freyd bolaning kamol topishi, shaxs bulib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola urtasidagi munosabatlar, ularning uzaro xissiy birligi muxim axamiyatga egaligi, J.Piaje shaxs muayyan sxemalar xamda kognitiv



tuzilmalar yordamida boshkariladi; shu sababli uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv moxiyatini anglatishi, T.Persons, R.Beyla shaxs ijtimoiy ta'sirlar yordamida ilmiy bilimlar xamda kishilik madaniyati komponentlarini uzlashtiradi, ularning negizida esa u akliy jixatdan kamol topadi va axlokiy sifatlariga ega buladi – mazkur xolat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jixati xisoblangan ta'kidlaydi. R.Benedikt, M.Mid shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; xar bir davri shaxsning ijtimoiylashuv uziga xos kurinishda namoyon bulishini keltirib utishgan.

Faol shaxsni shakllantirish mexanizmlarini tadkik kilish va keyinchalik ularni ishlab chikish uchun A.M.Matyushkinning ijodiy iktidorlilik konsepsiyasi kizikish uygotadi. Uning moxiyati shundaki, shaxs ijodiy faolligi urab turgan dunyoni uzgartirishga yunalgan faoliyat sifatida xam shaxs ta'limi (muxit bilan maksadga yunaltirilgan uzaro munosabatga tayyorlikda, shaxsning maksadga intiluvchanlik, kat'iyatlilik, xarakat kilishga xoxish, ishchanlik va tashabbuskorlik bilan izoxlanadigan extiyojlari va manfaatlaridan kelib chikadigan mustakil faoliyatga intilishda namoyon buladigan) sifatida kurib chikiladi (karaladi). Inson faolligining integral xarakteristikasi bulib uning suz va ish birligida, prinsipiialligida, uz karashlarini ximoya kilish ketma- ketligida ifodalanadigan faol xayotiy pozitsiyasi maydonga chikadi. Shaxs faolligida, odatda, insonga xos bulgan va uning yurish-turiga (odob), xulk- atvor xarakterini belgilaydigan axlokiy (ma'naviy) kadriyatlar mujassam. Bundan kelib chikib, individ faolligining axlokiy asosi yovuzlikning barcha kurinishlariga karshi turishga xoxish (istak)dir. Bu bilan boglik faollik imkoniyati insonning fukarolik erkinligi darajasi bilan, jamiyatda tashabbus va xavaskorlikni namoyon kilish uchun xukukiy kafolatlarning mavjudligi bilan izoxlanadi [2].

Xozirgi pedagogika fani faolikka shaxsning rivojlanish xususiyatlarini asoslaydigan tizim, tashkil kiluvchi omil sifatida karaydi. Faollik uzgarishlarga tayyorlik, moslanish, mustakil xarakat kilishga intilish kabi fazilatlarida amalga oshiriladi, bunda ijtimoiy tajriba, insoniyat tuplagan bilimlarni va maksadga erishish uchun yanada kulay yullarni tanlash yordamida faoliyat usullarini uzlashtiradi.

Tadkikotchilar shaxs faolligini motivatsiya, maksadga yunalganlik, anglashilganlik, emotsionallik, xarakat usullari va yullarini egallash kabi tavsiflarni birlashtiradigan va kuchaytiradigan maxsus (aloxida) faoliyat sifatida tushunib, vaziyatlilik kabi xususiyatlarning zarurligini ta'kidlaydilar.



Talaba ijtimoiy faoliyatini rivojlantirish muhim omil sifatida jamiyatdagi ma'naviy-axlokiy sifatlarini o'zlashtirish hamda ijtimoiy va shaxsiy yetuklikka erishish asosida o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olish va ularga erishish yo'llarini belgilay olish, jamiyatdagi o'z o'miga ishonch hosil qilish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonboev M. Talabalar ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (jamoalar asosida): Dis. ... Pedagogika fanlari nomzodi. - Toshkent, 1998. - 155 b.
2. Arziqulova D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari: Psixologiya fanlari nomzodi.diss. Avtoref. - T.: 2002. -22 b.
3. Мартишина Н.В. сенностный компонент творческого потенциала личности педагогика// Педагогика. - М., 2006.- № 3. - С.48-57.
4. Поляков С.Щ. Технологии воспитание - М.: ВЖИАДОС,2002, -144с.
187. Психология и педагогика / Под ред. А,А.Радугина. - М.: сентр, 2002. - 256 с.
5. Педагогические технологии/ Под ред. В.С.Кукушина. - М.Ростовна-Дону: Март, 2006. - 336 с.



TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

N. R. MASHARIPOVA,

Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti, PhD, «Umumta'lim maktablarining 5-6 sinf adabiyot darslarida

IT-texnologiyalarini qo'llash metodikasi» innovatsion loyihasi ijrochisi

Ushbu maqolada o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning ahamiyati, tanqidiy fikrlashni shakllantirishning yo'nalishlari, Sa'diy Sheroziyning «Bo'ston» va «Guliston» asarlaridan o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda didaktik manba sifatida foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek ushbu asarlarning 5-sinf adabiyotida taqdim qilingan namunalarini tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan holatda tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: o'quvchi, 5-sinf adabiyoti, tanqidiy fikrlash, Sa'diy Sheroziy, «Guliston», «Bo'ston», axloq-odob, ibra olish.

В данной статье раскрывается значение формирования критического мышления у учеников, направления формирования критического мышления, педагогические возможности использования произведений Саади Ширازی «Бустон» и «Гулистон» в качестве дидактического ресурса в формировании критического мышления у учеников. Также были проанализированы примеры этих произведений, представленные в литературе 5 класса, в контексте развития критического мышления.

Ключевые слова: ученик, литература 5 класса, критическое мышление, Саади Шерази, «Гулистан», «Бостон», нравственность, восприятие реплик.

This article reveals the importance of forming critical thinking in students, the directions of forming critical thinking, the pedagogical possibilities of using Sadiy Sheroziy's works «Bo'ston» and «Guliston» as a didactic resource in forming critical thinking in students. Also, the examples of these works presented in the literature of the 5th grade were analyzed in the context of developing critical thinking.

Key words: student, 5th grade literature, critical thinking, Sadiy Sheroziy, «Gulistan», «Bo'ston», morality, perception of cues.

Ma'naviy dunyosi boy, ruhiyati baquvvat inson o'zligini va o'z hatti harakatlarini to'la anglab yetishga va bu borada o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tanqidiy fikrlashga qodir bo'ladi. Shuning uchun ham tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lgan shaxs o'z huquq va majburiyatlarini bilishga harakat qiladi. Tanqidiy fikrlashning negizini burch, mas'uliyat, majburiyatga sodiqlik tashkil etadi. Shaxsda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllanishi uchun avvalo o'z ichki olamini, ma'naviy dunyosini tushunib yetishi lozim. O'zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday inson



barkamollikga intiladi. Shunga ko‘ra tanqidiy tafakkur yurita oladigan shaxsni shakllantirish ta‘lim-tarbiyaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlashning shakllanishi avvalo oiladiga tarbiya muhitidan boshlanadi. Farzand tarbiyasining to‘g‘ri yo‘naltirilishi, uning xulq-atvori, o‘zini tutishi, bilim olishini nazorat qilish, qiziqishlarini inobatga olish, milliy urf-odat, an‘analar, e‘tiqodni shakllantirish, qadriyatlar, ajdodlar merosi bilan tanishtirish va ular bilan faxrlanishga o‘rgatish kabilar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy omillaridan hisoblanadi.

O‘quvchi-yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda milliy mentalitetimiz bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi omillarga e‘tibor qaratish muhim hisoblanadi:

- o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish;
- milliy an‘analar va urf-odatlar, unutilmas qadriyatlarni egallashga o‘rgatish;
- ajdodlar merosiga bo‘lgan e‘tibor va qiziqishni uyg‘otish;
- milliy qahramonlar shaxsi va ular faoliyati bilan ishlar bilan yaqindan tanishtirish;

– Vatan taqdiri, yurt kelajagiga daxldorlik hissini uyg‘otish.

Tanqidiy fikrlash jarayonida o‘quvchilarda psixologik jarayonlar ham harakatga keladi. Ayniqsa o‘quvchilar o‘z xotirasining imkoniyatlarini yuzaga chiqaradilar. Mavjud muammo yuzasidan o‘z qarashlari va nuqtai nazarlarini ifodalashda avvalo o‘z xotirasida saqlanib qolgan bilim va tushunchalarga tayanadilar. O‘z xotiralarini tiklash, diqqatni jamlash, mantiqiy va ijodiy fikrlashni amalga oshiradilar. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Shuning uchun ham o‘quvchilarga mashg‘ulotlarda muayyan muammo, tarixiy voqea, real xodisalar yuzasidan taqdim etiladigan savollar oddiydan murakkablashib boradi.

O‘quvchilar oddiy savollarda nisbatan kamroq faollikni egallasalar, murakkab savollarda o‘z-o‘zidan diqqatni jamlash, xotirani tiklash, o‘zining ijodiy qobiliyatidan foydalanish kabi psixologik jarayonlarga chuqurroq murojaat qiladilar. Masalan tarix yoki adabiyot darsida To‘maris haqidagi afsona vositasida milliy qahramon ayol – To‘marisning faoliyati o‘rganiladi. To‘marisning faoliyatini, mardligini, xalqi uchun qilgan ishlarini tahlil qilish asosida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash jarayonining shakllanishi yuzaga keladi. O‘quvchilarga «To‘marisni nima uchun milliy qahramon deyish mumkin», «To‘maris o‘g‘li uchun qasos oldimi yoki xalqini qutqardimi?», «To‘maris kabi qahramon bo‘lish uchun nima qilish kerak?» kabi savollar asosida o‘quvchilar bilan munozaralar tashkil etiladi. O‘quvchilar o‘z bilim va tushunchalaridan kelib chiqqan holda bu savollarga javob berishga harakat qiladilar. O‘qituvchi bu munozara jarayoni o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni



bosqichma-bosqich rivojlantirib borish uchun o'quvchilardan o'z javoblarini asoslab berishlarini talab qiladi. O'quvchilar tanqidiy fikrlash jarayonida egallagan bilim, tajriba va fikr bildirish kompetentligining mavjudlik darajasiga ko'ra turlicha faollik ko'rsatadilar.

Shuning uchun ham tanqidiy fikrlash orqali o'quvchilar o'z bilim imkoniyatlarini yangi bosqichga ko'tarish bilan bir qatorda, o'zlarida mavjud bilim, tushuncha, axborotlarni yangi ma'lumotlar bilan sintezlashga, umumlashtirishga muvaffaq bo'ladilar. Bunda o'quvchilarda refleksiya qilish, imitatsiya qilish, o'z immanentligi va nuqtai nazarini ifodalash, jamoa bilan muloqotga kirishish, diskussiyani amalga oshirish jarayonlari faollashadi.

Sa'diy Sheroziyning (1203-1292) «Guliston» va «Bo'ston» asarlari o'quvchilarda o'zligini anglashda, ahloq va ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda, insoniy fazilatlarini shakllantirishda muhim adabiy manbalar hisoblanadi. Sa'diy Sheroziy o'zining hayotiy boy tajribalari, egallagan dunyoviy, diniy bilimlari, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlariga tayangan holda o'zining buyuk didaktik ruhga ega bo'lgan «Guliston» (1257) va «Bo'ston» (1258) asarlarini yaratgan. Ushbu asarlarda inson o'zligini anglashga, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan qarashlar, g'oyalarni o'z ichiga olgan. «Bo'ston» asari o'n bobga bo'linib: hamd; na't; kitobning yozilish sababi, Abu Bakr bin Sa'd bin Zangiy madhi, Sa'd bin Abu Bakr bin Sa'd madhi, birinchi bob - odilligun tadbiri andisha, ikkinchi bob - ehson, uchinchi bob - ishq, oshiqlik, to'rtinchi bob - tavoze', beshinchi bob - rizo, oltinchi bob - qanoat, yettinchi bob - tarbiyat olami, sakkizinchi bob - shukur qilish, tinchlik, omonlik, to'qqizinchi bob - tavba va savob yo'li haqida, o'ninchi bob - munojot va kitob xotimasi haqida bayon etiladi. «Guliston» asari sakkiz bobdan iborat bo'lib: debocha, birinchi bob - podshohlar siyrati, ikkinchi bob - darveshlar axloqi, uchinchi bob - qanoat, to'rtinchi bob - sukut saqlashning foydalari, beshinchi bob - ishq va yoshlik, oltinchi bob - qarilik va zaiflik, yettinchi bob - tarbiyat ta'siri, sakkizinchi bob - suhbat odobi haqida yozilgan.

Ko'rinib turibdiki, «Bo'ston» va «Guliston» asarlari o'quvchi-yoshlarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim hisoblangan iymon, e'tiqod, vijdonni mustahkamlash, sabr, qanoat, shukronalik hissiga ega bo'lish, hayru ehsonli ishlarni amalga oshirishga intilish, ahloqiy-ma'naviy tarbiyaga ega bo'lish yo'lini ko'rsatuvchi pedagogik vosita hisoblanadi.

5-sinf adabiyot darsligida «Guliston» asaridan namunalar taqdim etilgan. Biz quyidagi jadvalda ushbu asarning 7-bobi «Tarbiya ta'siri» qismidan o'quvchilar tanqidiy fikrlash, o'zligini anglashga, ilm-u hunar egallashga undovchi bir nechta hikoyatlarni tahlil qilamiz (1-jadvalga qarang).



I-jadval

Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asaridan 5-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan hikoyatlar tahlili

Hikoyat nomi	Hikoyat mazmuni	Hikoya asosida o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga yo'naltirish
1-hikoya "Hunar o'rganmoq haqida"	Bir donishmand farzandalariga shunday nasihat qilardi: "Aziz o'g'lonlarim, hunar o'rganinglar, zeroki, molu dunyoga e'timod yo'q va oltin, kumush safarda hatarlidir. Qaroqchi o'g'irlab ketadi yoki egasi yeb -ichib tomomlaydi. Ammo hunar qay nar buloq, tuganmas davlatdir, agar hunarmand molidan mahrum bo'lsa, qayg'usi yo'qdir, chunki hunarning o'zi davlatdir. Hunarmand qaerga borsa qadrlanadi va uyning to'ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa hamisha mashaqqat chekadi". O'zi buyurmoqqa o'rgangan kishi, Qiyin boshqalarga quloq solishi. Kim agar o'sibdi nozu nematda, Holi og'ir bo'lar qolsa kulfatda.	Hikoya insonlar nimaga da'vat etayotganini aniqlash; Hunar inson hayotida qanday ahamiyatga ega ekanligini tushuntirish; Hunar egallash uchun bilim ol ishi lozimligini uqtirish; Hikoyadan olingan taassurot va xulosalarni aniqlash;
"Ustoz va shogirdlik" haqida	Bir olim shahzodaga ta'lim berar, lekin uni kaltaklab, qattiq azoblardi. Bir vaqt shahzoda toqat qila olmay shikoyat qilgani otasi huzuriga bordi va ko'ylagini ko'tarib, majruh badanini ko'rsatdi. Otasining yuragi achidi, muallimni chaqirib unga dedi: «Mening o'g'limga bergan bu aziyatingni biror fuqaro farzandiga ravo ko'rmasan, buning sababi nima?» Muallim dedi: «Buning sababi shuki, andisha bilan gapirmoq va maqbul harakat qilmoq lozimdir. Bu qoida barchaga barobar, xususan, podshohlarga aloqadordir, chunki ularning qilgan ishlari va gapirgan gaplari tillarda doston bo'lib ketadi, lekin avomning gapirgan gap -u xatti -harakati bunday ahamiyatga molik emas. Darvesh agar yuz noma'qul ish qilsa, biriga ham do'stlar qilmas e'tibor. Ammo podshoh biror hazil so'z desa, iqlimdan iqlimga o'tadi takror. Shuning uchun shahzodalarning ustozlari podshoh farzandlarining axloqini tarbiyalashda yanada ziyodroq sa'yi harakat ko'rsatmoqlari vojibdir». Kimga yoshligidan berilmas odob, Ulg'aygach bo'ladi baxtsiz, dili g'ash. Ho'l novda egilar qay xilda egsang. Quruqni to'g'rilar faqat o't-otash. Ustodning tutgan tadbiri va oqilona javoblari podshohga ma'qul tushdi. Podshoh unga libos va boshqa in'omlar berdi hamda martabasini oshirdi. Tilla -kumush bari chiqsa ham toshdan, Barcha toshda oltin bo'lmo'gi gumon. Suhayl nur sochadi har yoqqa birdan, Bir yerda charm-u, bir yerda saxtiyon.	Inson qaysi martada yoki qanday nasabdan bo'lishidan qat'iy nazar ilm olmog'i lozim; Ustozlar barcha o'quvchilarga birday munosabat, talab va e'tibor qilmog'i muhimdir; O'quvchilar yoshligidan odob-axloq fazilatlarini egallamoqlari, bilim olishga intilishi qat'iydir; Ota-onalar ustozlar bilan hamjihatlikda farzandlarni tog'ri tarbiya qilmog'i ma'quldir.



Xulosa qilib aytganda, Muslihiddin Sa'diyning Guliston va Bo'ston asarlari o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanishida, inson sha'ni, qadr-qimmatini yuksak tutib, tili, dini, millati, jamiyatdagi ijtimoiy mavqe'idan qat'iy nazar, har bir insonga hurmat-ehtirom ko'rsatishga, har doim jinoyat uchun jazo, ezgulik uchun rag'bat muqarrarligini anglashga, ezgu amallarini qilishga, o'z nafsini tiyishga, g'azab va jaxlga erk bermaslikka, insoniylik nurini buzuqlik, razolat bilan chulg'amaslikka, ilm, odob, ahloq fazilatlarini egallashga undovchi tanqidiy fikrlar majmuidir. Ushbu axloqiy-tarbiyaviy asarlar mazmunida berilgan hikoyatlar mohiyati o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish bilan bir qatorda, o'zlarida mavjud bilim, tushuncha, axborotlarni yangi ma'lumotlar bilan sintezlashga, umumlashtirishga, kerakli xulosa va yechimlarni topishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi «2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi» PF-134-sonli Farmoni.
2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. - 376 b.
3. Pedagogika. Ensiklopediya. III jild. jamoa // Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. - 400 b.
4. Paul R. Critical thinking: what every person needs to survive in a Rapidly Changing World/ Sonoma State Uni. 1990
5. Masharipova N.R. O'quvchilarda ma'naviy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. Science and Innovation International scientific journal Volume 1 issue 6. Uif. 2022: 8.2 Issn: 2181- 3337.P.62-66. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7105342>
6. Шерозий Саъдий. Бўстон (Панднома). Ҳикоялар тўплами. - Тошкент.: 2019. - 256 б.
7. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik/ S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. - T.: «Sharq», 2020. - 272 b.



NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN KASBIY TA’LIMDA TA’LIM NATIJALARINI BAHOLASH TAMOYILLARI

M. M. XOLMUXAMEDOV,

p.f.d (DSc), Mehnat bozori tadqiqotlari instituti

Maqolada natijaga yo‘naltirilgan ta’limda kasbiy ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash, kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchi va talabalarining kasbiy funktsionalligiga erishish nuqtai nazaridan kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchi va talabalarining ta’lim natijalarini baholash tamoyillari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: natijaga yo‘naltirilgan ta’lim, ta’lim natijalari, nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, kompetentlik, ta’lim natijalarini baholash tamoyillari.

В статье описаны принципы оценки образовательных результатов учащихся и студентов профессиональных образовательных организаций с точки зрения обеспечения качества и эффективности профессионального обучения в образовании ориентированного на результат, достижения профессиональной функциональности учащихся и студентов профессиональных образовательных организаций.

Ключевые слова: образование ориентированное на результат, образовательные результаты, теоретические знания, практические навыки, компетентность, принципы оценки образовательных результатов.

The article describes the principles of evaluating the educational results of pupils and students of vocational educational organizations in terms of ensuring the quality and efficiency of professional education in result-oriented education and achieving the professional functionality of pupils and students of vocational educational organizations.

Key words: result-oriented education, learning outcomes, theoretical knowledge, practical skills, competence, principles of evaluation of learning outcomes.

Insoniyat tamadduni ta’lim sohasini davlat va jamiyat, iqtisodiyot va mehnat bozori hamda texnologik taraqqiyot talablari asosida doimo takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Ishohotlar samaradorligi avvalambor uzluksiz kasbiy ta’limning har bir bosqichi darajasidagi ta’lim dasturlarida belgilangan ta’lim natijalarining ta’lim mazmuni va sifati manfaatdor tomonlar qo‘yayotgan talablarga mutanosiblik darajasi bilan baholanadi. Shu bois ta’lim natijalarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish, baholash tamoyillarini belgilash ta’lim sifati, samaradorligi va natijadorligini loyihalashtirish, ta’lim jarayonlarini modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim natijalari (ingl: Learning outcomes) pedagogik kategoriya sifatida O‘zbekiston kasbiy ta’lim metodologiyasiga Milliy malaka tizim joriy etilishi, O‘zbekiston milliy malaka ramkalarining Yevropa va dunyodagi 17 dan ortiq



mintaqaviy malaka ramkalari bilan uyg'unligini ta'minlash orqali jahon ta'lim makoniga bosqichma-bosqich integratsiyalashga bo'lgan harakatlar hamda malaka darajalari deskriptorlarining ta'lim natijalari formatida ifodalanishi natijasida joriy etildi. Ta'lim natijalari – ta'lim oluvchining bilimi, ko'nikma va kompetentligini turli kutilgan va kutilmagan vaziyatlarda qo'llay olishi bo'lib, umummadaniy, umumkasbiy, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarga integrallashtirilgan jamlanmasi sifatida ta'lim oluvchining kasbiy ta'lim dasturlarini bitirgandan so'ng uning ijtimoiy kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim natijalari kompetentlikning kutilayotgan va o'lchanadigan «tarkibiy elementlari» hisoblanadi, kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining nazariy bilim, amaliy ko'nikma va faoliyat tajribasini ma'lum bir o'quv fan yoki modulni ta'lim natijasida o'zlashtirgan bilim, ko'nikmadan foydalangan holda biror vazifani bajarib, namoyish qila olishining ifodasidir. Ta'lim natijalari ta'lim dasturi, fan yoki modul dasturining maqsadlaridan kelib chiqib quyidagilarni o'z ichiga oladi:

«Bilish» – o'quv materialini zarur ilmiy aniqlik va to'liqlik darajasi bilan ifodalash va tushuntirish;

«Bajara olish» – vazifalarni standart algoritmlar asosida amalga oshirish;

«Qodir bo'lish» – bilim, ko'nikma, munosabat asosida murakkab vazifalarni hal qilish, ularni kutilmagan vaziyatlarda qo'llash, tajriba orttirish jarayonida shakllanadi. «Qodir bo'lish» ifodasi kompetentlikka erishilganlik darajasini belgilaydi.

Ta'lim natijalari o'quvchi va talabalarining turli darajadagi kasbiy ta'lim dasturlari, o'quv fan yoki modul dasturlari yakunida nimalarni bilishi va uddalay olishi, qanday bilim, ko'nikma va mahoratga ega bo'lishini, qanday mehnat funksiyalarini bajarishi mumkinligi ifodalangan amaliy natijalar bilan belgilanadi.

Kasbiy ta'limning keyingi vazifasi xalqaro va mahalliy mehnat bozori talablarida raqobat qila oladigan, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari va mehnat bozori trendlariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash hamda ularning kompetentlik darajalarini ma'lum mezon va tamoyillar asosida baholanishini ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqardi. Shuning uchun ham, kasbiy ta'lim tashkilotlari turli darajadagi kasbiy ta'lim dasturlari o'quvchi va talabalarining ta'lim natijalari darajalarini baholash jarayonida quyidagi tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

– natijalar ustuvorligi tamoyili, ushbu tamoyilga asosan, kasbiy ta'lim tashkilotlarining ta'lim sifatini baholash tizimini ishlab chiqishdagi an'anaviy ta'lim jarayonini tashkil etish sifati, o'qituvchi va ishlab chiqarish ustalarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasini baholash kabi ta'lim jarayonini



baholashdagi ustuvorlikdan ta'lim natijalarini baholashga ustuvorlik berish;

– xolislik va shaffoflik tamoyili, kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining ta'lim natijalari darajalarini baholash jarayonida ta'lim jarayoniga jalb qilinmagan kasbiy ta'lim tashkiloti vakillari, xolis ekspertlar va ish beruvchilar vakillarini jalb qilish, baholash vositalari jamg'armalari, baholash usullari va mezonlarining ochiqligi;

– komplekslilik tamoyili, kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining ta'lim natijalari darajalarini baholashda o'quvchilarning texnik-texnologik ko'nikmalari qatorida tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, kreativlik, muammolarni yechish kabi «yumshoq» shaxsiy rivojlanish ko'nikmalarini, o'quvchilar ongiga milliy-ma'naviy qadriyatlarni singdirish natijalarini ham baholab borish;

– ta'lim natijalarini baholash metodlarining xilma-xillik tamoyili, kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining ta'lim natijalari darajalarini baholashda ta'lim natijalarining kognitiv, funktsionallik hamda affektiv yo'nalishlaridan kelib chiqib test, amaliy topshiriq, loyiha, tadqiqot, prezentatsiya, diskussiya metodlaridan foydalanish;

– formativ va summativ baholash tamoyili, kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining ta'lim natijalarini formativ baholash kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida o'quvchilarda o'zlashtirish dinamikasini aniqlash, qayta aloqani yo'lga qo'yish, korreksiya qilish maqsadlarida amalga oshiriladi;

– kriterial baholash tamoyili, kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining ta'lim natijalarini guruhdagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini taqqoslash asosida emas, ta'lim maqsadlaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan, potensial ish beruvchilar bilan kelishilgan va tasdiqlangan baholash vositalari hamda baholash mezonlari asosida baholash;

– rag'batlantirish tamoyillari, kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining baholash yordamida ularning mehnatini rag'batlantirishga erishish, bunda o'quvchilarning o'zlashtirgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalar formatida ifodalangan ta'lim natijalari, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarning chuqurligi, amaliy ko'nikmalarning kasbiy faoliyatda foydalana olishligini hisobga olingan holda baholanadi va baho ular uchun haqqoniy rag'batlantiruvchi vosita bo'lishini ta'minlash maqsadida har tomonlama izohlanadi, amaliy ishlarini shunday baholashi kerakki, buning natijasida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining har doim mustaqil ijodiy yangilik yaratishga, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishlariga ehtiyoj sezishlari lozim;

– uzviylik va izchillik tamoyili, kasbiy ta'lim tashkilotlari boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturi o'quvchi va talabalarining ta'lim natijalari darajalarini baholash jarayonida ularning umumta'lim dasturlari doirasidagi o'zlashtirish natijalari, o'rta



kasbiy ta'lim dasturi o'quvchilarining ta'lim natijalarini darajalarini baholash jarayonida ularning boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturlari doirasida o'zlashtirish natijalari va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturi talabalarining ta'lim natijalarini baholash jarayonida ularning o'rta kasbiy ta'lim dasturlari doirasida o'zlashtirish natijalarining, bundan tashqari norasmiy va informal orttirilgan bilim va ko'nikmalari bilan uzviyligi va izchilligini inobatga oluvchi «Recognition of Prior Learning» – oldingi ta'lim natijalarini tan olish tizimi bilan integratsiya qilish.

Yana bir muhim jihat kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining ta'lim natijalarini baholashda ular o'zlashtirgan nazariy tushuncha va bilimlar bilan amaliy ko'nikmalari kompetensiya birliklari sifatida individual tarzda yondashilgan holda baholanishi maqsadga muvofiq bo'ladi, kasbiy ta'lim va kasbga o'qitishning asosiy xususiyati o'quvchi va talabalarning funksional kompetentligini ta'minlashga qaratilgan.

Xulosa shundan iboratki, iqtisodiy – ijtimoiy munosabatlarda har qanday faoliyat muvaffaqiyati uning natijasi baholanishini inobatga olgan holda, kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining o'zlashtirgan nazariy tushunchalari, bilimlarining chuqurligi va kengligini, amaliy ko'nikmalarning funksionallik darajalarini baholashning yuqorida keltirilgan tamoyillar asosida amalga oshirilishi kasbiy ta'lim tizimida ta'lim natijalarini adekvat baholash tizimini yo'lga qo'yish, ushbu tizim joriy qilinishi orqali kasbiy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati va samaradorligiga erishish imkoniyatlari oshiradi, kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining mehnat bozorida munosib raqobat qilishlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. С.С. Хапаева. Результаты обучения: подходы к выявлению и оценке. Вестник Университета № 19, 2014 г.
2. Brooks, S. et al. Learning about learning outcomes: the student perspective. Teaching in higher education, 2014. Vol. 19, No 6, pp. 721-733.
3. Assessment of learning outcomes in Finnish vocational education and training. January 2014. Assessment in Education Principles Policy and Practice 21(1)DOI:10.1080/0969594X.2013.838938.
4. Холмухамедов М.М. Профессиональ таълимда компетенциявий ёндашувни жорий этишнинг долзарб масалалари. // Ж.: Касб- хунар таълими. - Тошкент, 2021. № 1. Б.2-6.
5. Холмухамедов М.М. Натижага йўналтирилган профессиональ таълим мазмуни // Монография. - «Complex Print», 2023. - 176 б.



BO'LAJAK O'QITUVCHI FAOLIYATINING TARKIBIY QISMLARI

A.A.NURMATOV,
O'zDJTU dotsenti, RhD

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda taqdim etilayotgan ishlanmalar o'quvchida mustaqil fikrlashni shakllantirish imkoniyatiga yaratishi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini faollashtirish, o'quvchilarda muammoli vaziyatlarda to'g'ri yechimlar topish ko'nikmasini tarkib toptirishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, pedagogik faoliyat, loyihalar va ishlanmalar shaxsiy fikr.

The development presented in the preparation of future teachers in the article consists in creating an opportunity to form independent thinking in the student, activating the process of personality-oriented education, structuring the skill of students to find the right solutions in problem situations.

Key words: future teacher, pedagogical activity, projects and developments personal opinion.

Представленные в статье разработки по подготовке будущих учителей позволяют сформировать у ученика самостоятельное мышление, активизировать процесс личностно-ориентированного обучения, закрепить у учащихся умение находить правильные решения проблемных ситуаций.

Ключевые слова: будущий учитель, педагогическая деятельность, проекты и разработки личное мнение.

Har bir bo'lajak o'qituvchi, birinchi navbatda, tarbiyachidir. Uning pedagogik faoliyati uzviy qismini yosh avlodni ma'naviy jihatdan shakllantirish vazifasi tashkil etadi.

Bo'lajak o'qituvchining har qanday nuqtai nazari uning faoliyati orqali tadbiq etiladi. O'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy, ma'naviy nuqtai nazarlarini tahlil qilish va tushunish uchun ular tomonidan taqdim qilingan loyihalar va ishlanmalarni har tomonlama o'rganish talab etiladi.

Pedagog o'qituvchilar tomonidan tuzilgan loyihalar va ishlanmalarni tahlil qilishlari natijasida ularni uch turga ajratish mumkinligini tavsiya qilganlar: axborotli-kognitiv, ijtimoiy-rolli, o'quvchi xulq-atvorini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalar va ishlanmalar. Mazkur ishlanmalar uch yo'nalishdagi ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Mazkur ta'lim-tarbiya jarayonlarini quyidagicha farqlandi: bilimlar maydoni, fikrlar maydoni, qadriyatlar maydoni.

Loyihalar va ishlanmalarni pedagogik faoliyat loyihasi sifatida talqin etish,



uni butun boshli innovatsion loyihalarga tadbiq etish imkonini beradi. Bunday loyihalarning tarbiyaviy imkoniyatlari kengligini ham tajribalar yaqqol ko'rsatmoqda.

Axborotli-kognitiv yo'nalishdagi loyihalar va ishlanmalar muayyan o'quv fanining ilmiy asoslarini o'quvchilarga taqdim etish texnologiyasiga tayangan holda ishlab chiqiladi.

Mazkur ishlanmalar o'quv predmeti mazmunining aniq qismlarini o'z ichiga oladi. Ushbu qismlar o'quvchilarning yetakchi tushunchalar, nazariyalar, qonun-qoidalar hamda o'quv faniga oid boshqa bilimlarni o'zlashtirishlarini nazarda tutadi. Mazkur tushunchalar, qonun-qoidalar, axborotlar bilimlar maydonining ko'lamini ifodalaydi.

Bo'lajak o'qituvchilar bunday ishlanmalarga alohida qiziqish bilan qaraydilar. Ular ilmiy-texnokratik paradigmalarga muvofiq kelib, shaxsga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayoni boshqaruvchining nuqtai nazarini hisobga olgan holda tuzilganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Bunday turdagi loyihalar va ishlanmalardan foydalanganda, o'qituvchilar o'zlarini o'quvchi timsolida ham juda qulay his qiladilar.

Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion izlanishlari uchun yangi o'quv kurslarini kiritish alohida ahamiyatga ega. Bunday o'quv kurslari yordamida loyihalar va ishlanmalar murakkablashtiriladi. Bu o'rinda asosiy qadriyatlar sifatida axborotlar, bilimlar, o'zlashtirilgan o'quv materiallari e'tirof etiladi.

O'zlashtirilgan bilimlar garchan yangi bo'lmasada, ularni qo'llashning yangi yo'nalishlari taqdim etiladi. O'quvchilar o'zlariga tanish bo'lgan tushunchalar va dalillarni yangicha nuqtai nazarda turib uyg'unlashtiradilar.

Yangilik darajasi haqida gapirganda, uning madaniyatlilik darajasi bilan mutanosibligini aniqlash lozim. O'quvchilarning xulq-atvorlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ishlanmalarda imitatsion modellashirish an'anasi, ya'ni faoliyat tajribasiga tayanish lozim. Mazkur ishlanmalar asosida o'quvchilarda mustaqil hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish nazarda tutiladi.

Mazkur ko'nikmalar insonning hayotiy nuqtai nazari va mikrosotsiumdagi o'rmini belgilashga ko'maklashadi. Bu jarayonda o'rganilayotgan bilimlar va axborotlar o'quvchilarning nuqtai nazarlari va munosabatlarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Bunday loyihalarda insonparvarlik paradigmalari va milliy-ma'naviy qadriyatlar asos qilib olinadi. Chunki, ular o'quvchilarda ijtimoiy faoliyat tajribasini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Mazkur ishlanmalardan foydalanishdan ko'zda tutiladigan asosiy maqsad, o'quvchilarda muammoli vaziyatlarda to'g'ri yechimlar topish ko'nikmasini tarkib toptirishdan iborat.



Muammolarning murakkablik darajasi va o'quvchilarni shakllantirish uchun muhimligi o'qituvchi tomonidan idrok etilgandagina maqsadga muvofiq tarzda ajratiladi. Bunday ishlanmalarda muammolar, vaziyat modellari, uning mazmun-mohiyati, ularni yechish uchun o'zlashtirilishi talab qilinadigan bilimlar hamda mashg'ulot qurilishining stsenariysi aniq ifodalangan bo'ladi.

Ijtimoiy rolli loyihalar o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarda bir qator ijtimoiy rollarni bajarishga oid bilimlar hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgandir.

Ularni aniqlash turlicha bo'lishiga qaramasdan, ko'zlangan asosiy maqsad - o'quvchilarda turli ijtimoiy rollarni bajarish ko'nikmasini tarkib toptirishdan iborat.

Umuminsoniy hamda jamiyat a'zolararo munosabatlar orasida o'quvchilarning bilimlari va shaxsiy dunyoqarashlarini rivojlantirishning samarali yo'llari va usullarini izlab topish alohida ahamiyatga ega.

O'quvchilar, birinchi navbatda, hissiy qadriyatli tajribaga ega bo'lishlari lozim. Ular o'z nuqtai nazarlarining mohiyatini anglashlari, uni muntazam takomillashtirishlari talab etiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining muhim belgilaridan biri – uning o'quvchida mustaqil fikrlashni shakllantirish imkoniyatiga egaligidadir.

Ijtimoiy rolli ishlanmalarni yaratish jarayonida o'qituvchilar shaxsga yo'naltirilgan ta'limning xuddi mana shu imkoniyatidan foydalana olishi kerak. Bu turdagi ishlanmalarni tadbiq etish o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirishga imkoniyat yaratadi. Bu jarayonda o'quvchi o'zining shaxsiy fikri, qarashlari, nuqtai nazariga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. - Ростов н/Д., 2000. - 352 с.
2. Колесникова И.А. Педагогическая реальность в зеркале межпарадигмальной рефлексии. - СПб., 1999. - 242 с.
3. Ибрагимова Е.М. Непрерывная педагогическая подготовка учителя в системе допрофессионального и профессионального образования: Автореф. дис. ... д ра пед. наук. - Казань, 1999.



РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ДЕТСКИХ ШКОЛ МУЗЫКИ И ИСКУССТВ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОЙ ТРАДИЦИОННОЙ МУЗЫКИ)

Л.И.АППАЗОВА,

самостоятельный соискатель

Государственной консерватории Узбекистана

Maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarida milliy madaniyatni rivojlantirish masalalari, milliy madaniyatning roli va ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *milliy madaniyat, an'anaviy musiqa, bolalar musiqa va san'at maktabi, ustoz-shogird, folklor.*

The article discusses the development of national culture in children's schools of music and arts, the role and importance of national culture.

Key words: *national culture, traditional music, children's school of music and arts, ustoz-shogird, folklore.*

В статье рассмотрены вопросы развития национальной культуры в Детских школах музыки и искусств, роль и значение национальной культуры.

Ключевые слова: *национальная культура, традиционная музыка, детская школа музыки и искусств, узост-шогирд, фольклор.*

Сегодня в эпоху глобализации основная задача Нового Узбекистана состоит в том, чтобы развивать свободное и процветающее государство. В республике огромное внимание уделяется воспитанию здорового, всесторонне образованного духовно-нравственного поколения, которое почитающего традиции, обычаи, память наших предков и развивало национальное искусство с позиции современных требований и взглядов, актуализации богатейшего наследия национальной культуры.

Для усиления роли и значения национальной культуры определены приоритетные направления государственных программ, которые ориентированы на качественное повышение уровня развития различных сфер национального искусства, создания новой истории Узбекистана, сохранения и популяризацию материального и нематериального культурного наследия, обеспечение активной интеграции в мировое культурное сообщество.

Особую методическую значимость в развитии сферы культуры имеют нормативно-правовые документы: нашей страны постановления Президента «Об утверждении Концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан», «О мерах по коренному совершенствованию



нию деятельности в сфере охраны объектов материального культурного наследия», «О мерах по совершенствованию деятельности Министерства культуры Республики Узбекистан», указ «О мерах по дальнейшему повышению роли и значения сферы культуры и искусства в жизни общества». В результате реализации государственных программ за последний период в республике созданы научные и учебные учреждения, центры, коллективы, профессиональные и непрофессиональные ансамбли, которые воплощают в жизнь положения данных развития национальной культуры.

Основными задачами нормативно-правовых документов являются: сохранение исторического и культурного наследия; пробуждение в сознании молодежи национальных и общечеловеческих ценностей; сохранение этнических культурных традиций; организация и развитие международных отношений в сфере культуры; рассмотрение национальной культуры как неотъемлемой части мировой культуры; обеспечение полноценной деятельности учреждения культуры и искусства.

В русле реформирования национальной культуры приняты действенные меры по дальнейшему развитию и популяризации жанров профессиональной музыкальной культуры, таких, как маком, катта ашула, дастан. На Востоке, с давних времен, значение музыки и умение играть на музыкальных инструментах считалось необходимой частью образования и гармоничного развития человека. В эпоху Средневековья в медресе Востока музыка входила в систему точных наук наряду с математикой. Инструменталисты и певцы становились профессионалами после многолетней учебы у прославленных мастеров. Методика обучения «устоз-шогирд» длилась от семи до двенадцати лет. Ученик осваивал определенное ремесло и одновременно обучался музыкальному искусству.

В наше время методика обучения устоз-шогирд остается актуальной для многих видов искусств и ремесел. Особенно, эта методика популярна в областях, где сохранились этнические корни. В сфере музыкального искусства методика обучения устоз-шогирд широко применяется в образцах профессиональной музыке устной традиции – макоме, катта ашула, дастане. И в системе ДШМИ это тоже является одной из сторон методики преподавания.

Наша современная система образования тоже подразумевает многоступенчатое и многолетнее обучение подрастающего поколения. Уже с раннего возраста детям прививают знания об истории родного края, праздниках, обычаях и традициях. В дошкольных образовательных организациях в игровой форме дети знакомятся с фольклором, песнями, считалками, играми, например, лайлак келди, ок терак кук терак.



В ДШМИ расширяется кругозор учащихся за счет комплексного подхода к искусству, включающего в себя определенную систему знаний, в которой одной из сторон является привить учащимся любовь и интерес к национальному искусству. Духовная культура человека формируется в процессе воспитания, обучения, где социализации и искусство в этом отношении является эффективным средством развития национального творческого мышления. Практическая деятельность направлена на освоение и создание экологического отношения к миру. В последние годы большое внимание в республике уделяется именно национальному возрождению, и это уже дает первые плоды и успешные результаты, связанные с широким развитием искусства макома, которые заключаются в следующих инициативах:

– образование в ДШМИ является базовой из ступени построения Нового Узбекистана, в котором особое место занимает музыкально-эстетическое воспитание подрастающего поколения. Нам необходимо повысить роль и значимость ДШМИ, повысить интерес к музыке не только детей, но и их родителей. В сознании родителей и подрастающего поколения снизился уровень значимости и необходимости обязательного музыкального образования для гармоничного и всестороннего развития личности;

– в сознании подрастающего поколения зачастую отсутствует четкое представление и понимания об национальном искусстве.

Сегодня необходимо привлечь как можно больше внимания общественности к вопросу дополнительного образования, так как нынешнее время деформировало социально-духовную сферу. Время диктует нам задачи по содействию и формированию у подрастающего поколения социально приемлемых ценностей, ориентаций и системы воспитания духовно-нравственной культуры.

Исходя из этого, в столице и областных центрах, крупных городах необходимо провести ряд мероприятий, направленных на привлечение широкого круга общества, вложить в их сознании людей новое представление об национальном искусстве и актуализации его в духовных ценностях: концертно-фестивальные мероприятия для ДШМИ, связанные с национальным искусством; конкурсная деятельность фестивали, кастинги, прослушивания, конкурсы различного уровня); мастер-классы и открытые выступления эти мероприятия позволили бы нам охватить широкую аудиторию заинтересовать и задуматься о дальнейшем обучении.

В тоже время для нашей системы обучения целесообразно было сделать следующее:

– разработать и обеспечить ДШМИ литературой, информирующей ценность историко-культурного наследия, которое сегодня выражает огромный интерес в современном мире;



– элементы национального искусства необходимо включать в план урока в разных вариантах: распевки, элементы музыкально-ритмических упражнений, музыка для слушания.

Обобщая итоги выступления, необходимо отметить, что, дополнительное музыкальное образование в ДШМИ необходимо каждому ребенку, так как искусство помогает развиваться гармоничной личности, личности с широким кругозором и мировоззрением, образным мышлением, аналитическим видением и пониманием. В республике делается очень многое для качественного повышения культурно-духовной образованности населения, и ДШМИ является важнейшей базовой ступенью системы, девиз которой: «гармоничная личность – национальное богатство».

Литература:

1. Абдуллаев Р.С. Основы узбекской традиционной музыки: Монография. - Т.: Мусиқа, 2022.
2. Карабаев У. Этнокультура (традиционная народная культура). - Т.: Шарк, 2005. - 240 с.
3. Кадыров Р. Музыкальная педагогика. - Т., 2009.
4. Ливиев А.Х. Ўзбек халқ чолғулариди ижрочилик: Мактабгача ёшдаги болалар ва умумтаълим мактабларининг бошланғич синфлари учун методик қўлланма. - Т.: Меҳнат, 2001. - 136 б.
5. Абдурахимова Ф.Р. К вопросу подготовки исполнительских кадров: культурные и нравственные аспекты // Процессы реформирования системы музыкального образования: Материалы первой международной научно-практической конференции. - Т., 2009.
6. Ташматова А. Музей музыкальных инструментов научно-производственной экспериментальной лаборатории «Миллий чолғу» при государственной консерватории Узбекистана // Вопросы музыкального исполнительства: Сборник материалов международной конференции. - Т., 2008. - С. 19-25.
7. Режаметова Н.И. Методика обучения игре на узбекских народных музыкальных инструментах. - Т.: ТДПУ, 2021.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.02.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**